







# ***SAYLANMA***



**II jild**

*(Ikki jildlik)*

G'AFUR G'ULOM NOMIDAGI NASHRIYOT-MATBAA  
IJODIY UYI

„O'QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI  
TOSHKENT — 2008

BBK 84 (50)5

Ўзб. адаб.

2009/85  
A7086  
Alisher Navoiy  
nomidagi  
O'zbekiston MK

T 4702620102-93  
353(04)-2008 Qat'iy buyurtma — 2008

ISBN 978-9943-02-210-2

© „O'qituvchi“ NMIU. 2008.

## YAXSHILIKKA KELGANMAN

*Oqil odam ajdodin yodin sira unutmas,  
Avlodini o'ylagan beshiklarin bo'sh tutmas.  
Eshik ochib baxtini, ayting, axir kim kutmas,  
O'ylamangki, olamga baxshilikka kelganman,  
Niyatlarim avvali yaxshilikka kelganman.*

*Bir maysaga bo'y bo'lsam, bir niholga tomchi suv,  
Kaftlarimga qush qo'nsa, yodiga kelmay qo'rquv,  
Yomon ko'rganim g'aflat, yomon ko'rganim uyqu,  
Uyg'otguvchi nasimdek men ham tonglar yelganman,  
Bu dunyoga, ayo do'st, yaxshilikka kelganman.*

*Tiniq osmon ko'rmadim, Vatanim samosidek,  
Har so'z meni balqitmas onamning duosidek,  
Hech so'z dilim tilolmas hikmatning ziyosidek,  
Navoiy navosidan tug'yonlarga to'lganman,  
She'rimda sharbat tutib yaxshilikka kelganman.*

*Atirgul armonini tikon tig'ida tutar,  
Shaytonfe'l yolg'onini soxta yig'ida tutar,  
Mardlar elning shonini ko'kda tug'ida tutar,  
Taqdir otgan toshiga ko'p bor tikka kelganman,  
Asraguvchi Haq bo'lsin, yaxshilikka kelganman.*

*Mening ham orzularim ko'ksimda gullab yotar,  
Mening ham armonlarim bag'rimga toshdek botar,  
Tirik odam talpinsa, umidli tonglar otar,  
Yo'limdagi yantoqdek yomonlikni yulganman,  
Mahmud, bahri buloqdek yaxshilikka kelganman.*

Axir o'quvchisi!  
Topgan zarim,  
tutgan tumorim,  
jism-u jonimda borim  
ushbu kitoblaringizlar  
uchkandir.

Jonim chashmaidan bir jom toldirdim,  
Könglim kosağa kalon toldirdim.  
Toshda gul undirmoq bo'g'unning ishi,  
Ayo dost, men shim qorda undirdim.

Muallif





1999-*yh*

*THE MOUNTAIN*  
*S. LANTIER*





## OQQAN DARYO OQAVERADI

Sen yo'limni to'sma, ey g'anim,  
Yantoq bo'lib o'sma, ey g'anim,  
Sokin daryo bu ko'nghim manim,  
Ishqim gulxan yoqaveradi,  
Oqqan daryo oqaveradi.

Men qoqilsam yer ko'targaydir,  
Erka bo'lsam el ko'targaydir,  
Ojiz avval qo'l ko'targaydir,  
Chayon zoti chaqaveradi,  
Oqqan daryo oqaveradi.

Sen ham bir bor yulduz bo'lib ko'r,  
Tun bo'lmagin, kunduz bo'lib ko'r,  
Bir maysaga ildiz bo'lib ko'r,  
Ko'klam chechak taqaveradi,  
Oqqan daryo oqaveradi.

Haq so'z jonim jarangi meni,  
She'rim dilimning rangi meni,  
To'kur hasadning zangi seni,  
Havas chaqmoq chaqaveradi,  
Oqqan daryo oqaveradi.

Sen kulmasang kulmaydi dunyo,  
Men yig'lasam yig'laydi dunyo,  
Bo'yin bizga bo'ylaydi dunyo,  
Yaxshi elga yoqaveradi,  
Oqqan daryo oqaveradi.



**ELNING VAFOSI**

Umrimiz bog'idan uzgan gullarni,  
Tutguvchi qo'llarda hayrat gullasin.  
To'lg'oting, uyg'oting mudroq dillarni,  
Biz yurgan yo'llarda jur'at gullasin.

Yashnatib yashaylik ko'hna dunyoni,  
Yo'lovchi emasmiz yurt kemasida.  
Kim yo'lin to'sibdi esgan saboni,  
So'zlash qanday go'zal erk shevasida.

Ostona ortidan boshlanar Vatan,  
Dilni to'ldiringiz tonggi ziyoga.  
O'zni tanib olish qiyin daf'atan,  
Vatan yaqin qilar bizni Xudoga.

Omadsiz bog'bondek kuzni qarq'amang,  
Vido sadosidir xazon xitobi.  
Sahifasin silab asta varaqlang,  
Tilloga yo'g'rilgan kuzning kitobi.

Biz ham o'tmagaymiz shunchaki yashab,  
Tafakkur tig'idir — inson dahosi.  
Har dilda nurlanar bir oliy matlab,  
Shoyad nasib etsa elning vafosi.



## KO'KARGAN KO'NGIL

Yuragim, yig'lasang yoshingni ko'ray,  
Ko'kargan ko'ngilning ko'klami keldi.  
Qaldirg'och, kela qol, qoshingni ko'ray,  
Ko'kargan ko'ngilning ko'klami keldi.

Endi yalpizlarning yaprog'i o'sar,  
Endi tikonlarning tirnog'i o'sar,  
Daryosini yo'qlab qirg'og'i o'sar,  
Ko'kargan ko'ngilning ko'klami keldi.

Har daraxt boshini barglar silaydi,  
Dardi bor ko'ngilni dardlar silaydi,  
Maysalar beshikka shabnam belaydi,  
Ko'kargan ko'ngilning ko'klami keldi.

Yomg'irlar yig'lashib sharob tutadi,  
G'unchalar bulbulga gulob tutadi,  
Onamni ayvonda oftob kutadi,  
Ko'kargan ko'ngilning ko'klami keldi.

Xudoyim, bandangman, bedor qil meni,  
Bolari bo'layin, dastyor qil meni,  
Oyatday oromli ash'or qil meni,  
Ko'kargan ko'ngilning ko'klami keldi.



## SAVOL

Siz qayg'uning rasmini chizsang,  
Siz quvonchni qaritmang sira.  
O'zni taning, ko'ngildan so'rang,  
Quvonchmi yo qayg'u bokira.

Diydor duri ranglarga sig'mas,  
To'ydim demang hijronga sira.  
So'rayverar yurak so'z uqmas,  
Hijronmi yo diydor bokira.

Bir ko'ngilda ming bitta kemtik,  
Ko'nglim deydi — ko'zgudan so'ra.  
Biz ko'zguga sig'mas gul edik,  
Ko'ngilmi yo ko'zgu bokira.

Biz gul edik, biz bulbul edik,  
Istamaymiz xazonlik sira.  
Bizni guldek, bizni bulbuldek,  
Asraguvchi Alloh bokira.



**AYTSIN**

G'uncha quvonch ichsin bulbul komidan,  
Bizlar may ichamiz sukut jomidan,  
Ey dil, bo'zlayverma elning nomidan,  
Elning elagidan o'tganlar aytsin.

Qo'shiq qo'ng'irog'in ochlar chalmagay,  
O'zdan ortmaganlar duo olmagay,  
Sarbon yo'lin bilsa, karvon tolmagay,  
Elning elagidan o'tganlar aytsin.

Demishlar qarg'aga tarona yoqmas,  
Noshud noliyverar, zamona yoqmas,  
O'chgan chirog'ingni begona yoqmas,  
Elning elagidan o'tganlar aytsin.

Shamol shovqiniga tog'lar qalqimas,  
Bog'bonsiz bog'larda gullar balqimas,  
Nokasning kaftidan savob silqimas,  
Elning elagidan o'tganlar aytsin.

Kuymagan ko'ngillar kurtak urmagay,  
Daryo oqib tursa, ko'lmak turmagay,  
Elning elagida kurmak turmagay,  
Elning elagidan o'tganlar aytsin.

G'uncha quvonch ichsin bulbul komidan,  
Bizlar may ichamiz sukut jomidan,  
Mahmud, bo'zlayverma elning nomidan,  
Elning elagidan o'tganlar aytsin.



**BILMASANG**

Savob asli samodan tushmas,  
Tillo yerga gadodan tushmas,  
Ko'kda uchgan har jonzot qushmas,  
Yerda yurgin ucha bilmasang,  
Tugun tugma yecha bilmasang.

Mezbon itin bo'shatib qo'ymas,  
Osh bergan zot oshatib qo'ymas,  
Hasad ahli tosh otib to'ymas,  
Chayon bo'lma chaqa bilmasang,  
Kir tutmagin yoqa bo'lmasang.

Yetim yetgan ostona bo'lgin,  
Onang o'pgan peshona bo'lgin,  
Gul shoxida bir shona bo'lgin,  
Qo'l cho'zmagin uza bilmasang,  
Baliq bo'lma suza bilmasang.

Tun bergan zot chiroq ham bergan,  
Yoving bo'lsa, yarog' ham bergan,  
Oxiratdan saboq ham bergan,  
O'qish nechun uqa bilmasang,  
Ko'lmaq bo'lgung oqa bilmasang.

Tangri senga dil bergan, ey do'st,  
Shukri uchun til bergan, ey do'st,  
Neki bersa chin bergan, ey do'st,  
Mahmud, tek tur so'zlay bilmasang,  
Bulbul bo'lma bo'zlay bilmasang.



**E'TIROZ**

Osmonning oxiri, yerning tagi yo'q,  
Quyosh Haq salomin tutib turgan cho'g',  
Ey besh kunlik mehmon, uraverma do'q,  
Men ketib sen abad qolmassan axir,  
Qur'ondagi Alif, Zolmassan axir!

Har ko'ngil ko'shkiga o'zi sultondir,  
Har tanda talpingan zanjirband jondir,  
Kimga kulgi, kimga yig'i armondir,  
Kulsang, yig'laganni xorlama axir,  
G'aminni kulguga chorlama axir!

Bo'ylasang nazdingda bu olam tordir,  
Oftobning ko'ksida oyga joy bordir.  
Daryolar bag'rida soyga joy bordir,  
Analhaq emassan, menlama axir,  
Seni siylaganni senlama axir!

Biz ham bu dunyodan o'ksib o'tmaymiz,  
Birga kelmaganmiz, birga ketmaymiz,  
Qo'lni ber, sen kabi tikon tutmaymiz,  
Dunyoing dunyoda qolgaydir axir,  
Mahmud yaxshilikdan tolmaydi axir!



**TUSHUNISH**

Bugun tongda tushundim men,  
Yuragimning tilini.  
Qon sachratib uzib berdi,  
Qolgan so'nggi gulini.

Qo'limda gul kuylayverdim,  
Ko'z yoshimga qorilib.  
Aytar so'zim oyatmidi,  
Toshlar ketdi yorilib.

Gul bandidan oqar qonim,  
Oshiqning ori bo'lib.  
Jismim tashlab ketdi jonim,  
Xudoning yori bo'lib.

**YIG'LASANG...**

Mayli yig'la, to'kilib olgin,  
Majnuntoldek bukilib olgin.

Senda bu hol bo'lmagan sira,  
Qara, ko'z yosh qanday bokira.

Lekin, ey do'st, yodda tut shuni,  
O'zni unut yig'lagan kuni.

Demayman sen hamrohga yig'la,  
Yig'lasang bir Allohga yig'la.





**YURAK**

Nega jimsan, yurak qurmag'ur,  
Charchadingmi sharobdan, maydan?  
Sen qaydasan, dildagi surur,  
Chalmay qo'yding men suygan naydan?

Suluv qizlar kutgan she'rlarim,  
Siz qalbimning qaysi qatida,  
Men sizlarni gulning bargiga,  
Yozgim kelar bulbul patida.

Oy ham menga ergashmay qo'ydi,  
Tongda g'aflat beshigidaman.  
Shayton bilan sharob ichaman,  
Qulman nafsım eshigida man.

Rayhonlarning rangin ichardim,  
Quyoshning ham hasadin qo'zg'ab,  
Bir rayhonday rang to'kmay, ey dil,  
Qachon bo'lding sen izzattalab.

Shabnamlarday she'rni sog'indim,  
Nega jimsan, yurak qurmag'ur?  
Mahmud, bilsang seni yig'latmas,  
Sendan keyin chalingan tanbur.



**YASHAGING KELARKAN**

Tong otsa quyoshga qarab to'ymaysan,  
Majnuntol sochini tarab to'ymaysan,  
Xudoyim baxt bersa, yashab to'ymaysan,  
Yashaging kelarkan yaxshini ko'rib.

Ibrat egalari ergashtirsalar,  
Hikmatlar dillarni tutashtirsalar,  
Tilaklar ko'ngilni yoshartirsalar,  
Yashaging kelarkan yaxshini ko'rib.

Tishda asraganing tosh bo'lib chiqsa,  
Qarindosh yot, yot dildosh bo'lib chiqsa,  
Kutmagan quvonch quyosh bo'lib chiqsa,  
Yashaging kelarkan yaxshini ko'rib.

Shayton chorlaganda naridan o'tsang,  
Pir-u badavlatning barini tutsang,  
Duoning to'kilgan zarini tutsang,  
Yashaging kelarkan yaxshini ko'rib.

Qay dilda qo'r bordir yolqini so'nmas,  
Tafakkur dur to'ksa, talqini so'nmas,  
Mahmud, oqil elning oqini so'nmas,  
Yashaging kelarkan yaxshini ko'rib.



## YOLG'IZLIK


Men Xudodan o'tindim bu kech,  
Yulduzlarga yukundim bu kech,  
Yomg'ir bo'lib to'kildim bu kech,  
Yolg'iz yashab yig'lama, ayol!

Sovutmagin suzgan oshingni,  
Baxt silasin illo boshingni,  
Quvonch artsin ko'zdan yoshingni,  
Yolg'iz yashab yig'lama, ayol!

Bolishingga bahor gul sochsin,  
Eshigingni bir bulbul ochsin,  
Beshigingga tangri dur sochsin,  
Yolg'iz yashab yig'lama, ayol!

Sen poklikning ismidagi nur,  
Sen chiroyning jismidagi nur,  
Sensiz dunyo bo'lolmaydi hur,  
Yolg'iz yashab yig'lama, ayol!

Tilaginga talpinib yasha,  
El mehriga yelpinib yasha,  
Sen dardlardan silkinib yasha,  
Yolg'iz yashab yig'lama, ayol!



**SIZLAR BORSIZ...**

Tomirimni tirnar ko'hna savollar,  
Yuragimda gullar shirin xayollar,  
Ey, Siz o'zbekoyim, oftobjamollar,  
Men oftobga alishmagan ayollar.


Millatning ertasi, millatning nasli,  
Siz atir nafasli, siz rayhon isli,  
Ketmas bo'lib kelgan bahorsiz asli,  
Men oftobga alishmagan ayollar.

O'zbekiy ohang bor kulgularida,  
Durni talpintirar yog'dularida,  
Orom orolanar tuyg'ularida,  
Men oftobga alishmagan ayollar.

Sizlar borsiz, so'zimizda sado bor,  
Sizlar borsiz, ishq ahlida gado bor,  
Sizlar borsiz, ming bir dardga davo bor,  
Men oftobga alishmagan ayollar.

Oftob o'qiz asli onam oldida,  
Bibixonim yuragimning yodida,  
Siz yashaysiz Mohlaroyim dodida,  
Men oftobga alishmagan ayollar.

Gul uzsam tutguncha qo'lim gullaydi,  
Men sizga yetguncha yo'lim gullaydi,  
Poyingizda o'lsam o'lim gullaydi,  
Men oftobga alishmagan ayollar.



## KURTAGIDA KULGU BOR

*Nabiram Abdullohga*

Chinorlarni chimchilab to'ymaydi yellar,  
Har gulni bir o'pmasa qo'ymaydi yellar,  
Unmasalar undirib o'ynaydi yellar,  
Kurtagida kulgu bor, bahor, bolajon,  
Tilagida tuyg'u bor, bahor, bolajon.

Ulg'ayursan, sening ham o'z bog'ing bo'lgay,  
Alvon-alvon lolalar chirog'ing bo'lgay,  
Tilin topsang maysalar o'rtog'ing bo'lgay,  
Dunyo toza sen kabi nahor, bolajon,  
Beshigingning boshida bahor, bolajon.

Bilsang, qushlar qanotin qarzga bermagay,  
Yerda yurib hech kimsa yulduz termagay,  
Irmog'i yo'q daryolar xanda urmagay,  
Irmoq bo'lsang izingda gul bor, bolajon,  
Gulda esa bulbuldek qul bor, bolajon.

Ko'zlaringga kulguni kurtaklar bersin,  
Yuzin ko'rma qayg'uni kurmaklar tersin,  
O'g'lon bersin, elga sheryuraklar bersin,  
Umring tilab bitganim ash'or, bolajon,  
Qutlug' bo'lsin senga ilk bahor, bolajon.



## BIZ KO'RMAGAN BULUTLAR

Bezab tog'lar boshini,  
Tiyib ko'zin yoshini,  
Siylar soylar toshini,  
Biz ko'rmagan bulutlar.

Ko'k yuzida pardadek,  
To'kilmagan zardadek,  
Turar burda-burdadek,  
Biz ko'rmagan bulutlar.

Yomg'ir bo'lsa yer to'yar,  
Kim xush ko'rmas, kim suyar,  
Ado bo'lsa kim kuyar,  
Biz ko'rmagan bulutlar.

Siz osmonning giyohi,  
Yaratganning siyohi,  
Qurigan ko'lmak ohi,  
Biz ko'rmagan bulutlar.

Tog'ga chiqib tog' bo'ldik,  
Toshda ungan bog' bo'ldik,  
Ko'rib ko'ngli chog' bo'ldik,  
Biz ko'rmagan bulutlar.

Erkin Samandar xushhol,  
Mahmud Toir turar lol,  
Keldikmi sizga malol,  
Biz ko'rmagan bulutlar?!



## JONGA CHERTASIZMI?

Tomirimga turtdi go'zallik,  
Jonimga bir chertdi go'zallik,  
Bir so'z topdim bitta g'azallik,  
Aytsak arzirmikin, malikam?

Daryoga talpingan irmoqdek,  
To'lqinin sog'ingan qirg'oqdek,  
Parvonasiz qolgan chiroqdek,  
Qaytsak qaraysizmi, malikam?

Bahorning guldagi olini,  
Kuzning tillarang xayolini,  
Yozning yondirguvchi bolini,  
Tutsak totasizmi, malikam?

Oh ursak tutilgan oftobdek,  
Tiz cho'ksak balqigan mehrobdek,  
Quysalar gullagan gulobdek,  
Jonga chertasizmi, malikam?

Qush bo'lsak shubhasiz osmonsiz,  
Kim jangdan chiqibdi qurbonsiz,  
Mahmudga siz jonsiz, jononsiz,  
Dodga yetasizmi, malikam?



## IQROR

Ajinlar o'pmagan yuzlardan o'pdim,  
Binafshadek kulgan ko'zlardan o'pdim,  
Tiz cho'kdim, bir shirin izlardan o'pdim,  
Jonimni kaftimda tutib yashadim,  
Dunyoda men seni kutib yashadim.

Chiroyi chirsillab turgan ayollar,  
She'r so'rdi, o'qidim tillari bollar,  
Bahordek bag'rida surib xayollar,  
Olovni o'rtatib yonib yashadim,  
Gohida o'zimdan tonib yashadim.

Yashadim bahorda boychechak bilan,  
Bag'rimda balqigan oychechak bilan,  
Kiprigi o'q, qoshi yoychechak bilan,  
Gulning gulobini ichib yashadim,  
Oshiq osmonida uchib yashadim.

Bog'da bolishimni bolari talab,  
Bulbulni tonggacha qo'ydim allalab,  
Oshiqlik jonimda ko'kargan matlab,  
Oyni osmonidan olib yashadim,  
Quyoshni ko'ksimga solib yashadim.

Ko'nglimdan o'sdim men ko'nglimga cho'kib,  
Kutmagin, yashamam qaddimni bukib,  
Agar tushlarimda qo'ysang bir o'pib,  
Tongda ko'zlaringda kulib yashagum,  
Mahmudman, shoirman, o'lib yashagum.





**YODINGIZNING YULDUZI**

Ko'zingiz gulshanida jannatiy gullar unar,  
Yuzingizga termulib yuz yil yashagim kelar,  
Poyingizga jonimni guldek to'shagim kelar,  
Qo'lingizni so'rashga qurbim yetmaydi, gulim.

Quyoshning qahri kular Sahroyi Kabirlarda,  
Bulbulning bo'zi bordir biz chekkan jabrlarda,  
Suratingiz silayman sarg'aygan sabrlarda,  
Qo'lingizni so'rashga qurbim yetmaydi, gulim.

Majnunning nolasida sulton saodati bor,  
Oshiqlar armonida Allohning oyati bor,  
Karami keng egamning Yusuf hikoyati bor,  
Qo'lingizni so'rashga qurbim yetmaydi, gulim.

Yodingizning yulduzi bir osmonga sig'maydi,  
Siz jannatning gulisiz desam hurlar yig'laydi,  
Bu ne baxtkim otangiz tushlarimda jilmaydi,  
Mahmud endi dunyodan yolg'iz o'tmaydi, gulim.



**BIR O'RIM SOCH**

Mening ko'nglim gulshanida bir o'rim soch o'rmalar,  
Ko'zlarimning gavharini bir o'rim soch burmalar,  
Bir jonimni bir o'rim soch qirq bo'lakka burdalar,  
Bir o'rim soch belingizda bekdan yiroq, begoyim,  
Sizni gulday ko'nglingiz-a, kekdan yiroq, begoyim.

Bir o'rim soch boshim uzra dor bo'lsin deb zorlandim,  
Sochingizga suqlanganlar xor bo'lsin deb zorlandim,  
Bu ne sochkim ko'z bilan ham bir silashga orlandim,  
Ikki ko'zim yo'lingizda ikki chiroq, begoyim,  
Bir o'rim soch qirq taralsa qirqta chiroq, begoyim.

Bir o'rim soch belingizda ajdar bilan bellashur,  
Sochlaringiz sochilganda Sayxun bilan sirlashur,  
Qirq armonim zulfingizni qirq qatiga chirmashur,  
Sochingizni so'zda silab chekkanim oh, begoyim,  
Tosh ezmagan ko'nglimizni ezdi firoq, begoyim.

Sochlaringiz sollanganda sabolar ham sarxushdir,  
Bu ne sochkim mushk anbari rayhonlardan dilxushdir,  
Ko'rmasa ko'zlari giryon, ko'rsa Mahmud behushdir,  
Sizni egam yomon ko'zdan qilsin yiroq, begoyim,  
Qo'lim qadoq, sochingizga jonim taroq, begoyim.



**BU NE OHKIM...**

Hasratim havoda xazonlar yoqdi,  
Sog'inchim charx urib chaqmoqlar chaqdi,  
Gulim, ko'zlarimdan guloblar oqdi,  
Bu ne og'u, ichib ko'nglim to'lmagay,  
Bu ne ohkim, bulbul tildan qo'ymagay.

So'zlarkim sadosi samoga sig'mas,  
Ishqim iltijosi imoga sig'mas,  
Bu ne gadolikkim, gadoga sig'mas,  
Yo'l yursak yo'limiz yig'lab to'ymagay,  
Bir oykim o'rog'i tig'lab qo'ymagay.

Balqdingiz, ko'kda oy yutinib oldi,  
Boqdingiz, ko'zimiz totinib oldi,  
Qalqidik, daryolar qimtinib qoldi,  
Sulton saltanatin suyib to'ymagay,  
Qul boshin kundaga qo'yib to'ymagay.

Ishqning ishratini sog'inchda bildik,  
Oy bilan yig'ladik, kun bilan kuldik,  
Ko'rmaysiz, yulduzdek to'kilib bo'ldik,  
Mahmud mehringizga qonib to'ymagay,  
Qay o'tga soldingiz, yonib to'ymagay.



**MEN KO'RMAGAN GUL**

Yuragimda men ko'rmagan gul bor ekan,  
Qo'lim cho'zsam qon qalqidi daryosida.  
Shu damgacha oshiqligim bekor ekan,  
Ko'r edimmi bulbullarning dunyosida.

Chertib aytdim, hech bir go'zal evrilmadi,  
Turtib aytdim, toshlar joydan surilmadi,  
Bo'rtib aytdim, yuzlarga qon urilmadi,  
Til aylanmas dilsizlarning dunyosida.

Qatra qalqib daryo bo'lmas, tog' bo'lmasa,  
Yovg'on bilan qozon kulmas, yog' bo'lmasa,  
Boyqushlarga bozor obod, bog' bo'lmasa,  
Bulbul afgor gulsizlarning dunyosida.

Oqqushginam, oromingiz buzib qo'ydim,  
Chiroyingiz ko'zlarimga chizib qo'ydim,  
Sizga gulmas, yuragimni uzib qo'ydim,  
Oftobimsiz nursizlarning dunyosida.

Yuragimda men ko'rmagan gul bor ekan,  
Qo'lim cho'zsam qon qalqidi daryosida.  
Shu damgacha oshiqligim bekor ekan,  
Ko'r edimmi bulbullarning dunyosida.



## EY QORA KO'Z

Sen olovda gullagan bir gul,  
Men otashda kuylagan bulbul,  
Bizsiz dunyo neni ko'ribdi,  
Ey qora ko'z, ey sochi sunbul.

Gunohimiz guvohi Alloh,  
Oshiq ahlin panohi Alloh,  
Poklik bizning yo'ldoshimiz, yor,  
Jannat erur biz borar dargoh.

Yo'limizdan shaytonlar qochar,  
Farishtalar gul, rayhon sochar,  
Sevishganlar sultoni egam,  
Ikkimizga albat yuz ochar.

Sen olovda gullagan bir gul,  
Men otashda kuylagan bulbul.  
Sen gullab o't, men kuylab o'tay,  
Ey qora ko'z, ey sochi sunbul.



**KO'Z TEGMASIN**

Yomon ko'zlar yotlarga boqsin,  
Ko'z tegmasin, ko'zlar tegmasin.  
Bizning sanam tumorlar taqsin,  
Ko'z tegmasin, ko'zlar tegmasin.

Ag'yor ko'zga solari cho'pdir,  
Suqlar tushar suluvlar ko'pdir,  
Ular ichra sizga teng yo'qdir,  
Ko'z tegmasin, ko'zlar tegmasin.

Siz yursangiz yo'llarda ifor,  
Suvlar mavji toshlarda dutor,  
Biz g'aribda bitta o'tinch bor,  
Ko'z tegmasin, ko'zlar tegmasin.

Gulim, nur bor qarog'ingizda,  
G'uncha ko'rdim dudog'ingizda,  
Mahmud o'tar firoqingizda,  
Ko'z tegmasin, ko'zlar tegmasin.



**DA'VAT**

Men yolg'iz yashadim o'z dilim bilan,  
Men yolg'iz yashadim o'z qo'lim bilan,  
Yolg'iz yasholmadim lek yo'lim bilan,  
U meni jilmaygan nurga boshladi,  
U meni so'nmagan qo'rga boshladi.

Yolg'iz yashayverdim xayolim bilan,  
Qahri qattiq nafratim — zolim bilan,  
Yolg'iz yasholmadim orzuyim — bolim bilan,  
U meni lolazor qirga boshladi,  
Qirlarga sochilgan sirga boshladi.

Yolg'iz yashayverdim yolg'izlik bilan,  
Yolg'iz yashayverdim ojizlik bilan,  
Yashaging kelarkan gul yuzlik bilan,  
Oshiqlik, oh, meni chohga boshladi,  
Guldan-da go'zal gunohga boshladi.

Bir zum kiprikda yosh yashab turganda,  
Qarg'alar uch yuz yil qaqshab turganda,  
Tikon gulga mehr to'shab turganda,  
Qay dilga muhabbat hamroh emasdir,  
Demak, u tangridan ogoh emasdir.



**GULIM**

Ko'ngilga sig'mas qilni  
Men qirqqa yorgim kelar.  
Qaldirg'och qanotida  
Qoshingga borgim kelar.

Yo'llar meni yetaklar,  
Yetolmasman yoningga.  
Jonimni qo'shib qo'ygum,  
Gulim, sening joningga.

Do'lonani do'I ursa,  
Tog'lar boshi yorilmas.  
Qayrilib kamon bo'ldim,  
Bevafo yor qayrilmas.

Qo'llaringni bo'ynimga,  
Kel, bir bora sol, jonim,  
Mayli keyin bu jonni,  
Ostonangda ol, jonim!





**SO‘Z BERGAN HAM  
O‘ZING, ALLOH**

So‘z axtarib sarg‘aymadim,  
Malomatga yuz chaymadim,  
Men yodingga dil boyladim,  
So‘z bergan ham o‘zing, Alloh,  
Ko‘z bergan ham o‘zing, Alloh.

Quyosh tongi elching seni,  
Oy oqshomgi yo‘lching seni,  
Ko‘kda yulduz gulching seni,  
Gul bergan ham o‘zing, Alloh,  
Dil bergan ham o‘zing, Alloh.

Bu ne sabr — poyoni yo‘q,  
Bu ne jabr — qalqoni yo‘q,  
Bu ne ta‘bir — yolg‘oni yo‘q,  
So‘ngsiz sirga sulton Alloh,  
Senga har ish oson, Alloh.

Yolg‘on aytgan yorishmagan,  
Tuproq‘ingga qarishmagan,  
Senga yetib borishmagan,  
Kimga yo‘ling yiroq, Alloh,  
Kimga tutding chiroq, Alloh.

Gar so‘z bersang, sadosin ber,  
Ko‘z berganga ziyosin ber,  
Mayli dard ber, davosin ber,  
Ishqing mayin ichir, Alloh,  
Qul Mahmudni kechir, Alloh.

**TAQDIR**

Savobni sahroga sochib bo'lmaydi,  
Fol ko'rib tilsimni ochib bo'lmaydi,  
Ayo do'st, Xudodan qochib bo'lmaydi,  
Dardmand davo topmas ming oh-u vohdan,  
Banda tadbir qilar, taqdir Allohndan.

Soylar xush ko'ringay sadosi bilan,  
Yurtlar boy ko'rinmas gadosi bilan,  
Jabr ham qadrli jafosi bilan,  
Ko'z yumib o'tsang ham uchragan chohdan,  
Sen tadbir qilasan, taqdir Allohndan.

Har kimsa qatorda nor bo'lolmagay,  
Soxta shon nomardga or bo'lolmagay,  
Yong'ir yuz yil yog'sa qor bo'lolmagay,  
Munojot qilsang ham aytib „Segoh“dan  
Bulbul bo'lish baxti taqdir Allohndan.

Inson yasholmagay armondan yiroq,  
Lek ayro tushmasin iymondan yiroq,  
Duo dilning duri, so'zdagi chiroq,  
Mahmud, poklay bilsang o'zni gunohdan,  
Shoyad kulib boqsa taqdir Allohndan.



# *SAYLANMA*

*2002- yil*





**ELIM DEB AYTGIN**

To'kilgan qum sig'magaydir sanoqqa,  
Kim havas qilibdi bu kun o'roqqa,  
Talpinmagan bormi tunda chiroqqa,  
Har neki yaraldi, avvali bordir,  
O'rnini bilmagan to'rda ham xordir.

Kim agar bo'libdi hikmat egasi,  
Ham yana bo'lgaydir hurmat egasi.  
Chinniga chiroymas tushgan chegasi,  
Ko'zguga ko'z tushsa har kim yayramas,  
Qahr qafasida zog' ham sayramas.

Bizni bemor degan bir bedor bo'lsin,  
Bedorlik dardida bir bemor bo'lsin.  
Bo'y-bast har kimda bor, vale or bo'lsin,  
Kimki Haq yo'linda bir oh urmishdir,  
Bilsinki, qoshida Alloh turmishdir.

Yoshlik bu umrning chaqmog'i ekan,  
Keksalik armonning to'qmog'i ekan,  
Har kim o'zi bilgay, kim nima ekan,  
Ekkaning gul bo'lsin ham bug'doy bo'lsin,  
Zulmatda ko'rganing to'lin oy bo'lsin.

Tiklashib borsang gar tog'lar tan olgay,  
Mehringdan suv tara, bog'lar tan olgay.  
Mahmud, asling bulbul, zog'lar tan olgay,  
Kuymaganni kuydir, dilim deb aytgin,  
Bir satr bo'lsa ham elim deb aytgin.



**NURNING KALOMI**

Xasda asli hayrat na qilsin,  
Toshda, ey do'st, siyrat na qilsin,  
Noshud, kasda g'ayrat na qilsin,  
So'zing ichra siyrating bo'lsin,  
Ko'zing ichra hayrating bo'lsin.

Men zar emas, diydor talabman,  
Bulbuldirmanki, gul tarafman,  
Dengiz ko'rmay dema sadafman,  
Zargar bo'lsang dil zaring bo'lsin,  
Osmon bo'lsang hulkaring bo'lsin.

Olomondan omonlik so'rma,  
Yuz yil yasha, yomonlik ko'rma,  
Qadoq qo'lsiz ko'ksingga urma,  
Tillo topgin, haloling bo'lsin,  
Haq xush ko'rsin, kamoling bo'lsin.

Til uchida dil dardi bo'lmas,  
Sof ko'ngilning, bil, gardi bo'lmas,  
Mo'min emas qirq farzni bilmas,  
Shayton aytar, zo'r shoning bo'lsin,  
Rahmon aytar, iymoning bo'lsin.

Mahmud, osmon yiroq demagin,  
Yonar qurti chiroq demagin,  
Har sog'inchni firoq demagin,  
Ranging gulning salomi bo'lsin,  
She'ring nurning kalomi bo'lsin.



**OSMONNING EGASI BOR**

Yukni ko'targan yutar, yig'loqi marddan nari,  
Qalbida qahri borlar tilida qanddan nari,  
Non qadrin novvoydanmas, och qolgan odamdan so'r,  
Tegirmon ko'rmaganlar aslida garddan nari.

Qo'ng'izni qirq yil yuvsang bir tuki oq bo'lmagay,  
Yulduz yuz yil yig'lasa bir kecha moh bo'lmagay,  
Xudo o'zi ulug'lik uvog'ini bermasa,  
Qirq ming tepa qo'shilib ming yilda tog' bo'lmagay.

Ko'ksingni kergan bilan tosh tegsa tutolmaysan,  
Bir o'zing bek bo'lmaysan, manzilga yetolmaysan,  
Tulporing tuyog'iga el duo to'kmasa gar,  
Tog' nadir, daryo nadir, bir jardan o'tolmaysan.

Har neki qadri bo'lsa, qarog'ingda asragin,  
Ota-onang ruhini chirog'ingda asragin,  
Tarozuni to'ldirib bo'lmas sira dur bilan,  
Shabnamga shaydo bo'lsang yaprog'ingda asragin.

Baxt kelganda sarxushsan, ketarda qanotsiz qush,  
Doim o'ngdan kelmaydi xobingdagi shirin tush,  
Agar, Mahmud, muroding Vatanga vafo bo'lsa,  
Osmonning egasi bor, sen ko'kdan tuproqqa tush.



## YAXSHI

Tilab olgan hurmatdan  
Gado topgan non yaxshi.  
Sotqin ko'rgan izzatdan  
Chiqib ketgan jon yaxshi.  
Yuz yil yig'lab yurgandan  
Saodatli on yaxshi.  
Ey do'st, mendan so'rmagin —  
Kim yomon-u kim yaxshi.  
Bo'm-bo'sh tilla ko'zadan  
Mayga to'la xum yaxshi.

Chumolining jonidan,  
Qumursqaning qonidan,  
Qarg'aning qumg'onidan,  
Hatto itning shonidan,  
Tama talab kaslardan  
Bir chimdim rayhon yaxshi.  
Ey do'st, mendan so'rmagin —  
Alifmi yo Nun yaxshi.  
Kunduz quldek yurgandan  
Ozod yurgan tun yaxshi.

Burda nonni tutolsang,  
Fikrin qilib yashasang.  
Qultum suvni yutolsang,  
Shukrin qilib yashasang,  
Bir odamdek yashashga  
Haq bergan imkon yaxshi.  
Yaxshilar ko'p dunyoda,  
Demasman hech: men yaxshi,  
Yaxshiliklar yarashgan,  
Do'sti aziz, sen yaxshi.



Qumg'oning qo'rsiz qolsa,  
Yuraging jo'rsiz qolsa,  
Jon degani kun kelib,  
Tandan chiqib tin olsa,  
Oh, ortingdan desalar:  
Ketdi bir inson yaxshi!  
Mahmud, zinhor demagin,  
O'lganda ham shon yaxshi,  
Ruhingga rohat tilab  
O'qilgan Qur'on yaxshi.



## O'ZIMGA NASIHAT

Oftob senga ergashib yursin,  
Izzat izda nur tashib yursin,  
Bulbul bo'lgin, qafas ko'rmagan,  
Gullar senga gul tashib yursin.

Bu dunyoni besh kunlik dema,  
Bergan rizqin besh kunda yema,  
Qush uchmasa, osmonga uvol,  
Kimga kerak ummonsiz kema.

Salomingda saodat bo'lsin,  
Kalomingda karomat bo'lsin,  
Bandangman de, Xudo xushlasin,  
Xush niyating ijobat bo'lsin.

Odamlar bor — baxting tilaydi,  
Odamlar bor — itni talaydi,  
Yaxshi odam tamasiz yashab,  
Og'ir kunda kunga yaraydi.

Quyoshga boq, kulishni o'rgan,  
Oyga qara, to'lishni o'rgan,  
Mahmud bo'lsang yerni ko'rib yur,  
O'lmay turib o'lishni o'rgan.



## PAXTA

Oppoq degan soʻzga chiroysan, paxta,  
Momo yer koʻksida bir oysan, paxta.  
Suluvlar sochlari boshingdan sohib,  
Terganda jilmaygan Humoysan, paxta.

Niholsan nozanin yurakda ungan,  
El-u yurt rizqisan tilakda ungan.  
Qiyos koʻp, paxtajon, asli oʻzbekning,  
Ozorsan hamda or kaftiga qoʻngan.

Mashaqqat mevasi, bunchalar oqsan,  
Saxiy kuz koʻksida yuksalgan togʻsan.  
Oʻzbekni dunyoga oliblar chiqqan,  
Sen Ipak yoʻlida yongan chiroqsan.

Ter degan tomchidan toʻkilgan durim,  
Ey oppoq malagim, koʻzdagi nurim.  
Dehqon tabassumi sochilgan dalam,  
Nondayin nasibam, soʻnmas gʻururim.

Seni deb egilar egatlarda el,  
Seni deb kerilar quvonchlari sel.  
Onam boshidagi oppoq roʻmoli,  
Koʻzimga surayin, farishtamsan, kel!



**AQLI XUSH**

Ko'zni ko'rsin deb yaratdi,  
Qo'lni qursin deb yaratdi,  
Xudoyim har bandasin,  
Qandin ursin deb yaratdi.

Ko'klashgin ko'klam bilan,  
Dillashgin shabnam bilan,  
Bu dunyo obod axir,  
Aqli xush odam bilan.

Dil tubi ko'zdan yiroq,  
Dil o'zi ko'zga chiroq.  
Garchi yuz yil yasharsan,  
Har kuning bergay saboq.

Jon uchun jonon kerak,  
Yer uchun osmon kerak.  
Quyoshni ko'rging kelsa,  
Uyingga ayvon kerak.

Xush odam, hushyor odam,  
Baxtlidir bedor odam.  
O'zingga buyurmasa,  
Topganing bekor, odam.

Ko'zni ko'rsin deb yaratdi,  
Qo'lni qursin deb yaratdi,  
Xudoyim har bandasin,  
Qandin ursin deb yaratdi.



## O'ZING TUR

Kiprik tushsa ko'zing bilar,  
Odam bo'lsang izing bo'lar,  
Mardsan, yorug' yuzing bo'lar,  
Qoqilsang, o'zing tur, bolam.

Jovdirama, jilmayib yur,  
Xush duoga yuz chayib yur,  
Alpomishdek ulg'ayib yur,  
Qoqilsang, o'zing tur, bolam.

Safga kirsang nori bo'lg'in,  
Ajdodingni ori bo'lg'in,  
Oshiq ko'ngil zori bo'lg'in,  
Qoqilsang, o'zing tur, bolam.

Zog' qahridan qalqib ketma,  
Burgut desa balqib ketma,  
Savob qilsang, savob kutma,  
Qoqilsang, o'zing tur, bolam.

Yog' yalama yotlar bilan,  
Shohlar yurmas motlar bilan,  
Yo'lga chiqsang mardlar bilan,  
Qoqilsang, o'zing tur, bolam.

Shoir Mahmud sha'nidek pok,  
Inshoolloh yo'llaring oq,  
Hamrohingga tutib chiroq,  
Qoqilsang, o'zing tur, bolam.



## IYMON NAZRI

Quvonchingiz vaznini o'lchab ko'rganmisiz hech,  
Qayg'uingiz qarzini to'lab ko'rganmisiz hech,  
Miskinning malomati sukutin salmog'ida,  
Iymoningiz nazrini o'ylab ko'rganmisiz hech.

Dunyoning boyligini olib ado qilgan kim,  
Shoh ko'ngilni mot yo'lga solib gado qilgan kim,  
Tarozini toshidan qitmir-ku, qirtishlaydi,  
Umridan uzun yo'lda halol savdo qilgan kim?

Bir kurtakning kulgusi bir daraxtga bo'y bo'lur,  
Hayo nogoh qoqilsa, xiyonatga to'y bo'lur.  
Aytilmagan qo'shiqning avjida alanga bor,  
Har qamishning qatida chalinmagan kuy bo'lur.

Alifning qaddi xushdir, ki doldan asragaylar,  
Shodlikning shami bo'lsang, shamoldan asragaylar.  
Ertasin o'ylaganlar qadrini qalqon qilib,  
Unguvchi har urug'ni uvoldan asragaylar.

Oqil dil harorati havoda ham gul ochgay,  
Nodon dil nadomati gulzor uzra kul sochgay.  
Har ko'ngilning ko'zini ochmoq mushkuldir, Mahmud,  
Xojasining eshigin faqat sodiq qul ochgay.



## AYRILMASIN

Jismimda jon borligin dardim aytar,  
Yaratgan der: Haq soʻzni mardim aytar.  
Kimligimni el ichra qadrim aytar,  
Har bandaning qanoti qayrilmasin,  
Umrin bersin, baxtidan ayrilmasin.

Yomgʻiri yoʻq bulutni bulut demang,  
Qanot kergan quzgʻunni burgut demang.  
Koʻngil koʻrki ishq dardini unut demang,  
Oshiq ahli ohidan ayrilmasin,  
Osmon boʻlsa mohidan ayrilmasin.

Chimmat asli chiroyini koʻzdan asrar,  
Hayo xulqni taʼnavor soʻzdan asrar,  
Haq bahorni yoz, yozni kuzdan asrar,  
Koʻhna dunyo koʻrkidan ayrilmasin,  
Inson aslo erkidan ayrilmasin.

Alloh neni yaratgan toq koʻrmadim,  
Bu dunyoning sochida oq koʻrmadim,  
Ishq ahlini mast koʻrdim, sogʻ koʻrmadim,  
Koʻngil toza koʻzgudan ayrilmasin,  
Odam shirin orzudan ayrilmasin.

Gar tosh otsang soyga ot, jondoshi bor,  
Qadri borning qarindosh, qardoshi bor,  
Mahmudning ham bir luqma xush oshi bor,  
Yoʻqlab turing qanoti qayrilmasin,  
Diydori dur doʻstlardan ayrilmasin.



**SOG'INCH SARG'AYMASIN**

Chiroqlar o'chmasin, chiroqlar yonsin,  
Ko'rganda quvonchdan qarorlar yonsin.  
Mehmoning yarashsin uying to'riga,  
So'zingga sulton bo'l, so'roqlar yonsin.

Oyga ergashganni oftob kutadi,  
Gunohdan qo'rqqanni savob kutadi.  
Bu dunyo bir tutam, kaftingga qara,  
Iskandar qo'llari javob kutadi.

Nigohlarda nihon ko'ngil ko'zi bor,  
Jonda ona suti, ota tuzi bor.  
Yo'l bersa tosh misol yumalab ketma,  
Oqilning ortida guldek izi bor.

Mezbon bo'l mehrdan sharbat tutguvchi,  
Mehmon bo'l izidan ko'zga surtguvchi.  
Bek bo'lsang, ayo do'st, qavmingga qara,  
Qoqilsang qarindosh qo'ldan tutguvchi.

Chiroqlar o'chmasin, chiroqlar yonsin,  
Sog'inch sarg'aymasin, firoqlar yonsin.  
Mahmudga she'r bergan egamga qulluq,  
O'qib entikkanda yonoqlar yonsin.





## BU YO'LLAR

Dili bo'lak odamlarning yo'li bo'lak,  
Kimga obro', kimga boylik, mansab kerak.

Turfa yo'lda turfa odam ketib borar,  
O'z dardida bu yo'llardan o'tib borar.

Oh, qayg'usi ko'p demangiz bu bayotning,  
Og'riq, og'riq nuqtalari ko'p hayotning.

Bu yo'llardan olib ketmas ko'p olgan ham,  
Bu yo'llarda qolib ketmas och qolgan ham.

Bu yo'llarga chiqmoq bo'lsang poklanib ol,  
Oq fotiha og'ushida oqlanib ol.

Niyating xush, bu yo'llarning oftobi bor,  
Uqmoq bo'lsang o'qilmagan kitobi bor.

Bu yo'llarga yotlar o'tar bu yo'llardan,  
El sog'ingan zotlar o'tar bu yo'llardan.

Orzu o'tar, armon o'tar tizilishib,  
Tobut tutib o'tadilar ezilishib.

Bu yo'llarning borar so'nggi manzili bor,  
O'zing uni yorug' ayla, Parvardigor.



**XABAR KELMAS**

Olov ichra olovlangan gul,  
Ishq o'tiga qalovlangan gul,  
Ayt, omonmi o't qalagan qul,  
Biz tomonga xabarlar kelmas.

Nomi qora bulutlar omon,  
Kutsang quyosh chiqmasa yomon.  
Sog'inch sahro, ummondir hijron,  
Biz tomonga xabarlar kelmas.

Borar yo'lda ko'z ko'rmas to'rlar,  
Hamon ko'pdir dunyoda g'o'rlar,  
Siz qaydasiz, bulbulga jo'rlar,  
Biz tomonga xabarlar kelmas.

Biz g'unchani uzib yig'ladik,  
Ahdimizni buzib yig'ladik,  
Ishq rasmini chizib yig'ladik,  
Biz tomonga xabarlar kelmas.

Toshni yorib gul ekaylik, gul,  
Dillar ichra nur ekaylik, nur,  
Alloh bizni qul qilarmi, qul,  
Biz tomonga xabarlar kelmas.



## TO'G'RI SO'Z TO'LQINLARI

To'g'ri so'z to'lqinlari yurakka kenglik berar,  
Xudoyim yaratganda bandaga tenglik berar.  
Agar osmon bo'lmasa, kim qushga havas qilgay,  
Kim kerilib va kimlar chirqillab rizqin terar.

Haq hukmi haqiqatning inkorsiz xitobidir,  
Bu dunyo har bir dilning tilsimli kitobidir.  
Er yigit yig'laganda tog'lar ham qalqigaydir,  
Suyansang suyab qolgan iymonning oftobidir.

Joningga chertmay turib jilmayib ko'rganmisan,  
Ayt, oyni qaro tunda yetaklab yurganmisan.  
Ko'rgan ko'zga armonsiz odamga o'xshasang ham,  
Vijdoning oldida hech tiz cho'kib turganmisan.

Avval o'zing amal qil, hikmati xush insonsan,  
Bir uyda necha jonsan, bir-biringga mehmonsan.  
Bor gapning bozori sust, yo'qni yo'ndirish qiyin,  
Sen tafakkur tig'idan tomib turguvchi qonsan.

Yoshlik yolg'onchi bahor, o'tganini bilmaysan,  
Ko'ksingdagi bulbulning ketganini bilmaysan,  
Ko'ngil to'lmas ko'zadir, tubida armon yotar,  
Cho'bin otni to'rt odam tutganini bilmaysan.

Umrning uvolini qarovsiz qabrdan so'r,  
Jafoning jamolini chekkaning jabrdan so'r,  
Dunyoning diydasida tomchi yosh emas, Mahmud,  
Sitamning salmog'ini sarg'aygan sabrdan so'r.

## DIL

Men yog'duni yuragimdan olaman,  
Oq nurlarni tilagimdan olaman,  
Gulni ko'nglim — go'dagimdan olaman,  
Jon suviga chayib sizga tutaman,  
Demang o'zim to'yib sizga tutaman.

Yolg'on dunyo bizni rostga yetaklar,  
Bahor kutib dilda yashar kurtaklar,  
Men daryoman, begonadir ko'lmaklar,  
Suv sog'ingan sahrolardan o'taman,  
Dil sog'ingan navolardan tutaman.

Ishq ahlini kutgani naydin navo,  
Qahri qattiq dardiga ko'z yosh davo,  
Sachratib turgaymikin satrim sado,  
Shoiriman, eldan duo kutaman,  
Olsam, albat do'st-u yorga tutaman.

Ko'ngling bo'lsa, ko'zgusin ko'rib tursa,  
Yurak bo'lsa, yurakdek urib tursa,  
Izlaringdan bir avlod yurib tursa,  
Xush tilakka xush bir omin kutaman,  
Dilim shabnam, hovuchimda tutaman.

Otash qalbning osmonida quyosh bor,  
Oshiq ko'ngil quyoshida ko'z yosh bor,  
Sizga, ey do'st, Mahmud kabi dildosh bor,  
Chanqab turgan gulga gulob tutaman,  
Seva bilgan dilga sharob tutaman.



## RIZO QILIB KET

Tushdagi boylikdan dasturxon to'lmas,  
Kim aytar sabrning sadosi bo'lmas,  
Alloh tug'ilmagan, bir Alloh o'lmas,  
Ketsang, qolganlarni rizo qilib ket.

Har umr bog'ida gul bor, tikan bor,  
Izhori ishq uchun til bor, suxan bor,  
Tikan ham o'zidan qilar iftixor,  
Ketsang, gulga joning fido qilib ket.

Qon tortar, qondoshdan aslingni qidir,  
To'rt fasl ichindan faslingni qidir,  
Ko'zgu ne, ko'ngildan vaslingni qidir,  
Ketsang, keltirganni duo qilib ket.

Boring shu, shukr qil, o'zdan orlama,  
Yuz yilda el bo'lmas, yotga zorlama,  
Bulbul mezbon bo'lsa, zog'ni chorlama,  
Ketsang, bir miskinga vafo qilib ket.

Bo'ylashsang, eng avval bo'yingga qara,  
Dillar ko'p, ey Mahmud, guldan bokira,  
Suvratmas, siyratga hidoyat so'ra,  
Ketsang, bu dunyodan ziyo bo'lib ket.



## AJAB...

Xayoli hur, o'zi qullar bor,  
Tuvagidan tushmas gullar bor.  
Kim nimadan qilar iftixor,  
Dunyo, senga tushunib bo'lmas.

Baxtdek shirin, guldek bokira,  
Deysan, unga havas qil, jo'ra,  
U qilmagan gunoh yo'q sira,  
Dunyo, senga tushunib bo'lmas.

Hech kim demas to'nka gullabdi,  
Iymonini to'nka pullabdi,  
Ayb undamas, shayton imlabdi,  
Dunyo, senga tushunib bo'lmas.

Topganingdan yo'qotganing ko'p,  
Gul tutgandan tosh otganing ko'p,  
Tokay ko'zga soladursan cho'p,  
Dunyo, senga tushunib bo'lmas.

Kutgan odam kutaveradi,  
Baxt yonidan o'taveradi,  
Qo'lin cho'zib ketaveradi,  
Dunyo, senga tushunib bo'lmas.

Yuzi tiniq ko'ngli qarolar,  
Sadoqatdan qilib sadolar,  
Olqishlardan kiyar sarpolar,  
Dunyo, senga tushunib bo'lmas.

Kinga elsan, kimga to'zonsan,  
Buncha qimmat, buncha arzonsan,  
Peshonamga nima yozgansan,  
Dunyo, senga tushunib bo'lmas.



**O'XSHAMAS**

Qosh qaboqsiz qoshga o'xshamas,  
Kesak sira toshga o'xshamas,  
Har tomchi suv yoshga o'xshamas,  
O'xshatmasdan uchratmas ekan.

Oftob oydan oldin yuradi,  
Daryo soydan oldin yuradi,  
Tulpor toydan oldin yuradi,  
O'zani yo'q suv oqmas ekan.

Har yukungan buyuk bo'lolmas,  
Sulton suysa, suyuk bo'lolmas,  
Olmos tutgan balki baxt olmas,  
Goh bandaga baxt boqmas ekan.

Bolta tutsa jallod demagin,  
Ko'z yosh ko'rsang faryod demagin,  
Ko'ringanni qanot demagin,  
Sotqin sotmay tong otmas ekan.

Farzand ota tuzin oqlasa,  
Har bir banda o'zin oqlasa,  
Biz baxtlimiz Xudo xohlasa,  
Vale hech kim baxt sotmas ekan.

Yog' tilama yog'gan yomg'irdan,  
Tosh ham titrar so'zi og'irdan,  
Mahmud to'ygan ming'ir-ming'irdan,  
Jannatda chayon chaqmas ekan.



**LOLA**

Bahor ko'ksidagi quyoshsan, lola,  
Bahor ko'zidagi ko'z yoshsan, lola,  
Qorlarning iziga sochilgan qonim,  
Bahor bag'ridagi bardoshsan, lola.

Qizargan quvonchdan rang olgan gulim,  
Goh o'z jamolidan tang qolgan gulim,  
Bunchalar go'zalsan, bunchalar so'lim,  
Dilpora dillarga dildoshsan, lola.

Kelishing quvonchdir, ketishing nola,  
Oh, buncha qisqadir umrimiz, lola.  
Ko'zinga surtayin, ko'ksimga bosay,  
Qayta ko'rishguncha, lolajon, lola.

Yodimda gullaysan ketganing bilan,  
Dodimda gullaysan ketganing bilan,  
Men seni sog'inib yo'qlayveraman,  
Qoning atirgulga tutganing bilan.





## KULIB YASHASIN

Yig'loqi yigitga tulpor na kerak,  
Qaytib qad rostlamas egilgan terak.  
Ko'z kular, dil kular, kulsa bir kurtak,  
Dunyoda odamlar kulib yashasin.

Hasad — yerda yotgan xazonga o'xshar,  
Ig'vo — chang ko'pchigan to'zonga o'xshar.  
Yaxshilar duodan yosharib yashar,  
Dunyoda odamlar kulib yashasin.

Chehrangga chiroydir ko'ngil chirog'i,  
Izingdagi ibrat elning ardog'i.  
Quvonch — yurak chertgan baxt qo'ng'irog'i,  
Dunyoda odamlar kulib yashasin.

Vafo va'dalardan ildiz olmaydi,  
Daryodil savobdan sira tolmaydi,  
Ham yana kulguni qarzga olmaydi,  
Dunyoda odamlar kulib yashasin.

Qo'llarga qo'r berar salomdagi nur,  
Dunyoga dur berar kalomdagi nur,  
Shodlikning shaklidir Vatan bo'lsa hur,  
Dunyoda odamlar kulib yashasin.

Tong otsa har kimga oftob yaxshidir,  
Tunda Mahmudga ham mohtob yaxshidir,  
Quvonch qadah bo'lsa, sharob yaxshidir,  
Dunyoda odamlar kulib yashasin.



**HAYOT**

Tongdagi tilovat totidek,  
Zindonga qo'yilgan shotidek,  
Xush qiliq bolamning otidek,  
Oh, bunchalar shirinsan, hayot.

Kimdir totli taomidan xush,  
Kimdir zarin ko'rib yotar tush,  
Oqil o'zin aqlidan sarxush,  
Buncha shirin, go'zalsan, hayot.

Bog'larga sig'magan bahordek,  
Atirgul yetkazgan ozordek,  
Tabibga zorlangan bemordek,  
Mamnunsan, mahzunsan sen, hayot.

Majnunning ishq to'la ko'zidek,  
Non topgan gadoning yuzidek,  
Bir kelgan Xizrning izidek,  
Sirlisan, nurlisan, sen, hayot.

Hech kim yovg'on oshagisi yo'q,  
Hech kim yomon yashagisi yo'q,  
Vale biri ochdir, biri to'q,  
Mehring ko'pmi, qahring, ey, hayot?

Xudo degan Xudoga yaqin,  
Yorug' odam yerdagi yolqin,  
Kim bo'libdi Mahmuddek oqin,  
Eng go'zal she'r o'zingsan, hayot.



**BU DUNYOGA**

Ota rozi — Xudo rozi elning gapi,  
Bulbul bo'zi demishlar gulning gapi,  
Bir bo'lsin-da dilning gapi, tilning gapi,  
Rost yashashga kelganmiz-ku bu dunyoga.

Ko'zlar nogoh to'qnashganda ko'zlar bilan,  
Chiroq yoqing mehr otli so'zlar bilan,  
Qadam bosmang yarashmagan izlar bilan,  
Rost yashashga kelganmiz-ku bu dunyoga.

Qosh qo'yay deb ko'zdan ayro tushganlar bor,  
Yozing ne deb kuzdan ayro tushganlar bor,  
Nuqta qo'ymay so'zdan ayro tushganlar bor,  
Rost yashashga kelganmiz-ku bu dunyoga.

Kim quyoshga qalqon bo'lsa kul bo'ladi,  
Oy bo'lolgan qaro tunga dil bo'ladi,  
G'unchasini asray bilgan gul bo'ladi,  
Rost yashashga kelganmiz-ku bu dunyoga.

Ko'karmaslar ko'ngildagi keklar bilan,  
Bekorhiga betlashmangiz beklar bilan,  
Borlar yo'lga chiqmaydilar yo'qlar bilan,  
Rost yashashga kelganmiz-ku bu dunyoga.

Orzuingiz har tong yonig' oftob bo'lsin,  
Qo'llar ochib topganingiz savob bo'lsin,  
Dilingizda Mahmud aytar xitob bo'lsin,  
Rost yashashga kelganmiz-ku bu dunyoga.



**BO'LMAYDI**

Tog'lar boshi qor bo'lsa,  
Qatoringda nor bo'lsa,  
Er yigitda or bo'lsa,  
Osmon uzoq bo'lmaydi.

Ko'zlar tiyrak boqsalar,  
Jonni jonda yoqsalar,  
Dillar suvdek oqsalar,  
Ishqda tuzoq bo'lmaydi.

Xush duoga qo'ling och,  
Yo'l yurmasang yo'ldan qoch.  
Hamroh bo'lmas ko'zi och,  
Teshik ko'za to'lmaydi.

Ish bilmagan gapdan mast,  
Ojizlikdan qilma qasd.  
Oydin yo'l oydan tushmas,  
Kepak bo'za bo'lmaydi.

Qadring qonda oqqan suv,  
Iymon jonda oqqan suv,  
Suing qurir bo'lsang quv,  
Mahmud, baxting kulmaydi.



**YOLG'IZLIK YOMON**

Qadim xalq qadridek aziz bu hikmat,  
Eng avval yolg'izga qilgin muruvvat,  
Bilki u ojiza, mayli devkelbat,  
Yolg'izlik yomondir, yolg'izlik yomon.

Qondoshsiz, qardoshsiz kim buyuk bo'lar,  
Yolg'iz ot qoqilsa, yerga yuk bo'lar,  
Gul kutgan odamga gul suyuk bo'lar,  
Yolg'izlik yomondir, yolg'izlik yomon.

Bir boshga o'n bolish bo'lsa botgaydir,  
Kun botar, yolg'izning tongi otmaydir,  
Lazzat tabog'idan taom totmaydir,  
Yolg'izlik yomondir, yolg'izlik yomon.

Sog'inch sahrosida sarg'aygan guldek,  
Xojasi qahridan qaqshagan quldek,  
Qafasda qartaygan baxtsiz bulbuldek,  
Yolg'izlik yomondir, yolg'izlik yomon.

Yetimlar tikilgan yo'llar yig'laydi,  
Gadolar cho'zguvchi qo'llar yig'laydi,  
Yig'lasa tonggacha tullar yig'laydi,  
Yolg'izlik yomondir, yolg'izlik yomon.

Yaratgan jon bersa, juft yaratmishdir,  
Quyosh ham yer uchun nur taratmishdir,  
Mahmud, baxti borlar badavlatmishdir,  
Yolg'izlik yomondir, yolg'izlik yomon.



## LALALAR RANG SO'RABDI

Menga olov kerakmas,  
Yonayotir yuragim.  
Lolalar rang so'rabdi,  
Qonayotir yuragim.

Assalomu alaykum,  
Toliqmagan tilagim.  
Men ko'ksimning ko'kidan,  
Oq niyatlar elagum.

Jismimdagi jonim-ov,  
Azroilga keragim.  
Bulbullar beshigiga,  
Kelar seni belagim.

Chaqishadi chayonlar,  
Achishadi kuragim.  
Asraguvchi Alloh bor,  
Biz yashaymiz, yuragim.

Iymon umr chirog'i,  
Qiyomatda keragim.  
Qiyomatga sen bilan,  
Ketayapmiz, yuragim.

Menga olov kerakmas,  
Yonayotir yuragim.  
Lolalar rang so'rabdi,  
Qonayotir yuragim.



## UMR TILADIM

Kurtak kulgusida ildiz ulg'ayar,  
Tongning yog'dusida kunduz ulg'ayar,  
„Bismilloh“ deb aytsak har so'z ulg'ayar,  
Ulg'aygan odamga umr tiladim.

Tafakkur toshdagi tomirni tilar,  
Haqsizlik jondagi sabrni tilar,  
Xush duo tuproqda qabrni tilar,  
Ulg'aygan odamga umr tiladim.

Sayyodlar xush ko'rar qushdek to'zganni,  
Ko'rsang qo'lin tutgin kamon cho'zganni,  
Mehringa o'rayman mendan o'zganni,  
Ulg'aygan odamga umr tiladim.

Gulning poyasidan o'tin axtarma,  
Obro'ng soyasidan qulni qaytarma,  
Bolam-ov, burgutlar yerda yotarma,  
Ulg'aygan odamga umr tiladim.

Tarvuzni tars yorgan pahlavon emas,  
Qo'sh narvon ko'targan hech osmon emas,  
Mahmud ham bir shoir, lek Cho'lpon emas,  
Ulg'aygan odamga umr tiladim.



## ONA YURT

Yolg'on dunyo yodida yomon bo'lib qolmagin,  
Ko'ngil ko'ziga tushgan somon bo'lib qolmagin,  
Yurtim uchun yashayman degan so'zni xush aytib,  
Yov kelganda o'qi yo'q kamon bo'lib qolmagin.

Xudo bersa qomati, ko'rki bo'lsin yigitning,  
Vale qalqon tutguvchi ko'ksi bo'lsin yigitning,  
Vatanida vazni bor odam otdan tushmagay,  
Yurtida xush havodan ko'ksi to'lsin yigitning.

Ota yurt bu, ona yurt, sha'ni yashar joningda,  
Momo yerning isi bor ushatilgan noningda,  
Yurt chirog'in shu'lasini yuzingga tushib turar,  
Agar boqiy baxt bo'lsa, u O'zbekistoningda.

Bog'ingdagi g'unchani zog'lardan qo'riqlagin,  
Millatning gulday ko'nglin dog'lardan qo'riqlagin,  
Osmoningga oy chiqsa, oftobingga yetguncha,  
Ikki ko'zingni o'g'lon yog'lardan qo'riqlagin.

O'zbekman deganingda bekliging yodda tursin,  
Shohingni shohdek asra, yovlaring motda tursin,  
Alpomish avlodisan shu Vatan tuprog'ida,  
Gar o'zing piyodasan g'ururing otda tursin.





## VATAN DEB...

Aytsam, nondek shirin soʻz bor dunyoda,  
Aytsam, jondek shirin soʻz bor dunyoda,  
Vatan deb, shivirlab aytib koʻring siz,  
Vatan deb koʻngilga qaytib koʻring siz.  
Chehrangiz balqiydi, quyosh boʻlasiz,  
Qalbingiz qalqiydi, koʻz yosh boʻlasiz.

Onajon deganda entikkan dildek,  
Ozodsan deganda yayragan quldek,  
Vatan deb, entikib, elanib ayting,  
Vatan deb vafoga belanib ayting.  
Jon ichra yuz ochgan bir jon boʻlasiz,  
Siz yerga sigʻmagan osmon boʻlasiz.

Vatan uzib boʻlmas gulga oʻxshaydi,  
Vatan Mashrab ochgan dilga oʻxshaydi,  
Ajdodi avvallar yotmishdir unda,  
Bizni choʻbin otda koʻtargan kunda,  
Demangiz dunyodan oʻtib boramiz,  
Vatan deb, Vatanga ketib boramiz.

Bolangiz quvonchi toʻkilgan tuproq,  
Quyosh bir koʻrmasa oʻkingan tuproq,  
Jannatday muqaddas chaman boʻladi,  
Ayo doʻst, u bizga Vatan boʻladi,  
Vatan deng koʻngilning koʻzi ochilsin,  
Vatan deng sogʻinchning yuzi ochilsin.

Vatan — alla bergan oromdek shirin,  
Vatan — xalq koʻrsatgan ikromdek shirin,  
Vatan deng, Xudoga yukunib ayting,  
Asra deng, tiz choʻking, oʻtinib ayting,  
Vatan deb biz buyuk bir xalq boʻlamiz,  
Vatan deb iymonda barhaq boʻlamiz.



## O'ZBEKISTON QAHRAMONLARI

El deganni eli ardoqlar,  
Tildan tushmas aziz nomlari.  
Yurt ko'ksida yongan chiroqlar,  
O'zbekiston Qahramonlari.

Oftob tolmas, oy toliqmaydi,  
Nurli odam nurga chorlaydi,  
Ko'zlarida vafo porlaydi,  
O'zbekiston Qahramonlari.

O'g'il bersa o'xshasin deb ayt,  
Qizim shunday yashasin deb ayt,  
Bitsak arzir sizlarga shoh bayt,  
O'zbekiston Qahramonlari.

Siz ko'zgusiz havas bog'ida,  
Azim chinor hayrat tog'ida,  
Siz so'nmas nur dil chirog'ida,  
O'zbekiston Qahramonlari.

Kuz kuylagan qo'shiqday saxiy,  
Shodlik sharob, baxt bugun soqiy,  
O'zbekiston umridek boqiy,  
O'zbekiston Qahramonlari.



## ALPOMISHNING AVLODLARI

Goho dilda gumon gullar,  
Aytgim kefar yolg'on gullar,  
Axir bizga shamchiroq-ku,  
Bobolarning hayotlari,  
Alpomishga o'xsharmikin,  
Alpomishning avlodlari.

Tulpor mingan turib aytar,  
El ichinda yurib aytar,  
Qulog'imga chalinadi,  
Momolarning faryodlari,  
Alpomishga o'xsharmikin,  
Alpomishning avlodlari.

Barchinoyim, begoyimlar,  
Guldan ko'rkam guloyimlar,  
Yuragimni yondiradi,  
Sevingizning sabotlari,  
Alpomishga o'xsharmikin,  
Alpomishning avlodlari.

Tulporining tuyog'i cho'g',  
Oriyatdan baland tog' yo'q,  
Ori uchun kurashganda,  
Qayrilmagan qanotlari,  
Alpomishga o'xsharmikin,  
Alpomishning avlodlari.

Vafosidan Vatan yorug',  
Adolatdan tutishgan tug',  
Yosharib-ey, yashab kelar,  
Baxshilarin bayotlari,  
Alpomishga o'xsharmikin,  
Alpomishning avlodlari.

Xalq birlashsa, Haqdan duo,  
Biz bir mushtmiz, inshoollo,  
Yaratganga munojotdir,  
Mahmudning bu imdodlari,  
Alpomishga o'xsharmikin,  
Alpomishning avlodlari.



### AVVAL VATAN...

Bir soʻz bor guldek goʻzal,  
Dilingga taqib yurgin.  
Bir soʻz bor nurdek azal,  
Chiroqdek yoqib yurgin.

Avval Vatan, keyin jon,  
Avval Vatan, keyin non.

Koʻzing och, tegrangga boq,  
Hikmat bor hurligingda.  
Yurtdoshim, kel yaqinroq,  
Aytaylik joʻrligingda.

Avval Vatan, keyin jon,  
Avval Vatan, keyin non.

Qoqilsang oʻz yeringda,  
Minnati tizga botmas.  
Elda yigitman degan,  
Vatanda vatan sotmas.

Avval Vatan, keyin jon,  
Avval Vatan, keyin non.

Bandaga Xudosidan,  
Bobongga bobosidan,  
Shu Vatan qolgan axir,  
Momongga momosidan.

Avval Vatan, keyin jon,  
Avval Vatan, keyin non.

Har dilda bir soʻz boʻlsin,  
Har tilda bir soʻz boʻlsin.  
Dunyodan oʻtarda ham,  
Boʻgʻzingda bir boʻz boʻlsin.

Avval Vatan, keyin jon,  
Avval Vatan, keyin non.

**VATAN NE DEB SO'RMAGIN**

Shu bir siqim, bir uyum tuproq,  
Yuragingga sololsa titroq.  
Gar Vatandan emassan yiroq,  
Vatan ne deb savol so'rmagin.

Yong'irlari yig'lab ko'rishsa,  
Sabolari silab ko'rishsa,  
Ular umring tilab turishsa,  
Vatan ne deb savol so'rmagin.

Vafolisan, so'zingdagi nur,  
Chamanlari ko'zingdagi nur,  
Ismi o'g'il-qizingdagi nur,  
Vatan ne deb savol so'rmagin.

Yulduzlar bor osmonning cho'g'i,  
Quyosh asli tiriklik tug'i.  
Bir insondek yasha bor-yo'g'i,  
Vatan ne deb savol so'rmagin.

Jaloliddin jonidagi gul,  
Mard shahidning qonidagi gul,  
Shu vatan-da, baraka topgur,  
Vatan ne deb savol so'rmagin.

Vatan dilida ko'z ochgan buloq,  
Vatan ko'zga sig'maydi biroq.  
Gar Vatandan emassan yiroq,  
Vatan ne deb savol so'rmagin.



## BIZNING BOLALAR

Bek o'tganlar bobolari ham,  
Suvdek serob donolari ham,  
Qo'llab tursa yaratgan egam,  
Bek bo'ladi bizning bolalar.

Avval odam dilin biladi,  
Keyin tuproq tilin biladi,  
Izlarida quyosh kuladi,  
Bek bo'ladi bizning bolalar.

Temur tutgan tug'ning ostida,  
Qur'on tutib yashar dastida,  
Ajdodining ori aslida,  
Bek bo'ladi bizning bolalar.

Muhabbati ko'zlarda chiroq,  
Yuzlariga oftob yaqinroq,  
Er yigitga mardlik muhimroq,  
Bek bo'ladi bizning bolalar.

Yurtin asrar jonin taftida,  
Jon kerakmi tutar kaftida,  
Mangu baxt bor mardlar madhida,  
Bek bo'ladi bizning bolalar.



## VATANNI ASLIDA VATAN QILGANLAR

Vatanni aslida Vatan qilganlar,  
Erk uchun jonlarin gulxan qilganlar.  
Tillar in kessalar, ko'zlar in o'ysa,  
Bir-birga dil bilan suxan qilganlar,  
Vatanni aslida Vatan qilganlar.

Ergashsa oftobga ergashib yurgan,  
Tunlari xobiga ozodlik kirgan,  
Ma'rifat bog'ining bog'boni bo'lib,  
Har farzand qoshida jilmayib turgan,  
Vatanni aslida Vatan qilganlar.

Tiz cho'kkan tizlar in o'zi sindirgan,  
O'g'li eldan chiqsa, qizi sindirgan,  
Vatan vafo ichra ochilgan gul deb,  
Har ko'ngil ko'zida hayrat undirgan,  
Vatanni aslida Vatan qilganlar.

Yovning yaxshisi yo'q degan ham ular,  
Zog'ning baxshisi yo'q degan ham ular,  
Millatning ko'ksida bo'y cho'zgan chinor,  
Har dilda ko'klamdek ko'karib kelar,  
Vatanni aslida Vatan qilganlar.

Maqtov malham bo'lmas, bil, qurbonlarga,  
Oyatda orom bor shahid jonlarga,  
Qo'llaring duoga katta och, elim,  
Shukrona joizdir erkli onlarga.  
Vatanni aslida Vatan qilganlar,  
Erk uchun jonlar in gulxan qilganlar.





**BIZGA ISHONGIN, VATAN**

Tumorlar tiladim senga Tangridan,  
Endi qayg'u ko'rma, quvongin, Vatan.  
Yuzing yorug' chiqdi hurlik jangidan,  
Faqat bizga ishon, ishongin, Vatan.

Tuprog'ingda ungan giyohlar haqqi,  
Ajdodlarim yoqqan chiroqlar haqqi.  
Shu kunlarni kutgan firoqlar haqqi,  
Faqat bizga ishon, ishongin, Vatan.

Qoqildik, yiqildik o'zni tutguncha,  
Qon yutdik, ozodlik, senga yetguncha,  
Biz seni asraymiz o'la-o'lguncha,  
Faqat bizga ishon, ishongin, Vatan.

Osmondan tushmadi sotqinlaring ham,  
Ozodlik qadriga yetmagan odam  
Odammas, el shohid, yo'q bunga shubham,  
Faqat bizga ishon, ishongin, Vatan.

Turkiymiz, qadimmiz, qardoshimiz bor,  
Bobolardan meros bardoshimiz bor,  
Yurt yukin ko'targan yurtboshimiz bor,  
Faqat bizga ishon, ishongin, Vatan.

Yorug' manzillarga yo'l olding — shodmiz,  
Kelajak oldida mas'ul avlodmiz,  
Farzandmiz, ona yurt, senga najotmiz,  
Faqat bizga ishon, ishongin, Vatan.

Quchog'imga sig'sang qucholsam qani,  
Baxt bo'lib boshingda ucholsam qani,  
Bizga ishonsang bas, asraymiz sani,  
Faqat bizga ishon, ishongin, Vatan.



**MILLAT ULUG'LIGI**

Millat ulug'ligi maqtoovda emas,  
El qadri el suygan palovda emas,  
Suv oqsa gap yov qo'ygan g'ovda emas,  
Oqar daryolarni ko'rgim keladi,  
So'nmas ziyolarni ko'rgim keladi.

Kimni mast qilmagan ishqning sharobi,  
So'zlar bor hikmati ko'ngil oftobi,  
Besh asrkim qo'llardan tushmas kitobi,  
Hazrat Navoiyni ko'rgim keladi,  
Nazmi shifoini ko'rgim keladi.

Dilozordan tilda talx qolar ekan,  
Yaxshisan, olqishlab xalq qolar ekan,  
Elim, obro'ing oqil olar ekan,  
Izlarin ko'zimga surgim keladi,  
Imom Buxoriyni ko'rgim keladi.

E'tiqod, qudratda buyuk bobolar,  
El yashar toabad suyuk bobolar,  
Bibixonim qani, ayting, momolar,  
Bobur savlatini ko'rgim keladi,  
Temur davlatini ko'rgim keladi.

Hur xalqning azaldan fikri ozoda,  
Zakiyning Allohga zikri ozoda,  
Nodirai davron, Sizdek xonzoda,  
Sadoqati nurni ko'rgim keladi,  
Tafakkuri durni ko'rgim keladi.

Maqtoov daryosiga mirob emasman,  
Yot elda yov chalgan rubob emasman,  
Yerdagi shoirman — oftob emasman,  
Hurlikda baxtimiz ko'rgim keladi,  
Xalq bo'lgan ahdimiz ko'rgim keladi.

## VATAN UCHUN YASHAYLIK

Dillarida ming orzu yashayapti odamlar,  
Terib topgan rizqini oshayapti odamlar,  
Kimlar qo'lda tosh bilan, kimlar millat chirog'i,  
Alloh tutgan ko'zguga tushayapti odamlar.

Yashasak bu dunyoda Vatan uchun yashaylik,  
O'zbekiston atalmish chaman uchun yashaylik.

Otamiz ochgan eshik, onamiz quchgan beshik,  
Qay birimiz kul sochdik, qay birimiz gul ekdik,  
Ko'zingni och, ey inson, Vatan mezbon, biz mehmon,  
Vatansiz valiylar ham yashagan ko'ngli kemtik.

Yashasak bu dunyoda Vatan uchun yashaylik,  
O'zbekiston atalmish chaman uchun yashaylik.

Tinchlikning tongi totli, oftobi orazingda,  
Do'stmisan yonimga kel, yovsan yon g'arazingda,  
Vatanga vafo kerak, dunyosi tuprog'ida,  
Oqibat og'ir kelsin har kuni tarozingda.

Yashasak bu dunyoda Vatan uchun yashaylik,  
O'zbekiston atalmish chaman uchun yashaylik.

O'n yillikka o'n xatlab yetganimiz yo'q, axir,  
Do'st bag'riga tosh bo'lib botganimiz yo'q, axir,  
Qora sochlar oqardi, berdik hatto qurbonlar,  
Shukrkim, minnat oshin totganimiz yo'q, axir.

Yashasak bu dunyoda Vatan uchun yashaylik,  
O'zbekiston atalmish chaman uchun yashaylik.

Umr bersa xudoyim balki yuzdan osharmiz,  
Tinchlik degan oqqushning bayotida yasharmiz.  
Vatan borki, sen borsan, Vatan bordir men borman,  
Yurt yukini ko'tarsak, yurt yodida yasharmiz.

Yashasak bu dunyoda Vatan uchun yashaylik,  
O'zbekiston atalmish chaman uchun yashaylik.

**TERMULIB TURSANGIZ**

Termulib tursangiz qumdek to'kilsam,  
Choklarim chirsillab jondek so'kilsam,  
Xudoga yukunsam, sizga yukunsam,  
Boshqatdan yashasak yarasharmikin?

Toshlar titrab-titrab dilga aylansa,  
Ikki dil bir-birga qulga aylansa,  
Afsuslar ko'zlarda gulga aylansa,  
Boshqatdan yashasak yarasharmikin?

Qo'sh tillo topgan quldek quvonib,  
Qullikdan qutilgan eldek uyg'onib,  
Yolg'onlardan tonib, diydorga qonib,  
Boshqatdan yashasak yarasharmikin?

Mehringiz gadodek qarzga olmasam,  
Qimtinib ko'nglimga arzga bormasam,  
Bahorim bo'zlatib, kuzga bormasam,  
Boshqatdan yashasak yarasharmikin?

G'amni g'unchalatmay chilpitib tursak,  
Baxtga o'zimizni yelpitib tursak,  
Sadoqatni siylab gul tutib tursak,  
Boshqatdan yashasak yarasharmikin?

Kiprikdek bir-birni quchib yashasak,  
Ishqning ishratidan uchib yashasak,  
Yuz yillar yashasak, ming yil yashasak,  
Boshqatdan yashasak yarasharmikin?



## BEVAFO BAHORIM

Jonimni silatgim keladi sizga,  
Yonimda yo'qsiz-da, yostig'im yonar.  
Umrinni tilatgim keladi sizga,  
Talpingan tilaklar dilda to'lg'onar.

Jafo jilmayadi qoshimda har tun,  
Sog'inch yuzimgamas, yurakka mushtlar.  
Ko'nglimdan siz tomon uchadi har kun,  
Iltijo atalmish bir gala qushlar.

Diydorning yo'llari bunchalar uzun,  
Qo'l nadir, yor, sizga nigohlar yetmas.  
Dunyoda bormikin men kabi mahzun,  
Bevafo bahorim bitta gul tutmas.

Yo'q, endi bo'lmaydi bundayin yashab,  
Siz mening jonimning azobidasiz.  
Hargiz ketolmaysiz bu yo'lda tashlab,  
Chunki siz qalbimning girdobidasiz.



**YARMI BO'SH YOSTIQLAR**

Tunga toshlar otadi,  
Yarmi bo'sh yostiqlar.  
Kimni qarg'ab yotadi,  
Yarmi bo'sh yostiqlar.

Ostonada oy nuri,  
Kimni kutar uy to'ri,  
Kuygan ko'ngilning jo'ri,  
Yarmi bo'sh yostiqlar.

Quvonchga yuz chaymaydi,  
Bu ne g'amki so'nmaydi,  
Ko'z yoshga hech to'ymaydi,  
Yarmi bo'sh yostiqlar.

Yulduzli tun, oy ko'kda,  
Sirlashishga til yo'q-da,  
Nechun kuymaydi cho'g'da,  
Yarmi bo'sh yostiqlar.

Qaro tun qarog'ida,  
Sog'inch bor chirog'ida,  
Titrar dil titrog'ida,  
Yarmi bo'sh yostiqlar.

Xudoyim, bandang bedor,  
Bir-biriga qilma zor,  
O'zidan etmasin or,  
Yarmi bo'sh yostiqlar.



**GULIM**

Men tonglardan tuyg'u tilandim,  
Kurtaklardan kulgu tilandim,  
Tiz cho'ksam yalpizga elandim,  
Bahorning bog'iga boraylik, gulim,  
Majnuntol sochini taraylik, gulim.

Qaragin, qaldirg'och el suygan kosib,  
Ko'shkini ayvonga qo'yibdi osib,  
Har juftga bir yangi qo'shiq munosib,  
Bahorning bog'ida kuylaylik, gulim,  
Yurakni ishq bilan iylaylik, gulim.

Sevmagan bilmaydi sultonlik sirin,  
Bu bir gadolikkim, boldayin shirin.  
Yashab bo'larmikin o'zdan yashirin,  
Bahorning umrini tilaylik, gulim,  
Biz ham ko'nglimizda gullaylik, gulim.

Oy ham oyligini tunda eslatur,  
Quyosh kulib chiqib kunda eslatur.  
Dunyo go'zalligin gulda eslatur,  
Dunyoni bahorga beraylik, gulim,  
Gul tersak ko'zlardan teraylik, gulim.



**BU TUN**

Bu tunning o'zi yorug',  
Bu tunning ko'zi yorug',  
Bir oykim jamolidin,  
Toshlarning yuzi yorug'.

Bu qasr ostonasiz,  
May berur mayxonasiz,  
Sevsangiz, sevilsangiz,  
So'zimga ishonasiz.

Umrimday uzun kecha,  
Jonimdan kechdim picha,  
Jannat jamolin ko'rdim,  
Men ishqni icha-icha.

**MUHABBAT**

Muhabbat xush chashma jonda oqquvchi,  
Xudoni tanisang qonda oqquvchi,  
Muhabbat jilmaysa quyosh ham ojiz,  
Muhabbat alanga dilni yoqquvchi.

Ko'ngil ko'zidagi qo'rdir muhabbat,  
Jonlar jarangiga jo'rdir muhabbat,  
Shunchalar go'zalki, shunchalar xunuk,  
Ikki ko'zi ochiq, ko'rdir muhabbat.





**MALHAM**

Yurak yaprog'ida titragan inju,  
Ko'zingiz dunyoga bo'lolgay ko'zgu,  
Vujudimda vulqon bir totli tuyg'u,  
Tabib darmon bo'lar kuyib qolganga,  
Bir malham bormikin suyib qolganga.

Bir qoshiq qonimdan kechingiz, mohim,  
Qahringiz libosin yechingiz, mohim,  
Mehrimdan qultum may ichingiz, mohim,  
Behisht bedarboza ko'ngil olganga,  
Bir malham bormikin suyib qolganga.

Mayli qiyo boqmang, ko'rib turayin,  
Sizni suq nafasdan qo'rib turayin,  
Bosgan izingizga boshim urayin,  
Bulbul begonamish kuylab tolganga,  
Bir malham bormikin suyib qolganga.

Ko'ngilning ko'ziga to'r tutib bo'lmas,  
Sevmayin qo'l bilan qo'r titib bo'lmas,  
Mahmuddek oshiqni unutib bo'lmas,  
Jonni cho'g'dan olib o'tga solganga,  
Mohim, malham bo'ling suyib qolganga.



**KO'RMAY QOLSAM...**

Ko'rib turib sog'inaman men,  
Ko'rmay qolsam sig'inaman men.  
Siz dardimsiz, ohimsiz mening,  
Bag'rimdagi mohimsiz mening.

Sochlaringiz silab sevaman,  
Umringizni tilab sevaman.  
Majnunda yo'q bu ohim mening,  
Guldek go'zal gunohim mening.

Qo'ying, endi yig'lamang, go'zal,  
Yig'lasangiz siz undan go'zal.  
O, lablari lolarang, gulim,  
Ko'zlarimga bir qarang, gulim.

Kim u tunni qorong'u degan,  
Oshiq oqshom quyoshi ekan.  
Oy ham rashkdan qoldi qartayib,  
Yulduzlar ham g'aribdan g'arib.

Sochlaringiz buncha sochildi,  
Tunning ko'zi moshdek ochildi.  
O, bag'rimda yuz ochgan bahor,  
Bag'ringizda qolib ketgim bor.

Ko'rib turib sog'inaman men,  
Ko'rmay qolsam sig'inaman men.



**BO'LGAYMIKIN**

Quyoshning gulxaniga o't qalab bo'lgaymikin,  
Bizga ham ul paridan bir talab bo'lgaymikin.  
Tun-u kun yurgan bilan yetolmay ovvoraman,  
Zulfining bir tolasin bir tarab bo'lgaymikin.

Biz yerga sig'maymizmi, bir yo'lda yo'ldosh bo'lsak,  
Mehrimiz quchar chog'da qo'sh qo'lda qo'ldosh bo'lsak,  
Ko'nglimiz oftobiga siz abad osmon bo'ling,  
Oy bo'lib, quyosh bo'lib, kun-u tun dildosh bo'lsak.

Maqsad-u murodimiz diydori duringiz, yor,  
Netayki bo'lgim kelsa qartaymas qulingiz, yor.  
Ibodat ishqidagi mo'mindek mamnun bo'lay,  
Muhabbat mehrobida bir suhbat quringiz, yor.

Bu jonning jamolini jilosi bunchalar xush,  
Yarlaqab yaratgan ul Xudosi bunchalar xush.  
Ishq ahli gadolari Mahmudga havasmandlar,  
Aytmishlar ul parining gadosi bunchalar xush.



**OROM OHANGI**

Qo'ng'iroq zulfingizni silagim kelib ketdi,  
Kiprigingiz tig'lari yuragim tilib ketdi,  
Nechun gullar xush ko'rar shaydoyi shabbodani,  
Shabboda ham shivirlab holimdan kulib ketdi.

Jilmaysangiz jonimning jarangiga o'xshaysiz,  
Men bir umr ko'rmagan gul rangiga o'xshaysiz.  
Qay quvonch chehrangizga nogahon chertib qo'ydi,  
Siz jannatiy oromning ohangiga o'xshaysiz.

Orzularin oy bilgan oshiqlarga o'xshaylik,  
Hech kim kuylay olmagan qo'shiqlarga o'xshaylik.  
Birga bo'lsak dunyoning kemtigi to'lar balki,  
Jonimizning poyiga jonimizni to'shaylik.

Siz bilmaysiz, jonimda jafolar jolalaydi,  
Ko'zlarimda kun-u tun sog'inchlar nolalaydi.  
Sevmoq bunchalar azob, sevmoq bunchalar rohat,  
Ayting, qachon Mahmudning shodligi shonalaydi.



## SIZNI...

Sizni quvonchimga qovurib olgum,  
Qadrim qirg'og'ida qalqib yashaysiz.  
Jilmaygan joningiz ko'zguga solgum,  
O'n to'rt kunlik oydek balqib yashaysiz.

Bag'rimdagi baxtga boshingiz qo'yib,  
Kiprikda ko'ksimga tig' urib yashang.  
Tangridan tilangan diydorga to'yib,  
Jon ichra jonimni tush ko'rib yashang.

Shunchaki yashablar o'tmaylik, gulim,  
Tiriklik aslida oshiqlik o'zi.  
Siz bilan visolning tutganda qo'lin,  
Ochiliblar ketsin dunyoning ko'zi.



**QO'SHCHINOR SOYASIDA**

Qo'shchinor soyasida  
Quvonchimiz qovushdi,  
Rashkdan rangi sarg'ayib,  
Oftob eti uvishdi.

Qo'shchinor soyasida  
Ertak bo'ldi, tush bo'ldi,  
Qo'shchinor soyasida  
Ko'ngil ko'ngildan to'ldi.

Qo'shchinor soyasida  
Hur bo'ldik, qolib ketdik,  
Qo'shchinorni qo'sh qo'llab  
Jannatga olib ketdik.

---

## GINA

Yongan chiroq o'chmasmi,  
Quvonchni g'am quchmasmi,  
Ko'rganlarim tushmasmi,  
Xush ko'rdik, xushro'yginam.

Bolishimiz toshmidi,  
Ko'zimizda yoshmidi,  
G'animlar sirdoshmidi,  
Xush ko'rdik, xushro'yginam.

Oftob yerga tushdimi,  
Jonim qo'rga tushdimi,  
Baxt bizga to'n bichdimi,  
Xush ko'rdik, xushro'yginam.

Dodimga yetgandaysiz,  
Kelibsiz, ketmagaysiz,  
Bag'rimiz butlagaysiz,  
Xush ko'rdik, xushro'yginam.

Sizda jindek gina bor,  
Bizda jindek gina bor,  
Diydordan xush nima bor,  
Xush ko'rdik, xushro'yginam.



**AYTGIM KELDI**

Bir gap aytgim keldi qulog'ingizga,  
Jonim taqib qo'yay baldog'ingizga,  
Barmog'im bir tegsa barmog'ingizga,  
Oshiqlar axtargan gullar ochilgay,  
Yurar yo'lingizga nurlar sochilgay.

Chinnidan chiroyli ovozingiz bor,  
Toshni ham tilguvchi dil rozingiz bor,  
Turnani tushovlar xush nozingiz bor,  
Qor yog'sa yarashmas qabog'ingizga,  
Parvona kerakdir chirog'ingizga.

Sizni ko'rib oy osmonga sig'maydi,  
Quyoshimsiz, qarab ko'zim to'ymaydi,  
So'raganim bitta shirin bo'saydi,  
Kirib bo'larmikin dil bog'ingizga,  
Bir marta lab bossam dudog'ingizga.

Go'zallar ko'zqusiz soch tarashmaydi,  
Sanamlar qul zotiga qarashmaydi.  
Kuyusak, ko'changizga kul yarashmaydi,  
Xol-ku bo'lolmadik yonog'ingizga,  
Boshim bolish bo'lsin oyog'ingizga.





**BUNCHA GO'ZAL BU HAYOT**

Xush kelibsan, xushro'yginam, xumorim,  
Kimlar yetib, kim yetmagan bahorim.  
Dardi borgan darmon bo'lib kelgansan,  
Gulga o'ra yurakdagi ozorim.  
Bulbulda yo'q bo'g'zimdagi bu bayot,  
Oh, bunchalar go'zal ekan bu hayot.

Uch oygina ko'zimizga mehmonsan,  
Qishni quvib o'zing yozga mezbonsan,  
Umr g'alat, kelganki bor ketarkan,  
O bahorim, nahot kuzda xazonsan,  
Sen armonsan, sen darmonsan, sen najot,  
Oh, bunchalar go'zal ekan bu hayot.

Sog'inganim, sog'intirib keldingmi,  
Chiroyingga sig'intirib keldingmi,  
Onam qo'lin qo'msagandi sochlarim,  
Sabo bo'lib boshginamda yeldingmi,  
Qo'shig'imga, quvonchimga bo'l qanot,  
Oh, bunchalar go'zal ekan bu hayot.

Qarg'alar bor ko'rmoq istar zavoling,  
Yomonlarni tutgay sening uvoling,  
Mening maysam, mening g'uncham, chechagim,  
O bahorim, ko'rgim kelar kamoling,  
Diling asra, guling asra, odamzod,  
Oh, bunchalar go'zal ekan bu hayot.



## BEDORLARGA BERING DUNYONI

Tunlar oyday to'lay desangiz,  
Dildorlarga bering dunyoni.  
Tonglar kulib turay desangiz,  
Bedorlarga bering dunyoni.

Bek bo'ladi bolam desangiz,  
Yuz yuvmasin jolam desangiz,  
Duogo'yim onam desangiz,  
Bedorlarga bering dunyoni.

Nafsin quli — ulfatdan qo'rqing,  
Nogoh kelgan kulfatdan qo'rqing,  
Gar qo'rsangiz, g'aflatdan qo'rqing,  
Bedorlarga bering dunyoni.

Demang, bizdan qoladir dunyo,  
Uzilmagan loladir dunyo,  
Beshikdagi boladir dunyo,  
Bedorlarga bering dunyoni.

Bu olamga rang berar bahor,  
Har ohangning o'z egasi bor,  
Bedorlarga Alloh o'zi yor,  
Bedorlarga bering dunyoni.

Bahor baxti kurtakda bo'lar,  
Yurtning mehri yurakda bo'lar,  
Mahmud yorug' tilakda bo'lar,  
Bedorlarga bering dunyoni.



## YAXSHI NIYAT

Bir chimdim nur bilan yo'lingiz yorug',  
Bir dasta gul bilan dilingiz yorug',  
Duoga ochilgan qo'lingiz yorug',  
Yaxshi niyatlardan yayrab yashangiz.

Oy chiqsa osmon ham taltayib ketar,  
Ziqnaning uyidan nur qaytib ketar,  
Bulbul aytmaganni gul aytib ketar,  
Yaxshi niyatlardan yayrab yashangiz.

Ginaning zarrasi gumonga ildiz,  
Quvlik tabassumi yolg'onga ildiz,  
Bolam, bo'lmasang bas yomonga ildiz,  
Yaxshi niyatlardan yayrab yashangiz.

Hayoning hikmati chiroyga chimmat,  
To'qning savlatidan ochga ne himmat?  
Sizga keng fe'l bersin, ham ketmas davlat,  
Yaxshi niyatlardan yayrab yashangiz.

Ochilgan har gulning parvonasi ko'p,  
Bu yolg'on dunyoning afsonasi ko'p,  
Mahmuddek shoiri devonasi ko'p,  
Yaxshi niyatlardan yayrab yashangiz.



**OYBEK**

Oybekni tilidan ayirgan kaslar,  
Dilidan ayira olmaganlar hech.  
Qo'lidan ayirgan nomard, nokaslar,  
Elidan ayira olmaganlar hech.

Oybek bandagamas, Haqqa yukungan,  
Yozolmay qolganda ko'zlari yozgan.  
Tutilib, tutilib tutdek to'kilgan,  
Yuzlari gapirgan, yuzlari yozgan.

Vafo shevasida Majnun bo'lgan u,  
Bismillohdek toza kalomi bo'lgan.  
Zarifasi jism-u joniga ko'zgu,  
Og'rigan dilining oromi bo'lgan.

Jilmaysa yuz ochgan kunning ko'zidek,  
Kirgan davralarga nur bergan Oybek.  
Tildan qoldirganning chirog'i o'chsa,  
Kulib ko'zlaridan qo'r bergan Oybek.

Millatning mehrida ko'kargan gulni  
So'ldirib bo'lmaydi, urinmang sira.  
Millatning boshiga qo'ngan bulbulni  
O'ldirib bo'lmaydi, unutmang sira.

Oybekni tilidan ayirgan kaslar,  
Dilidan ayira olmaganlar hech.  
Qo'lidan ayirgan nomard, nokaslar,  
Elidan ayira olmaganlar hech.



## BAHORGA YETGANLAR OMON BO'LSINLAR

Kurtaklar kulgusin sochadi bahor,  
Ko'ngillar ko'zini ochadi bahor,  
Qishning belbog'ini yechadi bahor,  
Bahorga yetganlar omon bo'lsinlar.

Orziqqan dillarning orazidek xush,  
G'unchalar jilmayar, bulbullar behush,  
Sog'inchlarin sochib turnalar sarxush,  
Bahorga yetganlar omon bo'lsinlar.

Shaftoli gullasa uyalgan qizday,  
Lolalar latifdir ul anor yuzday,  
Ay gulim, dunyoda oshiq yo'q bizday,  
Bahorga yetganlar omon bo'lsinlar.

Bulutlar ortidan mo'ralagan oy,  
Bahorni sog'ingan, biram yoqimtoy,  
Qaytgan qaldirg'ochlar ayvonga chiroy,  
Bahorga yetganlar omon bo'lsinlar.

Bahor, bemor kutgan malhamday shirin,  
Bahor, sevdim degan alhamday shirin,  
Mahmudga qay fasl ko'klamday shirin,  
Bahorga yetganlar omon bo'lsinlar.



**XUSH KO'RDIK**

Izzat topgan odamning izida gul unarkan,  
Quvonch quchsa qaddini ko'zida gul unarkan,  
Suhbatida xush sado, so'zida gul unarkan,  
Assalomu alaykum, ungan gullar, xush ko'rdik.

Har salomning salmog'i alik bilan o'lchanur,  
Chiroqning jilmayishi pilik bilan o'lchanur,  
Kulib tursa toleing dilbarlikdan dil yonur,  
Assalomu alaykum, yongan dillar, xush ko'rdik.

Qush qo'nmagan daraxtning bag'ri butun emasdir,  
Muhabbatdan o'zgasi dilga ustun emasdir,  
Bo'zlamagan bulbulning bog'ida gul unmasdir,  
Assalomu alaykum, jon bulbullar, xush ko'rdik.

Uzun-uzun yo'llarning poyonida nima bor,  
Sen boyni qo'y, gadoning davronida nima bor.  
Ko'zni yumsang ko'ngilning osmonida nima bor,  
Assalomu alaykum, Haqqa qullar, xush ko'rdik.

Ayo do'stim, har tongdan oftob so'rab yashaylik,  
Tunni qora demasdan mohtob so'rab yashaylik,  
Mahmud ko'ngil ko'zini nurga o'rab yashaylik,  
Assalomu alaykum, yorug' kunlar, xush ko'rdik.



**KECHAGI KUN**

Kimlar uchun ketmas davron kechagi kun,  
Kimlar uchun mangu armon kechagi kun.  
Yangi kundan, yangi yildan umidlar mo'l,  
Vale endi qaytmas mehmon kechagi kun.

Yangi asr ostonadan odimlaydi,  
Kimni dunyo, kimni unda baxt imlaydi,  
Ammo mening yuragimni timdalaydi,  
Qo'ldan ketgan bitta imkon kechagi kun.

Savob qilgan savobidan yuzi yorug',  
To'g'ri odam javobidan yuzi yorug',  
Elim hurlik oftobidan yuzi yorug',  
Ozod bo'lgan O'zbekiston kechagi kun.

Bozorlarda molin emas, dilin sotib,  
Kimlar ketdi diyonatin, elin sotib.  
Shoyad bizga insof bersa tonglar otib,  
Qadring kimlar qildi yakson kechagi kun.

Odamzodni orzulari yetaklaydi,  
Yaxshi o'zdan, yomon sendan o'pkalaydi.  
Uyg'otolsa har ko'ngilda baxt uxlaydi,  
Kimdan rozi, kimdan giryon kechagi kun.

Oqil sening yodingga ham gul tutgaydir,  
Tuzing totib johil zumda unutgaydir,  
Sensiz axir ertasini kim kutgaydir,  
Bizdan kulib ketgan mehmon kechagi kun.



**SAVOL**

Sen kimsan, dedilar to'rdagi zotlar,  
So'zlari ko'ksidan sitilgan toshday,  
Kimligim bilardi, kuldi bedodlar,  
Ko'nglim-a, uzildi ko'zdagi yoshday.

Hayot bu haqiqat haqida ertak,  
Ajabki, so'zlasang eshitguvchi yo'q.  
Haqiqat xayolda yuz ochgan chechak,  
Yo kimdir nogahon bosib olgan cho'g'.

Tafakkur ta'nani xush ko'rmas, ayon,  
To'rda tutaganlar cho'g'dan qo'rqishar.  
G'iybat xaltalari bo'sh qolsa bir on,  
Qarg'adek bir-birin ko'zin cho'qishar.

Olovga ulashing mening dilimni,  
O'chgan o'choqlarga qo'r bo'lar hali.  
To'rdagi kimsalar uqmas tilimni,  
She'r aytsam hur elim jo'r bo'lar hali.





## BIR KUNDA...

*Do'stim Mirkomilga*

Xudo umrin bersa, yashayversa to'q,  
Aytgin, kimning yuz yil yashagisi yo'q.  
Lek ko'ngil tubida yuz ochar bir cho'g',  
Bir kunda bir soat do'st uchun yasha.

Qafasga sig'maydi orzular qushi,  
Joningni chimchilar ro'zg'or tashvishi,  
Ayt, poyon topganmi, bu dunyo ishi,  
Bir kunda bir soat do'st uchun yasha.

Dasturxon to'ldirma, topganingni qo'y,  
Mayli qadah tutma, diydoriga to'y,  
Ostonangda kulib ko'rsatganda bo'y,  
Bir kunda bir soat do'st uchun yasha.

Garchi uzoqdasan, lek kutib yasha,  
Sog'inching dastalab gul tutib yasha,  
Obro'ngni, shoningni unutib yasha,  
Bir kunda bir soat do'st uchun yasha.

Otangni ardoqla, onangni asra,  
Joningning chirog'i bolangni asra,  
Betobsan, ichga yut, nolangni asra,  
Bir kunda bir soat do'st uchun yasha.

Kimdir pul uchun, kim gul uchun yashar,  
Quyosh ko'kda kuyib nur uchun yashar,  
Mahmud diydor to'kkan dur uchun yashar,  
Bir kunda bir soat do'st uchun yasha.



**BOSH URINGIZ**

Ko'ngil ko'zi ochilmagan yoronlarim,  
Bahor keldi, buloqlarga bosh uringiz.

Jilmayishdan orlanguvchi jononlarim,  
Yalpiz kulgan qirg'oqlarga bosh uringiz.

Daryodillik ishqini o'rtasa gar,  
Yo'lin to'smang, irmoqlarga bosh uringiz.

Odam tirik bu dunyoning nuri bilan,  
Chimrilmasdan chiroqlarga bosh uringiz.

Yangi libos qomatingiz ko'rki erur,  
Vale ko'hna quroqlarga bosh uringiz.

Tutunlarning tumanida yuz yil uchmang,  
Osmon ko'rki chaqmoqlarga bosh uringiz.

Mahmud aytar ko'ngilga dog' oydan tushmas,  
Oftobi bor yonoqlarga bosh uringiz.



**QO'SHIQ QARITMAYDI**

Ko'zlarga sig'maydi ko'rki bor dunyo,  
Jannatga o'xsharkan erki bor dunyo,  
Yig'loqi odamdan asrasin Xudo,  
Bo'y bersa yaxshiga bo'ylab yashaylik,  
Qo'shiq qaritmaydi, kuylab yashaylik.

Onam deb yashagin, bolam deb yasha,  
Yalangoyoq yurgan dalam deb yasha,  
Armonim, azobim, nolam deb yasha,  
Insonmiz, insondek o'ylab yashaylik,  
Qo'shiq qaritmaydi, kuylab yashaylik.

Chohga tushmoq oson, chiqmoq ko'p qiyin,  
O'qimoq oson-u uqmoq ko'p qiyin,  
Besh kunlik dunyoda ko'rsatma o'yin,  
Tinch o'tgan har kunni siylab yashaylik,  
Qo'shiq qaritmaydi, kuylab yashaylik.

Taqdir bo'z kiydirsa kimxob qaydadir,  
Ko'nglim-a, kimxoblar borma, boydadir,  
Xudodan o'zgasi mayda-maydadir,  
Ko'ngilni ishq ichra iylab yashaylik,  
Qo'shiq qaritmaydi, kuylab yashaylik.



**KO'NGLIMNI ASRANG**

Bu ko'ngil ko'zida quyosh bor,  
Bu ko'ngil tubida bardosh bor,  
Muhabbat atalmish dildosh bor,  
Asrasangiz ko'nglimni asrang.

Jondan kechgan mag'rur or kabi,  
Sog'inganda yog'gan qor kabi,  
Poklik uning ezgu matlabi,  
Asrasangiz ko'nglimni asrang.

Otashida gullar undirgan,  
Jon ipidan qalam yo'ndirgan,  
Yorilmoqqa toshni ko'ndirgan,  
Asrasangiz ko'nglimni asrang.

Yulduzlarga nigohi yetgan,  
Yaratganga xush ohi ketgan,  
Baxtning bitta barmog'in tutgan,  
Asrasangiz ko'nglimni asrang.

Bozorlarga solinmagan gul,  
Butog'idan tushmagan bulbul,  
Qul bo'lsa u Mahmudgadir qul,  
Asrasangiz ko'nglimni asrang.



**OTASHGA OTSANGIZ**

Ko'ngilga kelgan so'z nur tutib kelsa,  
Do'st-u yor eshikdan gul tutib kelsa,  
Bir kosa bodani hur tutib kelsa,  
Sevgi saroyiga xoqon bo'lardim,  
Yo'qsa o'z ko'nglimga sulton bo'lardim.

Odamzodga boqib oftobin ko'rsam,  
Har dilda hikmatning kitobin ko'rsam,  
Yurt o'g'lin tig'dan tik shitobin ko'rsam,  
Tig' bo'lmasam yovga qalqon bo'lardim,  
Poklik degan so'zga posbon bo'lardim.

Jilg'aning yo'lida jilov ko'rmasam,  
Tulpor tuyog'ida tushov ko'rmasam,  
Qo'llarda kul titgan kosov ko'rmasam,  
Otashga otsangiz omon bo'lardim,  
Mehr istaganga mezbon bo'lardim.

Ishq ahli ishratning quli bo'lmasa,  
Shaytonning yurarga yo'li bo'lmasa,  
Ko'ngil gulxanining kuli bo'lmasa,  
O'ylamang dunyoda yomon bo'lardim,  
Yaxshisiz, yaxshilar tomon bo'lardim.

Sabrdan sachragan sado sinmasa,  
Ostonangga kelgan gado sinmasa,  
Haqqingga aytilgan duo sinmasa,  
Ko'nglimdan ko'karib osmon bo'lardim,  
Mahmud, o'ldirsalar, omon bo'lardim.



**POLVONI BO'LSIN**

Bog'boni ko'p elning yurti bog' bo'lgay,  
Polvoni bor elning ko'ksi tog' bo'lgay,  
Har yigit belida bir belbog' bo'lgay,  
Yaxshilar, yurtning o'z polvoni bo'lsin.

Alpomish o'zbekning ori bo'lgandi,  
Go'ro'g'li qatorda nori bo'lgandi,  
Baxshisin qo'lida tori bo'lgandi,  
Yaxshilar, yurtning o'z polvoni bo'lsin.

G'uncha xumoridan bulbul sayragay,  
Mardlar yov yodiga qilich qayragay,  
Maydon titraganda osmon yayragay,  
Yaxshilar, yurtning o'z polvoni bo'lsin.

Zargar bor, tillolar zavol ko'rmagay,  
Oqillar umrida uvol ko'rmagay,  
Er yigit qaddin eli dol ko'rmagay,  
Yaxshilar, yurtning o'z polvoni bo'lsin.

Omin deng, yigitni Alloh qo'llasin,  
Belbog'i belida guldek gullasin,  
Boshi egilmasin o'zbek bolasin,  
Yaxshilar, yurtning o'z polvoni bo'lsin.



**SALOMATLIK XUSH DAVLATING**

Salomatlik jismingdagi xush savlating,  
Dunyolarga topilmaydi bu davlating.  
Bemor bo'lib bolishlarga boshing botsa,  
Bo'y ko'rsatar jon atalmish omonating.

Omonating Allohnik i olar bir kun,  
Toliqqanda jon jismingdan tonar bir kun.  
Dardi borlar dunyo emas, darmon izlar,  
Dunyolaring bu dunyoda qolar bir kun.

To'rt muchang sog', qirga sig'mas tulpordaysan,  
Kuz chiroyi kulib turgan anordaysan.  
Jon degani uzilmagan lola ekan,  
Uzilmasang, soyasi xush chinordaysan.

Boshing omon, boshdan mehr elab yasha,  
O'zgaga ham salomatlik tilab yasha.  
Umr qisqa, o'tar yo'llar uzun ekan,  
Yaxshilikka yaxshiliklar ulab yasha.

Salomatlik jismingdagi xush savlating,  
Dunyolarga topilmaydi bu davlating.  
Mahmud, yuzman yuzlashsang ham ketging kelmas,  
Omonliging — Alloh bergan saodating.



## NAZAR

Qoqilganning qoshida kulib turma, do'stginam,  
Yiqilganning yuragin tilib turma, do'stginam.  
Bu dunyodan orttirib otga yuklab ketmaysan,  
Gul turganda nazaring kulga burma, do'stginam.

Tangri ekan niholning bargida himmati bor,  
Oshatilgan luqmaning tagida minnati bor,  
Go'zallikka go'zallik qo'shganni Xudo xushlar,  
Tiyrak boqsang zarningmas, zargarning ziynati bor.

Tuproqda ta'm yo'q desang, bolari nola qilur,  
Yalpizlar jovdirashib, shabnamdan jola qilur,  
Muhabbat mehrobiga tiz cho'kkan ko'ngilga boq,  
Qo'sh kaftini kuydirib, yuragin lola qilur.

Yamoqni yarashtirgan onaning ko'zida gul,  
Mard agar yo'lga chiqsa, xush nazar izida gul,  
Qayg'uni quvolsang gar, quvonchga quvib yetgin,  
Aro yo'lda turganni egam xushlamas butkul.

Saxiylar burda nonin to'kin dasturxon qilur,  
Ziqna yog'in yig'latib, kun aro yovg'on qilur,  
Savobining salmog'i tarozida jilmaysa,  
Farishtalar ul zotni behishtda mehmon qilur.

Tangri tongin bermasa, nahorga yetganlar yo'q,  
Qish qorini ko'rmayin, bahorga yetganlar yo'q,  
Orttirganingni, Mahmud, otga yuklab ketmaysan,  
Boylik nadur, dunyodan gul olib ketganlar yo'q.





**BAG'ISHLOV**

*O'zbekiston xalq yozuvchisi  
Said Ahmadning 80 yilligiga*

Odamlar bor millatning joni bo'lib yashaydi,  
Odamlar bor elining shoni bo'lib yashaydi,  
Odamlar bor bir qushning doni bo'lib yashaydi,  
Vatanga vafosini ko'rsatoldi Said Ahmad,  
Elda erdek yashashni o'rgatoldi Said Ahmad.

Yolg'izlikni o'ziga yarashtirib yashadi,  
Izidagi shaytonni adashtirib yashadi,  
Har zarra luqmasini halolidan oshadi,  
Qarilikning qudratin ko'rsatoldi Said Ahmad,  
Sadoqatda yashashni o'rgatoldi Said Ahmad.

Surgunlarda sarg'aygan sabridan sitam yog'di,  
Yurtdoshin yerga qo'yib bo'zladi, motam yog'di,  
Saidasi sargardon ko'zidan shabnam yog'di,  
Ko'z yoshida kulishni ko'rsatoldi Said Ahmad,  
Qanoatda yurishni o'rgatoldi Said Ahmad.

Yo'qotgani, topgani biri biridan aziz,  
Nodirasi yodgori ko'zin nuridan aziz,  
Jismingizda nima bor yurak qo'ridan aziz,  
Saksonda yurak qo'rin ko'rsatoldi Said Ahmad,  
Yozmaganga yozishni o'rgatoldi Said Ahmad.

G'afur G'ulom sha'nini jondek asrab yashadi,  
Abdullaning umrini Haqdan tilab yashadi,  
Erkini, O'tkirini boshin silab yashadi,  
O'zi bilgan o'gitni o'rgatoldi Said Ahmad,  
Ustoz bo'lib yashashni ko'rsatoldi Said Ahmad.

Qadamining qatiga kulgu sochib yashadi,  
Qahhorning eshigini nurdek ochib yashadi,  
Dasturxonin har kimga guldek ochib yashadi,  
Oshni damlab oshashni ko'rsatoldi Said Ahmad,  
O'zbekona yashashni o'rgatoldi Said Ahmad.

**AYOL BOR...**

Ayol e'zoz uchun yaralgan zotdir,  
Ayolga ehtirom yarashar asli,  
Bir og'iz shirin so'z unga najotdir,  
Ayol bor — baxtiyor odamzod nasli.

Ayol bag'ringdagi baxting bekasi,  
Dunyoga tabassum bergan ham ayol.  
Jannat iforidir ayol nafasi,  
Termulib dardingni tergan ham ayol.

Dunyo hofizlarin shoh qo'shiqlari,  
Ona allasining uvog'icha yo'q.  
Bahor saralagan ming turfa g'uncha,  
Bir go'zal sanamning dudog'icha yo'q.

Yigitlar tiz cho'kkan guldek ostona,  
Kulgusi qo'ng'iroq qizlar poyidir.  
Ayol bor — er zoti yashar mastona,  
Nainki mastona, goh savdoyidir.

Ayolni ojiza deyavermang ko'p,  
Ayolsiz erkak ham, dunyo ham ojiz.  
Poklanmoq bo'lganlar, kelingiz to'p-to'p,  
Onangiz poyiga cho'kavering tiz.

Ayol e'zoz uchun yaralgan zotdir,  
Ayolga ehtirom yarashar asli,  
Bir og'iz shirin so'z unga najotdir,  
Ayol bor — baxtiyor odamzod nasli.



**HAVAS CHIROG' I**

Umidlar uyg'onar qalbigda manim,  
Yo'limni yoritar hayrat chirog'i.  
Sezurman go'zaldir borar maskanim,  
Ko'ksimni kuydirar yurak titrog'i.

Xayolim bog'ida yo'qdir xazonlar,  
Chorlasa g'unchalar, gullar chorlaydi.  
Bolarilar inim — tolmas mezbonlar,  
Bormasam onamdek o'ksib zorlaydi.

Shabnamlar she'r tutar durlardek tiniq,  
Shodlanib dilimga taqib olaman.  
Quyosh jilmayganda shirin entikib,  
Havas chirog'ini yoqib olaman.

Go'zallik beshigin tebratgan sabo,  
Alladek xush orom tortiq qiladi.  
Kimni go'zallikka yor etsa Xudo,  
Bitta yaxshilikni ortiq qiladi.



## NAVRO'ZNI SOG'INGAN NAVRO'ZGA YETSIN

Sog'inchdan sochilgan sadodan so'rang,  
Tonglardan to'kilgan ziyodan so'rang,  
Yetkazguvchi egam Xudodan so'rang,  
Navro'zni sog'ingan navro'zga yetsin.

Yerga tushgan urug' nurga talpinar,  
Tulporlar kishnashib qirga talpinar,  
Bulut yomg'ir bo'lib yerga talpinar,  
Navro'zni sog'ingan navro'zga yetsin.

Nish urgan maysalar najot ustuni,  
Kun kelar gullashar bag'ri butuni,  
Qarg'alar qahrining qolmish kukuni,  
Navro'zni sog'ingan navro'zga yetsin.

Sabolar belanchak osdi shoxlarga,  
Hilol hasad qilar yerda mohlarga,  
Bulbul gulni chorlar xush gunohlarga,  
Navro'zni sog'ingan navro'zga yetsin.

Dardi borgan darmon boychechak nomi,  
O'riklar gulida bahor salomi,  
Qo'shiqqa aylanar ko'ngil kalomi,  
Navro'zni sog'ingan navro'zga yetsin.

Navro'z kelaverar biz bo'lmasak ham,  
Bu bizning bahordir, biz yetgan ko'klam,  
Mahmud, she'rda shukring eshitsin, egam,  
Navro'zni sog'ingan navro'zga yetsin.



## QASHQADARYO

Yantoqlar erinib o'sgan cho'llarda,  
Asriy orzulari gullagan xalqsan.  
Men iymon keltirdim qadim yo'llarda,  
Yaratgan azaldan qo'llagan xalqsan.

Mehring ardog'ida ko'kargan giyoh,  
Sening umring tilab tasbeh aytadi.  
Tuproq'ingga kelgan har aziz sayyoh,  
Seni tavof qilmay qanday qaytadi?

Ey quyosh o'lkasi, nurli favvora,  
Qaysi qiyosingga topayin ta'rif.  
Senga ta'zim qilsam arzir ming karra,  
Farzanding bo'lgan-chun Abdulla Orif.



## QILMISH...

Qayg'u, motamimdan kim quvonch talab,  
Shaksiz quvonchimdan qayg'u izlaydi.  
Dilida sensirab qarg'aydi, ajab,  
Yo rah, tilda bu kas qanday sizlaydi?!

Odamning olasi ichida degan,  
Qarg'alar bulbulga bo'lolmas dildosh.  
Qilmish-ku azaldan qidirmish ekan,  
Har kimning niyati o'ziga yo'ldosh.

## SENI QUTLAB QO'YAY

Shaftoli shoxidan sochilar kulgu,  
O'riklar oq rangda ochilgan tuyg'u,  
Ilohim, kurtaklar ko'rmagay qayg'u,  
Tegrangda xush yoqar nasim yelganda,  
Seni qutlab qo'yay bahor kelganda.

Ko'zlaring shundoq ham mastona edi,  
Yuzing lolalarga afsona edi,  
Bahor seni ko'rib „bahorim“, dedi,  
Baxt tilab boshingda quyosh kulganda,  
Seni qutlab qo'yay bahor kelganda.

Qaytib ochilgaydir balki bu gullar,  
Qaytib sayrayverar xushxon bulbullar,  
Qaytib kelmaydi-da, axir bu kunlar,  
She'rdan sharbat tutib dilim to'lganda,  
Seni qutlab qo'yay bahor kelganda.



**BAHORIM**

Ko'z ochgan kurtaklar ko'zimga chiroy,  
Bulbullar bayoti so'zimga chiroy.  
Tog'da qolgan qorlar, endi xush qoling,  
Keldingmi, munisam, onam, ko'klamoy.  
Biz seni sog'indik, ey xokisorim,  
Sen ham bizni sog'indingmi, bahorim?

Seningsiz yozni ham yozligi yolg'on,  
Kuzning etagiga to'kilmas xazon.  
Qishning ertagini kim ham tinglardi,  
Bag'rida bahorni ko'rmasa omon.  
Orazi oftobim, ko'zi xumorim,  
Sen ham bizni sog'indingmi, bahorim?

Yomg'irlaring boshqa, chaqmog'ing boshqa,  
Bulutlar yarashgan qabog'ing boshqa.  
Chehrangdan aylanay, jonim, Momo Yer,  
Yalpizlar yarashgan yonog'ing boshqa.  
Ko'zlarga sig'magan gulim, gulzorim,  
Sen ham bizni sog'indingmi, bahorim?

Maysaning, chechakning, gulning egasi,  
O, Mahmud axtargan baxtning bekasi.  
Men seni hammadan ko'proq sog'indim,  
To'rt fasl ichinda ko'nglim erkasi.  
Topilgan tumorim, atrim, iforim,  
Sen ham bizni sog'indingmi, bahorim?



**IZTIROB**

Millatning dardiga darmon shoirim,  
Endi o'z xalqiga armon shoirim,  
Yo'q, sening o'lganing yolg'on, shoirim,  
Nahot ajal yo'lin bo'lmaydi to'sib,  
Qandoq ketib qolding, Muhammad Yusuf?

Balqib turgan baxtning jarangiday xush,  
She'r o'qib elingni qilarding sarxush,  
Ay, bulbul zabonim, qaytib kelmas qush,  
Onang yo'llaringga turgandir chiqib,  
Qandoq ketib qolding, Muhammad Yusuf?

Demagin sen bilan bitta jon ketdi,  
Qancha yozilmagan she'r, doston ketdi,  
Tangri senga bergan zo'r imkon ketdi,  
Nolamdan tikonlar chiqmoqda o'sib,  
Qandoq ketib qolding, Muhammad Yusuf?

Har nafas ko'zlarim o'ngidadirsan,  
Mehring bilan mehrim rangidadirsan,  
Oh, endi ohlarning ohangidasan,  
Qizlaring turishar sochlari to'zib,  
Qandoq ketib qolding, Muhammad Yusuf?

Yulduz yo'lga chiqdi seni axtarib,  
G'ulomjon, G'iyoslar g'aribdan g'arib,  
Hofizlar bir kunda qoldilar qarib,  
Nahot seni boshqa ko'rmaslar qaytib,  
Qandoq ketib qolding, Muhammad Yusuf?

Muhammadi bilan baxtli Andijon,  
Muhammadsiz qoldi ahli Andijon,  
Yig'lasang arziydi, yig'la, Andijon,  
Bobur ham Afg'onda yotibdi o'ksib,  
Qandoq ketib qolding, Muhammad Yusuf?



Behisht bolish bersin, bulbul shoirim,  
Izingdan intizor ming gul, shoirim,  
Yo'q, sen o'lganing yo'q butkul, shoirim,  
O'zbek olib yurar joniga qo'shib,  
Qandoq ketib qolding, Muhammad Yusuf?

\* \* \*

Yolg'on aytma, yer ko'tarmaydi,  
Yer ko'tarsa, el ko'tarmaydi.  
Qo'li egri, dili egrilar,  
Barmog'ida baxt tutolmaydi.

Jisming ko'rki ko'zingga quvonch,  
Isming ko'rki so'zingga quvonch,  
Sen ortingga qarab-qarab tur,  
To'kilganmi, izingga quvonch.

Ushalmagan orzuing armon,  
Ushalgani besh kunlik mehmon.  
So'radingmi o'zingdan sira,  
Rozimikin sendan yer, osmon.

Jon ichida ko'ngil bormi, ayt,  
Ko'ngil ne der jon og'rigan payt.  
Manzilingga yetolmay qaytsang,  
Mahmud, faqat iymoningga qayt.



## IZLAMA

Ko'ringan giyohdan ifor izlama,  
Shabnamga termulib g'ubor izlama,  
Nokaslar nonidan mador izlama,  
O'ziga yukunib yig'lasang goh-goh,  
Nasibang berguvchi Alloh bor, Alloh!

Tiriksan, tugamas sira armoning,  
Mehnating tuzingdan topgan darmoning,  
Gullab ketmasa bas tilda yolg'oning,  
O'zingdan o'zingni etolsang ogoh,  
Seni qo'llaguvchi Alloh bor, Alloh!

Odamzod azaldan tomoshaga o'ch,  
Yo'lbars yo'llaringda har kun kelmas duch,  
Himoyaga topsang vujudingda kuch,  
O'zing o'zgalarga qazimasang choh,  
Seni asraguvchi Alloh bor, Alloh!

Kunduz quyosh, oqshomda oy arzanda,  
Yo'lga yarashasan yursang Vatanda,  
Nogoh chaqib qolsa bitta gazanda,  
Dod solma, umring bor boshingda panoh,  
Yaratganning o'zi Alloh bor, Alloh!

Kelibsan, ey Mahmud, ketishdan qo'rqma,  
Bobong o'tgan yo'ldan o'tishdan qo'rqma,  
Mangu makoningga yetishdan qo'rqma,  
Dildan chiqsa La ilaha illalloh,  
Bandamsan deguvchi Alloh bor, Alloh!



## BAXT BO'LIB BORGIN

Qurigan niholdan ko'rk axtarmagin,  
Chekmagan dardingga davol izlama.  
Aslida yo'q boshga bo'rk axtarmagin,  
Fano baxt berganda baqol izlama.

Ismingda onangning guldek isi bor,  
Jismingda otangning yigitlik shoni.  
Nafsingga bo'lolsang agar jilovdor,  
Yetadi Vatanning bir burda noni.

Qaro qish qaqshatgan daraxtlar misol,  
Bahor xayolidan madorlar olgin.  
Shukrona, shodlik bor dilingda xiyol,  
Bir baxtsiz qoshiga baxt bo'lib borgin.

Dunyoni yaratgan Xoliqi olam,  
Tunini tongiga ulab yashaydi.  
Dilidan bulbulin uchirganlar ham,  
Bulbullik shuhratin tilab yashaydi.

Neki yaralibdi dunyoi dunda,  
Yashashdan umidvor, nurdan umidvor.  
Unutma, azizim, ul mahshar kunda,  
Bizni qo'llaguvchi bir Parvardigor.



**BEGONA QILMA**

Shayton qarimaydi, gunoh arimas,  
Seni unutganga duo darimas,  
Bo'ynidan bog'lagan ovga yaramas,  
Ilohim, o'zingdan begona qilma!

Yomon ko'p demasman, balki men yomon,  
Muborak nazaring burgil men tomon,  
Yo'ldan adashtirma, rahmdil Rahmon,  
Ilohim, o'zingdan begona qilma!

Quyosh orazida mehring mujassam,  
Qahringdan qo'rqaman, yo'q bunga shubham,  
Jannatdan quvilgan Odam Ato ham,  
Ilohim, o'zingdan begona qilma!

Joynamoz jamoli, ibodating xush,  
Tillardan tushmagan tilovating xush,  
O'zingga aytganim, salovating xush,  
Ilohim, o'zingdan begona qilma!

Shayton qonimizda oqquvchi riyo,  
Iymon kalomingdan taralgan ziyo,  
Mahmud, umidvorman qilib tavallo,  
Ilohim, o'zingdan begona qilma!



*MENDAN MENI  
SORAMA*

*2003 ~ 2006- yıl*





## O'TINCH

Meni osmonlarga olib chiqmangiz,  
Quruq nog'orani chalib chiqmangiz.  
Mening ko'nglim yerda, tovonim yerda,  
Osmondan uyalib qolmayin yana.

Menga amal emas, oshiq dard bering,  
She'ning sharobidan chimdim gard bering,  
Yerda maysa bilan yashagim kelar,  
Rayhondan uyalib qolmayin yana.

Yerda onam yashar, bolam yashaydi,  
Otam qabrin quchgan nolam yashaydi.  
Onadan qarzini uzgan bormikin,  
Vijdondan uyalib qolmayin yana.

Qonimda oshiqlar isyon qiladi,  
Jonimda qo'shiqlar giryon qiladi.  
Shayton ishvasida jannat ko'rsatmang,  
Rahmondan uyalib qolmayin yana.

Onam dedim, Momo Yerga yukundim,  
Ko'z yosh bo'ldim, yana unga to'kildim.  
Hovuchim to'ldirib bug'doy berdi u,  
Somondan uyalib qolmayin yana.

Men yerdan kuzatgan jonim, oftobim,  
Men yerdan termulgan oyim, mohtobim.  
Osmoningiz o'zingizga buyursin,  
Iymondan uyalib qolmayin yana.

Meni osmonlarga olib chiqmangiz,  
Chiqsangiz siz yerdan nolib chiqmangiz.  
Xudoning oldida, yerning oldida,  
Insondan uyalib qolmaylik yana.



**DO'STINGGA SAVOL**

Boylik baxtning boshimikan, ayt,  
Boylik ko'zning yoshimikan, ayt,  
Boylik taqdir toshimikan, ayt,  
Bilsam sendan so'ramas edim.

Kulib chiqib yig'lab botar kun,  
Tunda qayda uxlab yotar kun,  
Olov bo'lmas nega har uchqun,  
Bilsam sendan so'ramas edim.

Tilim, buncha uzunsan, aytgin,  
Dilim, buncha mahzunsan, aytgin,  
Onam deydi: yoshimga yetgin,  
Bilsam sendan so'ramas edim.

O'zingda yo'q olamda yo'qmi,  
Lek o'zingdan, ayt, ko'ngling to'qmi,  
Yurak qaydan olarkin cho'g'ni,  
Bilsam sendan so'ramas edim.

Suvdek serob bo'lmoq ne o'zi,  
Baxtdan betob bo'lmoq ne o'zi,  
Qanday sharob shoirning so'zi,  
Mahmud, bilsam so'ramas edim.





**KO'RGAN BORMI?**

Kim uchirib yuborsa  
Qo'lidagi qushini.  
Ovchilardan orlanmay,  
Suvga aytsin tushini.  
Yig'lab kelib dunyoga  
Bo'zlab ketgan zotlar ko'p.  
Chidaganga chiqargan,  
Bu dunyoning ishini.

O'tinning umri qisqa,  
Mo'l yursa qalovgacha.  
Ko'pchib turgan xamir ham,  
Borgaydir olovgacha.  
Ombir bilan oldirar,  
Odam og'riq tishini,  
Chidaganga chiqargan,  
Bu dunyoning ishini.

Ko'rgan bormi, aytinglar,  
O'z ko'nglining kulini.  
Kim boshga yostiq qilar,  
Vijdon sotib pulini.  
Ayb undamas, yoronlar,  
Shayton olgan hushini,  
Chidaganga chiqargan,  
Bu dunyoning ishini.

Onam deydi: — Senga hech  
Nasihat kor qilmaydi.  
Onasin yerga qo'yib,  
Bo'zlamagan bilmaydi.  
Kech ochilgan ko'zingni,  
Kim artadi yoshini.  
Chidaganga chiqargan,  
Bu dunyoning ishini.

Atirgulning tikoni,  
Bekor tilmas qo'lingni.  
Gulzorga kirmoq bo'lsang,  
Poklab olgin dilingni.  
Parvoz oldi oqqushlar,  
Suvga urar to'shini.  
Chidaganga chiqargan,  
Bu dunyoning ishini.

Qaysi dorboz langarsiz,  
Dor ustida o'ynaydi.  
Qorin to'yar bir zumda,  
Ko'zlar nechun to'ymaydi?  
Kimga sotar qassoblar,  
Hech suyaksiz go'shtini?  
Chidaganga chiqargan,  
Bu dunyoning ishini.

Xudoyimga qay kimsa,  
Ko'z yosh qilsa yolg'ondan,  
Omadning oq tulpori,  
Tushib kelmas osmondan.  
Qurt yerkan azaldan,  
Daraxtning ham bo'shini,  
Chidaganga chiqargan,  
Bu dunyoning ishini.



**ONAM BILAN KETMON CHOPGAN AYOLLAR**

Borga boqmay, yo'qni yo'qlar xayollar,  
Onamdek bokira, oftobjamollar,  
Ko'rgim kelib to'rt tarafga termuldim,  
Onam bilan ketmon chopgan ayollar.

Bir tup rayhon qoshida yuz tiz bukkani,  
Yig'i kelsa yalpizlarga dil to'kkan.  
Qo'lingiz gul, rayhon ekkan, gul ekkan,  
Onam bilan ketmon chopgan ayollar.

Peshonangiz teri tomgan Momo Yer,  
Qayda qoldi farishtadek momom der,  
Qaldirg'ochlar qo'lingizdan taom yer,  
Onam bilan ketmon chopgan ayollar.

Bu dunyoning kori sira bitmagan,  
Taqdir sizga ne yumushlar tutmagan,  
Dilingizdan ayting nelar o'tmagan,  
Onam bilan ketmon chopgan ayollar.

Sochlaringiz qorlardan ham oq bugun,  
Ko'ngil yarim, ko'ngil buncha toq bugun,  
O'ningizdan to'qqizingiz yo'q bugun,  
Onam bilan ketmon chopgan ayollar.

Yomon yovdan hatto yo'lbars o'kirar,  
Bitta ketmon bir erkakni cho'kirar,  
Izingizdan ne chamanlar gurkirar,  
Onam bilan ketmon chopgan ayollar.

Bir o'g'ilmiz, mingta o'g'il, xo'sh, nima,  
Ko'rmaganmiz bizlar axir qo'sh, nima,  
Goho oylab ko'rmaganlar go'sht, nima,  
Onam bilan ketmon chopgan ayollar.

Siz Vatanning yuzidagi yog'dusi,  
Siz Tangrining to'kilmagan tuyg'usi,  
Ketmon betin kuydirgan goh qayg'usi,  
Onam bilan ketmon chopgan ayollar.

Shoyi sotib alp yigitlar shod kelar,  
Mahmud kabi ko'p shoirlar mot kelar,  
Dil tubidan bilmam qanday dod kelar,  
Onam bilan ketmon chopgan ayollar.



## QAYTAYIN

Tishlatmangiz tilimni,  
Bilganimni aytayin.  
Ko'nglingizning ko'zini,  
Ko'rgim kelsa qaytayin.

Demang buni nolishda,  
Oftob mendan olisda.  
Baxt balqigan bolishda,  
Bo'lgim kelsa qaytayin.

G'unchaning hayronlig'in,  
Bulbul dil vayronlig'in,  
Manov sut ayronlig'in,  
Sizga qandoq aytayin.

Ko'hna tog'lar cho'kmasmi,  
Archa xazon to'kmasmi,  
Quvonch g'amdan qo'rqmasmi,  
Bilgim kelsa qaytayin.

Chaqmoqdagi chiroyni,  
Hech dog'i yo'q bir oyni,  
Ko'zlari to'q gadoyni,  
Ko'rgim kelsa qaytayin.

Qo'l taftini qo'l bilar,  
Qor qaqshasa do'l bo'lar,  
Shoir buncha go'l bo'lar,  
Kulgim kelsa qaytayin,  
Bilgim kelsa qaytayin.



## ORIYAT USTUNI EDI

„Ozod Sharofiddinov dunyodan o'tibdi!“ Bu sovuq xabar bir zumda qalblarni qalqitib, yuraklarni chaqmoqdek tilib o'tdi. Nazarimda O'zbekistonimizning eng chekka qishloqlarida istiqomat qiluvchi hamyurtlarimiz dilidan ham „Ozod Sharofiddinov kim edi?“ degan savol o'tgani yo'q. Ozod akani hamma bilardi, tanirdi, hurmat qilardi. Chunki Ozod aka tom ma'noda xalq farzandi edi. Ozod akani zangori ekranda ko'rganlar haqiqatning ovozini eshitgandek bo'lardi. U kishidan faqat odillikni, yolg'on yashamaslikni, oddiy xalq dardiga sherik bo'lishni, Vatanga muhabbatni, kitobga muhabbatni o'rganish mumkin edi.

G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhordek buyuk allomalar ko'ziga qarab rost so'zni aytolgan Ozod Sharofiddinovning so'zi boshqa har qanday shoir yoki yozuvchi tomonidan qonunday qabul qilinardi. Chunki bir qarashda sodda ko'ringan bu insonning tafakkur tig'i qilichdek keskir edi. Agar Ozod aka kechirmasa, soxtalikni, yolg'onni kechirmasdi.

Men oliy o'quv yurtida shu insondan saboq olganimdan, Mirtemir domlanning „Izlaganim“ to'plamiga yozgan diplom ishimga rahbar bo'lganidan, u kishining tavsiyasi bilan shoir Miraziz A'zamning „Sevaman“ she'riy to'plamiga yozgan ilk taqrizim „Sharq yulduzi“ jurnalida chop etilganidan uchib yurgan kezlarim hamon esimda. Keyinchalik ustoz mening she'rlarim haqida samimiy fikrlar bildirib, „Otamning o'kinchi“ dostonimga so'zboshi yozdilar. Qishloqda yashab, ijod etayotgan mendek shoir uchun bu oliy mukofot edi.

Ozod akaning rost so'zlarini, o'g'itlarini, kezi kelganda koyishlarini ham eshitganman. Kamtarin ijodim davlatimizning yuksak unvoniga munosib topilgan kunning ertasigayoq ustoz huzuriga duolarini olgani bordim. Shodon

kayfiyatda qarshi oldilar. Quchoq ochib qutladilar. Bir muddat suhbatlashib o'tirdik. Gap aylanib Parkent uzumi, mevalariga taqaldi.

— Qiziq, — dedilar ustoz samimiy jilmayib, — shu paytgacha olmaga olma, uzumga uzum deb qarab kelgan ekanman. Odam to'rt muchasi sog' bo'lib, chopib yurganda ko'ziga hamma narsa oddiy ko'rinar ekanmi?.. Qo'linga olib qaragam olma mo'jiza ekan. Undagi taram-taram izlarni kim chizgan, bitta olma ichiga shuncha muattar hidni kim joylagan?.. Uzum ham bir mo'jiza-ku. Nega shuni avvalroq anglab yetmadim. Sizga kulgili tuyilmasin-ku, ba'zan miyamga kelgan fikrdan o'zim uyalib ketaman. Nahot endi ketib qolaman... Nahot ana shu mo'jizalar hammasi qolib ketadi...

— Unday demang, ustoz,— dedim, — ayamni olib Parkentga chiqing. Biroz havo olib kelasizlar...

— Albatta chiqamiz, — dedilar yuzlari yorishib. — Ayangizni ham qiynab yubordim. Ozingina hordiq chiqarsa yaxshi bo'lardi.

Afsus, bu orzu armonga aylandi. Ilohim, oxiratlari obod bo'lgay. Bu she'r esa shogirdlar sog'inchinging nidosidir:

To'kilmog yo'q to'lmay qolganga,  
Gulzorlar bor so'lmay qolganga,  
Bir o'lmoq bor o'lmay qolganga,  
Osmon bugun past keldi, ustoz,  
Ketganingiz rost keldi, ustoz.

Azal qalban ozod edingiz,  
Qaddi doim shamshod edingiz,  
Rost so'z aytib siz shod edingiz,  
Vido bilan qaytgim yo'q, ustoz,  
Alvido deb aytgim yo'q, ustoz.

Dard bo'lganga dard ham pushaymon,  
Armonlikdan lol qolar armon,  
Ey daryodil, ey metin inson,  
Jonni o'tga soldingiz, ustoz,  
Otash bo'lib qoldingiz, ustoz.

Oyog'ingiz kesgan do'xtirlar,  
Sizdan emas, o'zdan qo'rqurlar,  
Sabringizga tahsin o'qurlar,  
Tosh ham goho tolarkan, ustoz,  
Sizga hayron qolarkan, ustoz.

Shafokatli Sharofat aya,  
Sadoqatli Sharofat aya,  
Boshingizdan ming o'rgildi-ya,  
Aya sizga tog' bo'ldi, ustoz,  
Bag'ringizda bog' bo'ldi, ustoz.

Adabiyot odil so'z degan,  
Qadriga yet qaro ko'z degan,  
Yolg'on yozgan qo'lni kes degan,  
Siz to'g'ri so'z tumori, ustoz,  
Tutar shu so'z xumori, ustoz.

Quyosh bu kun sizsiz yuz ochdi,  
Qabringizga kuz bargin sochdi,  
Sog'inch milt-milt mijjamdan toshdi,  
O'lib o'lmay yashaysiz, ustoz,  
Siz tirikka o'xshaysiz, ustoz.





**G'ANIM**

Ko'kardim, ko'rmading, bosib o'tding sen,  
Quyoshga yuz tutsam to'sib o'tding sen.  
Qahringdan dor yasab osib o'tding sen,  
Gulga umr bersa so'ldirolmaysan,  
Alloh jon olmasa o'ldirolmaysan.

Elning e'zozidan balandroq tog' yo'q,  
Mehr qo'rg'onidan go'zalroq bog' yo'q.  
Oqibat yuzidan yorug' chiroq yo'q,  
Ming yil yasha yo'qni yo'ndirolmaysan,  
Bu dunyo kamini to'ldirolmaysan.

Kuymagan ko'ngilda o't yoqib bo'lmas,  
Niyating noxushdir tik boqib bo'lmas,  
Chohni chamalasang xush oqib bo'lmas,  
Sitam-la sabrimni sindirolmaysan,  
Soyning suronini tindirolmaysan.

Bulbul dilim qafaslarga sig'magan,  
Onam meni qul qilib ham tug'magan,  
Mendan nari yursin meni uqmagan,  
Menga chirmandangni chaldirolmaysan,  
Alloh jon olmasa o'ldirolmaysan.



## NABIRA

*Nabiram Muazzamga*

Orzular ko'zida jilmaygan ziyo,  
Qartaygan quvonchga tutilgan aso,  
Jonim jarangida, ey yangi navo,  
Yaratgan bizga ham ayladi karam,  
Bobolik baxtini bergan nabiram.

Yo'llaringni kutib tolgandi momong,  
Allani sog'inib qolgandi momong,  
Seni qo'llariga olganda momong,  
Allaga aylandi bu ko'hna olam,  
Momolik baxtini bergan nabiram.

Bag'rim bahorida ochilgan g'uncha,  
Kurtak kulgusidek shirinsan buncha,  
Onang ming to'lg'ondi kundek kulguncha,  
Bizni qutlaganlar bizdan-da xurram,  
Shodlik sharobini tutgan nabiram.

Oy bizga egildi, qayrildi quyosh,  
O mulki malagim, o jajji dildosh,  
Shirin bo'lar ekan sevinch to'kkan yosh,  
Kulbamiz sen bilan qasrdan ko'rkam,  
Sen asli ko'nqlimiz ko'rki, nabiram.



## BIR KAMLIĞI YOLG'ON DUNYONING

Bir oshiq samoga uchgan kun,  
Bir qo'shiq olamni quchgan kun,  
Shodlikni sharobdek ichgan kun,  
Bir kamligi yolg'on dunyoning!

Hasadni xazondek yoqsalar,  
Havasdan chaqmoqlar chaqsalar,  
Ko'zingga beminnat boqsalar,  
Bir kamligi yolg'on dunyoning!

Do'st tutganing tumoring bo'lsa,  
Dilingdagi dildoring bo'lsa,  
Tinglashsalar gar zoring bo'lsa,  
Bir kamligi yolg'on dunyoning!

Yetim bola yerdagi maysa,  
Suv tilagan maysa jilmaysa,  
Oftobi bor ko'ngil ko'paysa,  
Bir kamligi yolg'on dunyoning!

Uchrashtirmay unashmasalar,  
Kunduzi ham tunashmasalar,  
Sindirguncha sinashmasalar,  
Bir kamligi yolg'on dunyoning!

Ortga boqib yorug' iz ko'rsang,  
El alqagan o'g'il-qiz ko'rsang,  
Yurtni ozod, elni xush ko'rsang,  
Bir kamligi yolg'on dunyoning!

**VAFO**

Men qo'shiqda Vatan ko'rdim,  
Vatan ko'rdim allalarda.  
Qizg'aldoqlar qirga olov  
Tashlagan xush pallalarda.

Vatan bordir, ayo do'stlar,  
Yurt sog'inchin sabosida.  
O'lmaydigan o'zbek yashar,  
Ma'murjonlar navosida.

Vatan asli vafoga esh,  
Qo'shiq ko'ngil vafosida.  
Jonga malham qo'shiq bordir,  
Onajonlar duosida.

Qo'shiq qilsam qo'shilib yon,  
Oshiqlarning jafosini.  
Sahrolar ham sog'ingaydir,  
Komiljonlar sadosini.

Vatan so'zin yozgin, Mahmud,  
Vafo degan imlo bilan.  
Mardlarining nomini el,  
Tilga olur vafo bilan.



## HIKMAT

Men keldim-u, men bo'ldi dunyo,  
Sen kelding-u, sen bo'ldi dunyo,  
Dunyo yoshdir, dunyo ko'hnadir,  
Sen-u menga teng bo'ldi dunyo.

Odamzodning yoshin so'rama,  
Mingga kirmas axir bandasi.  
Qayg'ulari yerning ostida,  
Biz dunyoning yangi xandasi.

\* \* \*

Bir misra she'r bitsam qani, onajon,  
Oppoq sochlaringiz tolasiday xush.  
Sog'inch sahrosida tizilgan marjon,  
Ashki quvonchingiz jolasiday xush.

Alloh ilhom berur bahoriy bir tong,  
Mehrimni bir she'rdagi zuhur eturman.  
Turnalar quvonchdan urishganda bong,  
Boychechak bargida sizga tuturman.



**OMONLIK TILAYLIK**

Kun o'tar aslida burda non bo'lsa,  
El ichra qadding tik chindim shon bo'lsa,  
Barchasi topilgay bosh omon bo'lsa,  
Omonlik tilaylik bir-birimizga.

Kulib ko'rishsangiz ko'zlar yorishgay,  
Yuz yil umr tilang yuzlar yorishgay,  
Xush niyat yangrasa so'zlar yorishgay,  
Omonlik tilaylik bir-birimizga.

Baxtim boqiy degan beklar ketdilar,  
Egilish bilmagan tiklar ketdilar,  
Chiroyda dunyoga ko'rklar ketdilar,  
Omonlik tilaylik bir-birimizga.

Suvga tashna odam buloq topgandek,  
Tunda adashganlar chiroq topgandek,  
Mezbon mehmoniga zar to'n yopgandek,  
Omonlik tilaylik bir-birimizga.

Yaxshilik yarashar yomonlarga ham,  
Omonlik yarashar osmonlarga ham,  
Xush boqing kun botgan tomonlarga ham,  
Omonlik tilaylik bir-birimizga.

Baxt izlab kelganmiz asli dunyoga,  
Baxt tilab ketaylik biz ham dunyoga,  
Mahmud tavallolar qilib Xudoga,  
Omonlik tilaylik bir-birimizga.



## O'ZGA UCHUN

Har afsona ostonasida  
Bir haqiqat gullab yotadi.  
Jodugarlar toshoynasida  
Yolg'onini pullab yotadi.

Gul rangida ko'rsang dunyoni,  
G'unchalardek xushro'y boqqaysan.  
Nur rangida ko'rsang dunyoni,  
Gugurtsiz ham chiroq yoqqaysan.

Bu dunyoning tomi ko'p baland,  
Izlaganing poyingda yotar.  
Kimlar uchun yangi tong otsa,  
Kimlar uchun so'nggi kun botar.

Gar yaxshilik yo'ldoshing bo'lsa,  
Yoding bilan yashar odamlar.  
Qish poyonlab, ko'kda kun kulsa,  
Qordan qo'rqmay gullar bodomlar.

Bu dunyoning bozorlaridan,  
Nima topding joningdan ortiq.  
Bu dunyoning mozorlarida,  
Kimga qilding joningni tortiq.

O'zga uchun yashadim dema,  
Xush ko'r magay yaratgan Egam.  
Bizdan o'zni rozi ketsin deb,  
Yaralgan-ku bu ko'hna olam.



**YASHASH BAXT**

Quvonch qo'shig'idek ko'z ochdi kurtak,  
Shodlik shakli bo'lib tug'ildi go'dak,  
Diydorga talpinar intizor yurak,  
Yashashdan yaxshi baxt yo'q ekan bilsam.

Gullarin to'ksa ham umring bahori,  
Chimchilab qo'ysa-da qishning ozori,  
Hikmating nuridir sochlaring qori,  
Yashashdan yaxshi baxt yo'q ekan bilsam.

To'qson-la to'qnashgan momolar aytar,  
Yuz bilan yuzlashgan bobolar aytar,  
Burda non so'ragan gadolar aytar,  
Yashashdan yaxshi baxt yo'q ekan bilsam.

Qushga izlab topgan bir doni shirin,  
Har gulga o'zining bog'boni shirin,  
Asli odamzodga o'z joni shirin,  
Yashashdan yaxshi baxt yo'q ekan bilsam.

Har bitta bandasin yorlasin Xudo,  
Yorug' manzillarga chorlasin Xudo,  
Mahmudning satridan sachrar bir sado,  
Yashashdan yaxshi baxt yo'q ekan bilsam.





## XUSH ONLAR

Bu ko'ngil ko'zining ochilmog'i xush,  
Quvonchning to'rt tomon sochilmog'i xush,  
Mushkulning bir oson yechilmog'i xush,  
Xush onlar muborak, do'st-u yoronlar.

Qahr qalbimizda qishlamasin hech,  
Mehr barmog'ini tishlamasin hech,  
Hasad barimizdan ushlamasin hech,  
Baxt tilab ochilsin qo'llar, zabonlar.

Oy bizdan olislab ketmasin sira,  
Tonglar bokiradir, quyosh bokira,  
Allohga yig'lasang ko'z yosh bokira,  
Bizni tark etmasin yorug' imkonlar.

Ishq uchun ishratdan tonganlar go'zal,  
Sog'inch diydoriga qonganlar go'zal,  
Loladek lovullab yonganlar go'zal,  
Tutsangiz yarashsin gul-u rayhonlar.

Biz umr bog'ida bir fasl gulmiz,  
Bir fasl xazonmiz, bir fasl kulmiz,  
Qadriga yetaylik, toki bulbulmiz,  
Mahmud, yarashmaydi she'rga yolg'onlar.



**BIZ KUTGAN BAHOR**

Orziqib kutganim ko'klamim keldi,  
Kimni sog'intirmas, ayting, bu bahor.  
Men sizni, o'zimni qutlagim keldi,  
Ham tilda, ham dilda aytaylik takror,  
Bizga baxt keltirsin biz kutgan bahor.

Bol so'rar bahordan bog'i bor odam,  
Oshiqdir dilida ohi bor odam,  
Past ketmas ko'ksida tog'i bor odam,  
Kurtaklar kulgusi topmasin ozor,  
Bizga baxt keltirsin biz kutgan bahor.

Jomlarga sig'maydi shodlik sharobi,  
Bahor qo'llarida gulning gulobi,  
Xush kelding, boshlarga orom oftobi,  
Qaysi ostonaga yarashmas gulzor,  
Bizga baxt keltirsin biz kutgan bahor.

Har maysa Xudoning yerga salomi,  
Qaytgan qaldirg'ochlar ko'klam kalomi,  
Yashashga chorlaydi yaxshilar nomi,  
Xush niyat xush yoqar aytsang ham yuz bor,  
Bizga baxt keltirsin biz kutgan bahor.



**DUNYO BEVAFO**

Boshlar egik, boshlar xam bugun,  
To'rt yelkada bir odam bugun,  
Ko'chalarga sig'may borishar,  
Vodarig'ο, barcha jam bugun.

Bir-birini bilmaganlar bor,  
Tirigida ko'rmaganlar bor,  
Tobutini tutganlar ichra,  
Hatto ko'zga ilmaganlar bor.

Mehr — aytgin, qandoq yuz ochding,  
Qahr — sen, ey, qaylarga qochding,  
O'lgan shuncha aziz bo'lurmi,  
Ko'z yoshingdan, hasad, dur sochding.

Boshlar egik, boshlar xam bugun,  
Tilovatdan toshar g'am bugun.  
Bir qabrning qoshida mahzun,  
Tiz cho'kkanlar, barcha jam bugun.

Ko'ngil ko'zin ocharkan Xudo,  
Barcha o'ylar: dunyo bevafo.  
Vah, hammaning ko'zi oldida,  
Bir tobutga sig'di bu dunyo.



**JUMBOQ**

Uzun tunlar ertagin,  
Oyga so'ylatganmisan?  
Oqshom ko'kka termulib,  
Yulduz yig'latganmisan?

Lola tersang ildizin,  
Erkalab qo'rganmisan?  
Rayhonzorlar ichinda,  
Iforga to'rganmisan?

Bolarining bir bora,  
Barmog'in ushladingmi?  
Tonglar xushvaqt turganda,  
Xudoni xushladingmi?

Ketdim deb kerilganda,  
Qaytishni bilurmisan?  
Toshlarga ham bir qo'shiq,  
Aytishni bilurmisan?

Ayt, ko'ngilning rangidan  
Qaysi bir rang ziyoda?  
Tilovatdan totliroq  
Ohang bormi dunyoda?

Mahmud, aytar so'zingning,  
Fikrini qilganmisan.  
She'r berganning sha'niga  
Shukrini qilganmisan?!



## YO'LGA CHIQQANMAN

Ayt, diydorning dudog'i qayda,  
Soddalikning sabog'i qayda,  
Yaxshilikning yarog'i qayda,  
Shuni izlab yo'lga chiqqanman.

Ko'p ekan-ku mendan yaxshilar,  
Bormi, ayting, sizdan yaxshilar,  
Ko'rinmaydi Komil baxshilar,  
Uni izlab yo'lga chiqqanman.

Otdan tushgan ko'p ekan buncha,  
Otga minmoq osonmi shuncha,  
Kim turadi dunyo turguncha,  
Uni izlab yo'lga chiqqanman.

So'zni so'zga to'ti ham qo'shar,  
Gohi bulbul zog'ga par to'shar,  
Sukut ichra kim seldek jo'shar,  
Uni izlab yo'lga chiqqanman.

Boqiy baxtning bulog'i qayda,  
Ayt, jannatning chirog'i qayda,  
Yomonlikning adog'i qayda,  
Shuni izlab yo'lga chiqqanman.



**YAXSHI KO'RAMAN**

Qishning qirovlari qoshimdan ketdi,  
El o'pgan maysadek qalqib turaman.  
Sog'inch sharbatidan menga jom tutdi,  
Bahorni bunchalar yaxshi ko'raman.

Ko'zimdan yumalab yuzimga tushar,  
Barimdan uzilib izimga tushar,  
Bahor yomg'irlari yerga baxt to'shar,  
Bahorni bunchalar yaxshi ko'raman.

Olisdan boqmaydi endi oftob ham,  
Yaproqlar yuziga sep yoyar shabnam,  
Ko'k chuchvara tugar ayvonda onam,  
Bahorni bunchalar yaxshi ko'raman.

Irmoqlar sozanda, yellar xonanda,  
Raqqosa kapalak — singlim chamanda,  
Hech o'lging kelmaydi bunday Vatanda,  
Bahorni bunchalar yaxshi ko'raman.

Har gulning diydori durlardan aziz,  
Qaytgan qaldirg'ochlar hurlardan aziz,  
Lolalar lovullar nozlari laziz,  
Bahorni bunchalar yaxshi ko'raman.

Lab ochgan g'unchalar visolga chorlar,  
Bulbulning bo'g'zida sim uzar torlar,  
Mahmud, shukr qilar Xudoga, yorlar,  
Bahorni bunchalar yaxshi ko'raman.



## NIMA BOR BIZGA?

Quyosh kuyib kul bo'lmas ekan,  
Oy uzilib gul bo'lmas ekan,  
Bu yulduzlar til bilmas ekan,  
Osmonida nima bor bizga?

Yo'lga chorlar ishqdan uzoqlar,  
Bulbulman der guldani yiroqlar,  
Ko'z ochmasa yangi buloqlar,  
Karvonida nima bor bizga?

Yiqilmagan yigitdek sarxush,  
Keksa polvon ko'rib yotar tush,  
Bir belbog'siz buyursa yumush,  
Maydonida nima bor bizga?

Mehmon ko'rmay o'tgan nokasning,  
Qalbi qo'rsiz, tutun nafasning,  
Qaldirg'ochni quvgan ul kasning  
Ayvonida nima bor bizga?

Og'ir yukning oromi qayda,  
Yengilidan bormikan foyda,  
Bir hovuch bug'doyi yo'q joyda,  
Somonida nima bor bizga?

Bekorchiga boqmas bu dunyo,  
Yolg'onchiga yoqmas bu dunyo,  
Mahmud, agar yor bo'lsa Xudo,  
Armonida nima bor sizga?



**ELDA BO'LSIN**

Kimdir xushnud davlatining dong'i bilan,  
Kimlar sarxush ibodatli tongi bilan,  
Odam aziz bu dunyoda ongi bilan,  
Xush niyat qil, dilda bo'lsin, tilda bo'lsin,  
Tilaganing eng avvalo elda bo'lsin.

O'z yeringni yomon desang yaxshing qani,  
Qadriga yet poyingdagi gul, chamanni,  
Shu Vatan-ku aziz qilgan san-u mani,  
Tuproq'in o'p dala, dasht-u cho'lda bo'lsin,  
Qut-baraka eng avvalo elda bo'lsin.

Begonalar bog'laringda bog'bon bo'lmas,  
Nolish bilan mushkullaring oson bo'lmas,  
Yuz yil tilan, ter to'kmasang to'rvang to'lmas,  
Alloh bersin, senda bo'lsin, menda bo'lsin,  
Duo qilgin, eng avvalo elda bo'lsin.

Qadring uchun qo'lni qo'lga bog'lab yasha,  
Erking uchun o'zni jangga chog'lab yasha,  
Yuz yil yasha, dushman ko'nglin dog'lab yasha,  
Elim degan mard yarog'i qo'lda bo'lsin,  
Tinch-omonlik eng avvalo elda bo'lsin.





## BOLALAR TABASSUMI

Dunyoga dunyo bergan,  
Bolalar tabassumi.  
Har uyga ziyo bergan,  
Bolalar tabassumi.

Jon ichra jon chirog'i,  
Quvonchning qo'ng'irog'i.  
Xush ko'rib Xudo bergan,  
Bolalar tabassumi.

Baxt kulgan kunday go'zal,  
Oy to'lgan tunday go'zal.  
Qatordagi qalqoning,  
Bor bo'lsin shunday go'zal.

Tillarga navo bergan,  
Bolalar tabassumi.  
Dardlarga davo bergan,  
Bolalar tabassumi.

Yaxshi tilak, xush duo  
Ota-onadan ravo.  
Bolalarga tabassum  
Ato et, o'zing, Xudo.

Chehrangga jilo bergan,  
Bolalar tabassumi.  
Vatanga ziyo bergan  
Bolalar tabassumi.



**SIZ TUG'ILGAN KUN***Sharifa Salimovaga*

Bahor ko'ksin ochgan siz tug'ilgan kun,  
Quyosh mehrin sochgan siz tug'ilgan kun.  
Quvonch qarimayman deya hayqirgan,  
Qayg'u dildan qochgan siz tug'ilgan kun.

Bolari bolining sharbatin tutgan,  
Rayhonlar rang to'kib himmatin tutgan,  
Duogo'y bobolar, otin momolar,  
Xudoni xushlashib, izzatin tutgan.

Baxtga beka bo'lgan onangiz u chog',  
Taxtga ega bo'lgan otangiz u chog',  
Tunga tumor bo'lgan oydayin xushro'y,  
Belanchak boshida siz yoqqan chiroq.

Go'zallik ming yilga yosharib ketgan,  
Xush tilak bo'y cho'zib oftobga yetgan.  
Shunday munavvar kun siz tug'ilgan kun,  
Baxt degan so'zni ham baxtiyor etgan.





Ustoz Said Ahmad hamisha ijodkorlarga  
mehribon bo'lgan.



Diydor sharbat shoir uchun.



Ustoz diydorida nur bor hamisha.  
Shoira Sharifa Salimova va Mahmud Toir  
Abdulla Oripov bilan.



O'zbekiston xalq  
yozuvchisi, ustoz  
Pirimqul Qodirov  
bilan.



O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri  
Erkin Vohidov bilan.



So'qoq. Tog'lar bag'rida. 1986- yil.



Shoir hamisha el xizmatidadir,  
Shu bois ulug'lar izzatidadir. 2002- yil.



• O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq  
yozuvchisi Tulepbergen Qaipbergenov bilan.  
Ellikqal'a. 2005- yil.



Parkent. Alisher Navoiyning 560 yillik tantanasidan so'ng.



O'zbekiston xalq shoiri Jumaniyoz Jabborov bilan diydor.



Bo'stonliqda she'riyat bayrami. 2006- yil.



Zarkent bog'larida. 2002- yil.





O'zbekiston xalq shoiri Aleksandr Faynberg  
Parkent mehmoni. 2006- yil.



Ranglar olamida ajib sirlar bor.  
O'zbekiston xalq rassomi Bahodir Jalolov bilan.



O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid bilan.  
Samarqand. 2007- yil.



Shoir ukalari Asqar va Ahadjon bilan Chimyon tog'ida.

## YARASHMAS ENDI

Quyosh bizga qo'shilsa kerak,  
Oy arqondek eshilsa kerak,  
Nega yum-yum yig'laysan, yurak,  
Ko'z yosh bizga yarashmas endi.

Qorsiz tog'lar qora tosh ekan,  
Tillo ham bir sara tosh ekan,  
Ikkimizda ko'ngil yosh ekan,  
Ko'z yosh bizga yarashmas endi.

Tunni ko'rmay chiroq yoqmaymiz,  
Birov bergan baxtga boqmaymiz,  
Biz yoqmasak zog'ga yoqmaymiz,  
Ko'z yosh bizga yarashmas endi.

Gul haqida kuylaganlar ko'p,  
Kul haqida kuylaymizmi, xo'b?  
Ko'zimizga solsalar ham cho'p,  
Ko'z yosh bizga yarashmas endi.

Bu dunyoning beki bo'lamiz,  
Binafshaning keki bo'lamiz,  
O'ldirsalar Haq deb o'lamiz,  
Ko'z yosh bizga yarashmas endi.

Umidi bor uvol ketmasin,  
Dili borgan zavol yetmasin.  
Biz bulbulmiz, gul unutmisin,  
Ko'z yosh bizga yarashmas endi.



**YIG'LAGIM KELDI**

*(Ayollar qamoqxonasida o'tkazilgan  
uchrashuvdan keyin yozilgan she'r)*

Bu dargohga boqmaydi oylar,  
Bu dillarda oqmaydi soylar,  
Tosh devorga uvol chiroylar,  
Sizlar uchun yig'lagim keldi.

Siz gunohga, gunoh sizga do'st,  
Bugun achchiq firoq sizga do'st,  
Bo'lsin endi Alloh sizga do'st,  
Sizlar uchun yig'lagim keldi.

Yo'l kutadi har kun onangiz,  
Ko'z yoshlari daryo bolangiz,  
Dilni ezar tavba, nolangiz,  
Sizlar uchun yig'lagim keldi.

Tabassumga begona yuzlar,  
Tabassum-chun tug'ilgan sizlar,  
Siz yo'qotgan baxt qayda bo'zlar,  
Sizlar uchun yig'lagim keldi.

Bolishimga demang g'am botar,  
Qaro kundan keyin tong otar,  
Ko'r hassasin bir bor yo'qotar,  
Sizlar uchun yig'lagim keldi.



## SHUKRONA

Mehr otlig' maysaning yuzin ochdi ko'klamoy,  
Gul bo'lsin deb kurtaklar ko'zin ochdi ko'klamoy,  
Boshimizdan bulbulning so'zin sochdi ko'klamoy,  
Dillarning xush duoga to'lganiga shukrona,  
Bizlar yetgan ko'klamning kelganiga shukrona.

Sizib chiqar ko'zlardan to'kilmagan tuyg'ular,  
Erib ketgan qor kabi qochib ketdi qayg'ular,  
Diydalardan dur to'kib xush keldingiz kulgular,  
Sabolarning soz chalib yelganiga shukrona,  
Bizlar yetgan ko'klamning kelganiga shukrona.

Oy ekan, oftob ekan osmonning ishongani,  
Dunyoga kelsang arzir bir gulni tushungani,  
Boychechak kulgusiga bir nafas boylang mani,  
Hovuchlarim yomg'irga to'lganiga shukrona,  
Bizlar yetgan ko'klamning kelganiga shukrona.

O'tgan kuning ketgan qush, qanotini ko'rsatmas,  
Poyingdagi maysa ham faryodini ko'rsatmas.  
Qaldirg'ochlar hech qachon hech kimsani qaqshatmas,  
Ayvonlaring shu qushga to'lganiga shukrona,  
Bizlar yetgan ko'klamning kelganiga shukrona.

Qutlug' kunning qadrini qutlaganlar bilgaylar,  
Bir miskinning bag'rini butlaganlar bilgaylar,  
Ko'klam yuzin ko'rganlar kurtaklardek kulgaylar,  
Toleimiz hur elda kulganiga shukrona,  
Bizlar yetgan ko'klamning kelganiga shukrona.



**FIKRI OJIZ**

Kim tikonni talashur,  
Suyak itga yarashur.  
Fikri ojiz dunyoda  
Boshi yo'qlar bosh qashur.

Biz nimadan to'yganmiz,  
Bizlar kimdan kuyganmiz?  
Suv ko'rmayin gohida,  
Etik yechib qo'yganmiz.

Osmon yerga tushmaydi,  
Yer osmonga chiqmaydi.  
Aro yo'lda yurganlar,  
Haqiqatni uqmaydi.

Qoshing qaro o'zingga,  
So'zing qaro yuzingga.  
Baxtdan betob yotganda,  
Kimlar boqqan ko'zingga?

To hayotmiz, yo'lchimiz,  
Terin shilsa ko'nchimiz.  
Tirigida tikon-u,  
Qabristonda gulchimiz.

Aytaversak armon ko'p,  
Armonlardan tolg'on ko'p.  
El ko'targan elakdan,  
So'zi tushib qolg'on ko'p.



**IFTIXOR**

Adolatning tug'i osmon tanlamaydi,  
Ko'hna dunyo ulug'larin yodlab yashar.  
Yetti asr ne bo'libdi, Temur bobo,  
Yaxshi odam o'lmay turib mingdan oshar.

Odam yashar, olam yashar, yashaydi u,  
Ruhi yayrab duolarning parvozida.  
Tangri tutgan tulporida turibsiz-ku,  
Ona yurtim, ko'hna Shoshning e'zozida.

Ko'ngil o'lchar sadoqatning salmog'ini,  
Bibixonim ruhlari ham bedor bu kun.  
Gul qildingiz Turkistonning tuprog'ini,  
Nomingiz ham mardlar uchun mador bu kun.

Ko'hna Keshning osmoniga chiqqan oydan,  
Necha asr tunlarining yuzi yorug'.  
Oq tilaklar qanot qoqqan Oqsaroydan,  
Olam uzra Temur nomi solib dovrug'.

Odamzodni adolati ulug'laydi,  
Poyingizda turibman-u, boshim osmon.  
Bu dunyoning beklariga bo'y bermaydi,  
Sizdek ulug' farzandi bor O'zbekiston.



**YASHASH SHIRIN**

Yashash qiyin, do'sting kulib  
Yoving yog'in yalab tursa.  
Yotlar emas, tug'ishganlar  
Yetti pushting talab tursa.

Yashash qiyin, it itligin  
Dasta gulga o'rab tursa.  
Tongda eshik ochgan qo'shning  
Qoqilishing so'rab tursa.

Yashash shirin, bir g'unchaning  
Gul bo'lganin ko'rib tursang.  
Olomonga insof berib,  
El bo'lganin ko'rib tursang.

Yashash shirin, bir bemorga  
Doridan xush darmon bo'lsang.  
Baxtdan to'ygan baxtiyorga,  
Oldda turgan armon bo'lsang.

Yashash yaxshi, boshing yetmay  
Tuproq tutgan bolishlarga,  
Nuqta qo'yib ulgurolsang,  
Bu dunyodan nolishlarga.





## OCHILGAN KO'ZLAR

Shunchaki yozgim yo'q qog'oz qoralab,  
Yurakni tars yorib chiqar bu so'zlar.  
Men ko'rdim, borursiz gulzor oralab,  
Sizni sog'ingandim, ochilgan ko'zlar.

Qon qaqshab poygakda jon berdi yolg'on,  
Tavbaga tiz cho'kdi titragan tizlar.  
Yuzlaring shunchalar yorug'mi, iymon,  
Sizni sog'ingandim, ochilgan ko'zlar.

Oftobdan dog' izlab ovvora bo'lgan,  
Oftobga qarolmay uyalgan yuzlar.  
Hechdan ko'ra kech jiqqa yoshga to'lgan,  
Sizni sog'ingandim, ochilgan ko'zlar.

Baxtsiz bo'lay demas dunyoda hech kas,  
So'nggi nafasda saodat izlar.  
Eng avval o'zini taniy olsa bas,  
So'nggi nafasida ochilgan ko'zlar.

Men sizni sog'indim, ochilgan ko'zlar...



**KETGANLARDAN  
SALOM YO'Q**

Bir yigit mehnati bor  
Chiroqning chiroyida.  
Quyosh kuldand qilmas or  
Sahroning saroyida.

Har ko'ngilning dunyosi  
Bu dunyodan topilmas.  
Savobingiz sabosi  
Ochgan eshik yopilmas.

Kutgan odam ko'ziga  
Gullar ekar, bilmaysiz.  
Shoir nondek so'ziga  
Yog' surtmasa kulmaysiz.

Achchiqni achchiq kesar,  
Shiringa shirin qayda?  
Gulnafas yellar esar  
Yaxshilar yurgan joyda.

Kelgan shoshmas ketishga,  
Demang bunda orom yo'q.  
Ming yil yetmas kutishga,  
Ketganlardan salom yo'q.



## AZIZ BO'LARMIDI

Joning chamanida guling so'lmasa,  
Gulyuz gulob quysa, joming to'lmasa,  
Keksaying kelmasa, ketging kelmasa,  
Aziz bo'larmidi dunyo bunchalar?

Umid ummonida kemang cho'kmasa,  
Quvonch qadah tutsa, anduh to'kmasa,  
Bir do'sti jonajon seni uqmasa,  
Aziz bo'larmidi dunyo bunchalar?

Mehringga tashnalar yo'ling kutmasa,  
Oqibat bolangga qondan o'tmasa,  
Qartaysang nabirang aso tutmasa,  
Aziz bo'larmidi dunyo bunchalar?

Ziynating ziyoda, xalqing duoda,  
Qo'llaring mehnatda, diling Xudoda,  
Yurmasang o'zingdan rozi, dunyoda,  
Aziz bo'larmidi dunyo bunchalar?



**MENDAN MENI SO'RAMA**

Men toshlarning tiliman,  
Men ko'ngilning guliman,  
Bu dunyoning giliman,  
Mendan meni so'rama.

Tillosi yo'q boy nadur,  
Egilmasa yoy nadur,  
Suv oqmasa soy nadur,  
Mendan meni so'rama.

Oftobga ergashmasang,  
Yer bilan yig'lashmasang,  
Tig' bilan tillashmasang,  
Mendan meni so'rama.

Sen yetmagan yo'ldaman,  
Suv kirmagan cho'ldaman,  
Bir maysaman, do'ldaman,  
Mendan meni so'rama.

Har daryoning boshi bor,  
Har ko'zning o'z yoshi bor,  
Ham tabibman, ham bemor,  
Mendan meni so'rama.

To'kilmasam, to'lmayman,  
Qor qo'ynida gullayman,  
Men shunchaki o'lmayman,  
Mendan meni so'rama.

Kundan tunni so'rama,  
Qo'rdan kulni so'rama,  
Mendan dunyo so'rayver,  
Mendan meni so'rama.

**YASHADINGMI O'ZING UCHUN?!**

Men tug'ildim, g'oz-g'oz yurdim,  
Jonimga tikding so'zimga uchun.  
Kech so'zlarim, ona, uzr,  
Yashadingmi o'zing uchun?!

Bulut ko'kda, suv soydadir,  
Qaro tunda ko'z oydadir,  
Jonimga onam, jon qaydadir,  
Yashadingmi o'zing uchun?!

Yuk ko'tarding yig'lamading,  
Jonimizni tig'lamading,  
O'tgan umring ilg'amading,  
Yashadingmi o'zing uchun?!

Bemehrmas farzand ahli,  
Kech kirarkan faqat aqli,  
Aytgin, ona, dilim dog'li,  
Yashadingmi o'zing uchun?!

Sochlaringning qori bilan,  
Jafoli jon zori bilan,  
Sen mamnunsan bori bilan,  
Yashadingmi o'zing uchun?!

Hechdan ko'ra kech bo'lsa ham,  
Armonlarga dil to'lsa ham,  
Yasha endi, jonimga onam,  
Qolgan umring o'zing uchun.



## TOLMASIN

Ayting, dunyo besh kunlikmi, o'n kunlik,  
Kimdir yupun, kimdir bo'ldi zar to'nlik,  
Bizdan ketgan sizga yetsa ne ajab,  
Yaxshilarga yarashmaydi dilxunlik.

Ko'zgularning ko'zi bo'lsak qaniydi,  
Xush ko'ngilning yuzi bo'lsak qaniydi,  
Men Xudoga yetarmanmi deguncha,  
Halol taom tuzi bo'lsak qaniydi.

Ulug'larning uvog'i ham tosh bosar,  
G'am odamning kiprigiga tosh osar,  
Xijolatning xiyoboni buncha tor,  
Nechun mening ko'zlarimni yosh bosar.

Ajab dunyo charxipalak charx ekan,  
Xudoyimdan qo'rqmagandan qo'rq ekan,  
Abadiyat ummonida suzar kim,  
Kim quvonchning qumg'onida g'arq ekan.

O'ylab topgan so'zing uvvos solmasin,  
Qariganda qo'lda yuking qolmasin,  
Yomonlar ham Yaratganning bandasi,  
Yaxshi odam yaxshilikdan tolmasin.



## QANDAY YASHAYSAN?

Ostona ortida ko'chalar xandon,  
Ostona ichini o'rtaydi armon,  
Nechun Xudodan ham qo'rqmaysan, yolg'on,  
Yaxshini yomonlab qanday yashaysan?

Ko'zlaring ko'rki-ku, ko'kargan maysa,  
Sen bulut bo'lasan oftob jilmaysa,  
Avval yer yayrarkan yaxshi ko'paysa,  
Yaxshini yomonlab qanday yashaysan?

Tog'larning toshini kim ado qilur,  
Ko'zlarning yoshini kim paydo qilur,  
Tuproqning tagida kim tillo qilur,  
Yaxshini yomonlab qanday yashaysan?

Oyog'ing ostida titragan xazon  
Yeldek o'tib ketgan umridan hayron,  
Aytgin, sen insofga kelasan qachon,  
Yaxshini yomonlab qanday yashaysan?

Toshdan yaralsa-da ko'krak qafasing,  
Qaytib chiqarasan olgan nafasing,  
Mahmud, dilda bo'lsa zarra havasing,  
Yaxshini yomonlab qanday yashaysan?



**MUKARRAM BO'LING***No'mon NASIMOVga*

Gul go'zal, ming turfa rangi bor uchun,  
Tun nurli, ortida tongi bor uchun,  
Vale odam aziz, ongi bor uchun,  
Iloho, aziz-u mukarram bo'ling!

Bir bora kelgaymiz dunyoi dunga,  
Tunni omon tuting quyoshli kunga,  
Alloh hamroh qilsin bag'ri butunga,  
Iloho, aziz-u mukarram bo'ling!

Baxt bog'da ko'karmas oqil bog'bonsiz,  
Taxt ko'kka bo'ylamas dono sarbonsiz,  
Har kun shukrin qiling tinchsiz, omonsiz,  
Iloho, aziz-u mukarram bo'ling!

Oftob ozoridan osmon o'kinmas,  
Jilg'a jamoliga toshlar to'kilmas,  
Dilda iymon ustun, qadding bukilmas,  
Iloho, aziz-u mukarram bo'ling!

Hasadgo'y har tunda yomon tush ko'rar,  
Saxiy dil tubida bir behisht ko'rar,  
Yo'qni yo'qlab turing, Tangri xush ko'rar,  
Iloho, aziz-u mukarram bo'ling!

O'ziga ishonmay yashash yolg'ondir,  
Quyoshga qo'l cho'zing, nuri narvondir,  
Xush niyat yor bo'lsa, dunyo omondir,  
Iloho, aziz-u mukarram bo'ling!





**YORISHGAN YO'L SO'RAYMAN**

Quvonchimning qatida ko'kargan gul istaram,  
Armonimning ortidan yig'lagan dil istaram.  
Dillar ichra bir kimsa yurmagan yo'l istaram,  
Ko'zni yumsam, ko'z ochgan dil so'rayman, Allohim,  
Yurgan sari yorishgan yo'l so'rayman, Allohim.

Sen deb yo'lga chiqqanni yo'lga tashlab ketmaysan,  
Yaxshilarni yantoqdek cho'lga tashlab ketmaysan,  
Sajdangda sarg'ayganga obi zam-zam tutgaysan,  
Ko'ngil bersang ko'kiga tog' bergaysan, Allohim,  
Jism bersang jonini sog' bergaysan, Allohim.

Bu dunyoning bag'rida qadam yetmas joylar ko'p,  
Umr bo'yi oh ursam nolam yetmas joylar ko'p,  
O'z dog'idan o'zlari or qilguvchi oylar ko'p,  
Oftobing alqaganga nur bergaysan, Allohim,  
Qalb tubiga kul bo'lmas qo'r bergaysan, Allohim!

Bu dunyoni bozor deb kelguvchi ham ko'p ekan,  
Bu dunyoni mozor deb o'lguvchi ham ko'p ekan,  
La ilaha illalloh, deya olsa xo'b ekan,  
Behishti muborakdan gul tilandim, Allohim,  
Qabrimga ham bir chindim nur tilandim, Allohim.



**JONIM ICHRA YASHAR YAXSHILAR**

Men orzuman armondan g'olib,  
Haqiqatman yolg'ondan g'olib,  
Men rost so'zni asrab yururman,  
Ko'zlarimning tubiga solib.

Tashakkurdan tomgan boldayin,  
Yonoqdagi yorug' xoldayin,  
Jonim ichra yashar yaxshilar,  
Yuragimning yodida qolib.

Kulib turgan boladay shirin,  
Uzilmagan loladay shirin,  
Kutsang bahor keladi albat,  
Har maysaga tumorlar olib.

Quvonch ham qayg'uga zormikin,  
Umrin uzun degan bormikin,  
Bilib-bilmay o'yga cho'murman,  
Tosh ketmasmi yashashdan tolib.

Bu olam hayronlig' bozori,  
Bu olam vayronlig' mozori,  
Bilolmayman, kelarmi Mahmud,  
Qiyomatda gunohdan g'olib.



## SENDAN YIROQDA

Bu dunyo tomidan tosh tashlamangiz,  
Yarashmasa yig'lab ko'z yoshlamangiz,  
Har ko'ngil ko'kida yulduz bor, oy bor,  
Chiqmagan quyoshga dil g'ashlamangiz.

Alloh yarlaqasa nazarda tutgay,  
Hasadchini eli hazarda tutgay,  
Baxt degan bir so'zning botmon yuki bor,  
Bemehr baxtni ham ozorda tutgay.

Oftob kerilmaydi, chiroq chirantar,  
G'aflat sarxush yursa, tuzoq chirantar,  
Olam tomoshasi tugamas sira,  
Yirtiq kiyim ko'rsa, quroq chirantar.

Uzilib ketmasa arqon ardoqda,  
Sog'inchning savlati mungli firoqda.  
Dunyo bevafo deb nolima, Mahmud,  
Sendan yaxshilar ko'p sendan yiroqda.



## OLSANG

*Nabiram Ilyosga*

Yaxshiman deyishdan hech qilmayman or,  
Beayb parvardigor, qusurlar ham yor.  
Shundan xijolatman, bir o'tinchim bor,  
Olsang, fazilatim olgin, bolajon.

Yo'l yursang yo'l ko'pdir, qo'l ursang yumush,  
To'rvasin to'ldirmas bu ko'hna turmush,  
Urushsang dunyoda shayton-la urush,  
Olsang, fazilatim olgin, bolajon.

Bu hayot har kuni to'rga chorlamas,  
O'zini bilganni mudom xorlamas,  
Odamlik sharafin oqlay bilsang bas,  
Olsang, fazilatim olgin, bolajon.

Ko'p gapdan ko'pirma, ozdan orlanma,  
Nafsing tig' tutsa ham yotga zorlanma,  
O'zgalar xatosin qilmayin ta'na,  
Olsang, fazilatim olgin, bolajon.

Boqiylik baxti bir Xudoga yordir,  
Boshdan baland sakrab ko'plar afgordir,  
Neniki tilasang Allohda bordir,  
Olsang, fazilatim olgin, bolajon.

Rost yashash dunyoda bo'lmagan oson,  
Ketguncha shoshadi bandasi hamon,  
Vale oxiratda o'tmaydi yolg'on,  
Olsang, fazilatim olgin, bolajon.



## OMADIN OLMA

Ko'ngilning tubini ko'zgu ko'rsatmas,  
Qizargan yigitni ko'zguga solma.  
Xudoyim, omad ber har bir yigitga,  
Otini olsang ham omadin olma.

Yayrasa yarashar yigit zotiga,  
Quvonch quvib yursin, duodan tolma.  
Tog'ni talqon qilsin elning korida,  
Sochlari oqarmay qomatin olma.

Muhabbat merosdir Odam Atodan,  
Momo Havolarim qayg'uga solma.  
Sevilib yashasin, sevib yashasin,  
Jonini olsang ham jononin olma.

Har farzand umrning uzun yo'lidir,  
O'zbekim beshigi sira bo'sh qolma.  
Yigit tizzasida o'g'li o'tirsin,  
Elga mardlar kerak, polvonin olma.

Allohim, ko'zini to'q qil yigitning,  
Bir nafsi yo'lida yuz ko'yga solma,  
Berguvchi o'zingsan, olguvchi o'zing,  
Orini olmagin, omadin olma.



**ZORIM BOR**

Kelsam, ket demas dunyo,  
Ketsam, kel demas dunyo.  
Xayyomdek hayron o'ldim,  
To'rga o't demas dunyo.

Dil qani, dildosh qani,  
Sir qani, sirdosh qani,  
Ay dunyo, bozoringda  
Sotur banda bandani.

Tarozing, toshing ko'pdir,  
Ko'zingda yoshing ko'pdir,  
Bechora qo'l cho'zganda  
Pishmagan oshing ko'pdir.

Qaynamas qumg'on o'zing,  
Ushalmas armon o'zing,  
Cho'p tushib charchamadi,  
Ochilmas ikki ko'zing.

Nolisam nodon dema,  
Shoirim shodon dema.  
Mehmoning g'amnok bo'lsa,  
O'zingni mezbon dema.

Til berding, so'zlaydirman,  
Dil berding, bo'zlaydirman.  
Haq meni bandam degan,  
Haqqimni izlaydirman.

Kuydim, kuymading, dunyo,  
Kuldim, kulmading, dunyo.  
Zorim bor, zo'rim yo'qdur,  
Do'stim bo'lmading, dunyo.



## BULBUL

She'rga o'xshash sadodan qo'rqdim,  
Garchi qo'rqsam Xudodan qo'rqdim.

Yozmay turib yondi so'zlarim,  
Sukut ichra qancha bo'zladim.

Yuraginga sanchdim qalamni,  
Men bag'ringa bosdim alamni.

It itligin qilarkan har vaqt,  
Men itlardan tilanmadim baxt.

Garchi olis oftobga boqdim,  
Ko'ngil otlig' daryoda oqdim.

Qarg'alarga qo'shsa ham taqdir,  
Bulbul bo'lib yashamoq baxtdir.

## BIZ

Biz g'aflat bog'idan xazon supurdik,  
Ochilmayin so'lgan ishqning barglari.  
Yerga yarashmagan supurgi yig'lar,  
Kipriklarni egar hasrat gardlari.

Biz ko'ngil ko'zidan chimdim nur so'rdik,  
Yurakning tubidan bo'yladi zorlar.  
Talab qirg'og'idan turib hayqirdik,  
Aql arqoniga osildi orlar.

Biz ishqqa ilashma dedik beparvo,  
Jonga pichoq soldi shu on bir chaqmoq.  
Bir so'zlab o'n bora adashgan qulmiz,  
O'zingdan begona qilmagin, Alloh!



**KO'RGAN YAXSHI**

Bugun yolg'on bozorlarin berk ko'rdim,  
Xiyonatning ozorlarin tek ko'rdim,  
Haqiqatning yuzlarida ko'rk ko'rdim,  
Eshitgandan ko'rgan yaxshi deganlar.

Tunning tongdan qochganini ko'rdim men,  
Oftob yuzin ochganini ko'rdim men,  
Shabnam shodlik sochganini ko'rdim men,  
Eshitgandan ko'rgan yaxshi deganlar.

Bu dunyoda ko'rgan daming dam ekan,  
Oh, quvonchni quvib yurgan g'am ekan,  
Manov gulni, bu yantoqni kim ekkan,  
Eshitgandan ko'rgan yaxshi deganlar.

Ostonasi tillo uyda tosh ko'pmi,  
O'ksik dilda, g'arib ko'zda yosh ko'pmi,  
Ko'zlaringga kim solmoqchi, ayt, cho'pni,  
Eshitgandan ko'rgan yaxshi deganlar.

Orzu to'la osmoni bor qo'l yetmas,  
U bir dilbar — ming yil yursang dil yetmas,  
Agar sening joning bo'lsa o'q o'tmas,  
Eshitgandan ko'rgan yaxshi deganlar.

To'rt unsurdir, to'rt fasldir bu olam,  
Bir ko'rgani kelar asli har odam,  
Yo'l bersangiz ko'rib ketsin Mahmud ham,  
Eshitgandan ko'rgan yaxshi deganlar.





**BOLALIK**

Sen qaydasan, joning omonmi,  
Poyingda yer, boshda osmonmi,  
Qaytmasliging aytgin, yolg'onmi,  
Meni tashlab ketgan bolalik.

Ko'kragimda ko'kargan lolam,  
Kiprigimga tosh osgan jolam,  
Oppoq gulim, ay shirin nolam,  
Meni tashlab ketgan bolalik.

Yuzi oftob, ko'zi munchog'im,  
Jonimdagi mendan yirog'im,  
Qaylardasan xush ovunchog'im,  
Meni tashlab ketgan bolalik.

Qirga chiqsak qirlar xush-xandon,  
Ko'kka boqsak kulardi osmon,  
Bugun dilda ulg'ayar armon,  
Meni tashlab ketgan bolalik.

Sen ko'rgandek kengmas bu dunyo,  
O, barchaga tengmas bu dunyo,  
Kimdan meros qabohat, riyo,  
Meni tashlab ketgan bolalik.

Ertaklarda elangan jonim,  
Mardga madad tilangan jonim,  
Tovonimdan olgan tikonim,  
Meni tashlab ketgan bolalik.

Ortga boqmay ketgan irmog'im,  
Ey yodimda yongan chirog'im,  
Sog'inchlardan kuyar qarog'im,  
Meni tashlab ketgan bolalik.



**YAYRASANG QANI**

Kiyimga yarashmas yamoq bo'ladi,  
Yomon so'z ko'rinmas to'qmoq bo'ladi,  
Ko'klamning kulgusi chaqmoq bo'ladi,  
Sayrasang bulbuldek sayrasang qani,  
Yoshingga yarashsa yayrasang qani.

Chumoli chumchuqni quvib yetmagan,  
Hasad sahrosidan daryo o'tmagan,  
Ayt, kimning baridan armon tutmagan,  
Noshud qandoq minsin uchqur samanni,  
Yoshingga yarashsa yayrasang qani.

Dard turtib turmasa jonligi yolg'on,  
Qush qaytib kelmasa donligi yolg'on,  
Bizni sog'inganlar bo'lsinlar omon,  
Baxtning bozoridan izlamang mani,  
Yoshingga yarashsa yayrasang qani.

Yulduz yuzidagi dog'i ko'rinmas,  
Axtarma, oshiqning sog'i ko'rinmas,  
Bemorning hech vaqti chog'i ko'rinmas,  
O'zi kuyganmikan kuydirgan sani,  
Yoshingga yarashsa yayrasang qani.

Orzu arimaydi degan ko'p ekan,  
Ko'ngil qarimaydi degan ko'p ekan,  
Nafsidan nadomat yegan ko'p ekan,  
Mahmud, she'rdan ulug' insonning sha'ni,  
Yoshingga yarashsa yayrasang qani.



**BULBUL BO'LSANG**

Osmon uzoq, yer qattiq,  
Aro yo'lda nima bor?  
Tundan tongga yetguncha,  
Qaro yo'lda nima bor?

Ko'ksi to'la yulduzi,  
Kerilmaydi bu osmon.  
Yuz yil yig'lab yo'qlasang,  
Egilmaydi bu osmon.

Dunyo to'la sir ekan,  
Yechilmagan tugun ko'p.  
Yashab turgan odamga,  
Erta-indin, bugun ko'p.

Hiringlaydi xazonlar,  
Tegib ko'klam joniga.  
Tosh otishar tortinmay,  
Maysalarning shoniga.

Mashhurlarga, o'g'lim, hech,  
Bo'laverma havasda.  
Bulbul bo'lsang qishda ham,  
Kuylatarkan qafasda.



## RIYOKORGA

Siz yolg'onning yuziga yog'lar surtib so'zlaysiz,  
Rostni qonlar qaqshatib tikon tuzda tuzlaysiz,  
Tobut bilan kursining egasi yo'q dunyoda,  
El tegsa kursingizga bechoradek bo'zlaysiz.

Uyalishni o'rganish yaxshilarning merosi,  
Ohimni qandoq tortsin toshsiz qolgan tarozi,  
Kerilganda kekirib yurganlarning yonida,  
Kun ko'rmasa ne ajab ojizlar qilgan orzu.

Bu osmonning narvoni Yaratganning qo'lida,  
Nolalar ummoni bor majnunlarning cho'lida,  
Oqayotgan daryoning to'g'onin holiga voy,  
It hamisha hurgaydir zo'r karvonlar yo'lida.

Sizga yolg'on yarashar, tilingiz o'zingizda,  
Insofning uvog'i yo'q vale bir so'zingizda,  
Shunday yashab ham balki yuz yil umr ko'rarsiz,  
Lek qarg'ishlar qumg'oni qaynagay izingizda.



**SIZGA BARIBIRMI?**

Azizim, bag'rimni tig'laydi sog'inch,  
Men kimga to'kilay limmo-lim to'lsam.  
Jonimda charx urar ushalmas ilinj,  
Sizga baribirmi, yig'lasam, kulsam.

Hovuchim hapqirar quvonch yosh to'ksa,  
Ne qilay qarshimda anduh tiz cho'ksa,  
Alam qilar ekan do'stdan o'q tegsa,  
Sizga baribirmi, yig'lasam, kulsam.

Bo'yladim, bo'yladim dorga yetmadim,  
Qatorda kerilgan norga yetmadim,  
O'z ko'nglimdan bo'lak zorga yetmadim,  
Sizga baribirmi, yig'lasam, kulsam.

Toshlarni chiritib bo'lmas ekan-ku,  
Oy dog'in aritib bo'lmas ekan-ku,  
Quyoshni qaritib bo'lmas ekan-ku,  
Sizga baribirmi, yig'lasam, kulsam.

Omonat dunyoga g'animat mehmon,  
Men chindan so'rasam egilgay osmon,  
Oy o'tar, yil o'tar, ey do'sti nodon,  
Sizga baribirmi, yig'lasam, kulsam.



## QUYOSH DUOSI

Yomon so'zlar dilga yomon botgancha bor,  
Dil og'risa ko'ngillar muz qotgancha bor,  
Xush niyatga darvozingiz ochiq tursin,  
Kutilgan tong biram yorug' otgancha bor.

Bahor kutgan qish qo'ynida gullab yashar,  
Kurtaklarga guldan umr tilab yashar,  
Yaxshi odam yaxshilikdan toliqmaydi,  
Har maysani nigohida silab yashar.

Zulmat qochur tunda yoqqan bir sham bilan,  
Ko'klam ko'rki unga yetgan odam bilan.  
Suv so'rasang sen tog'larning umrin tila,  
Hovuch to'lmas tonglar tutgan shabnam bilan.

Bahor bog'in bag'ri kengdir olam qadar,  
Turfa gullar bir-biriga zer-u zabar,  
Ko'zlaringga sig'guncha ko'r ko'klam ko'rkin,  
Ikki dunyo musavviri Alloh chevar.

To'rt faslga darvozani ko'klam ochur,  
Ko'kdan ochur, guldan ochur, ko'rkam ochur,  
Har maysaning umrin tilab tiz cho'k, Mahmud,  
Ko'kda quyosh duosini nurdan sochur.



## HAYRONLIG‘

Biz ko‘rgan teraklar bargin to‘kibdi,  
Ildizlar titrashib dardin to‘kibdi.  
Kuzakning hayronlig‘ bog‘ida, ey voh,  
Xazonlar Xudoga tizlar cho‘kibdi.

Kelganlar ketishin xasdan so‘ranglar,  
Tog‘larning cho‘kishin pastdan so‘ranglar,  
Ko‘ngilni osmonda ko‘rmoq bo‘lsangiz,  
Duoga ochilgan dastdan so‘ranglar.

Kim dunyo tomiga narvon qo‘yibdi,  
Qo‘l yetmas mulk narxin arzon qo‘yibdi.  
Yig‘lashni bilmagan kulib yolchitmas,  
Zog‘ qahri bulbulni tig‘siz so‘yibdi.

Gul quchgan g‘unchalar baxtga payvasta,  
Kesilgan terakning ildizi xasta.  
To‘nkaning boshida gar bolta hokim,  
Jallodning qo‘lida bolta shikasta.

Kim gulzor oralab goh cho‘lga o‘tar,  
O‘ngdan yurolmagan naqd so‘lga o‘tar.  
Armon osmonidan yerga tush, Mahmud,  
Bu dunyo u qo‘ldan bu qo‘lga o‘tar.



## ZOMIN YOSHLARI

Har ko'ngil bir daryo, oqmoq istasa,  
Har dilda bir cho'g' bor, yoqmoq istasa,  
Istasa, she'r otliq chaqmoq istasa,  
Dilbar dil ahlining biz dildoshlari,  
Xush ko'rdik, xush ko'rdik, Zomin yoshlari.

Nima bor demangiz Zomin tog'ida,  
Poklik qaynab yotur har bulog'ida,  
Quyosh qalam yo'nar oy o'rog'ida,  
She'r bitsa daftardir hatto toshlari,  
Qalam qo'lingizda, Zomin yoshlari.

Majnuntol tagida Mirtemir guvoh,  
Ba'zan she'r bo'larkan bittagina oh,  
Abdulla Orifning izida irmoq,  
Sog'-u omon bo'lsin oltin boshlari,  
Vatan chirog'idir Zomin yoshlari.

Oy dog'in terarlar oydin tunlari,  
Zulfiya momoning oppoq gullari,  
Ey nazm bog'ining xush bulbullari,  
Hamid Olimjonning dil quyoshlari,  
Quvonch qo'ng'irog'i Zomin yoshlari.

Har kim ho'plolmagay ko'ngil chashmasin,  
Shunday she'r o'qingki, toshlar gullasin,  
Muhammad Yusufning ruhi qo'llasin,  
O'zbekiy rangdadir ko'z-u qoshlari,  
Zomin yoshlari bu, Zomin yoshlari!





**SABR**

Bo'g'zimga tiqilgan ul toshlarni yutolmadim,  
Ko'zimga sig'magan ul yoshlarni yutolmadim,  
Minnatga damlangan ul oshlarni yutolmadim,  
Demangiz, men o'zimga bilib jabr tiladim,  
Tilasam gar Allohdan faqat sabr tiladim.

Tuhmatchining tilagin tarozi tortmas ekan,  
Oriyat osmonining quyoshi botmas ekan,  
Qadrini qalqon bilgan poygakda yotmas ekan,  
Bandaman, goh-gohida manam nadir tiladim,  
Tilagimning so'ngida qo'rqdim, sabr tiladim.

Gul istab gulzor ichra tikonni tilab oldim,  
Nafsimning nadomatin gohida kuyga soldim,  
Ko'z nechun to'ydim demas, qandayin ko'ygga qoldim,  
Ko'nglimning osmoniga nahot abr tiladim,  
Tongda uyaldim nurdan, yana sabr tiladim.

Nafsining quli bo'ldi qilganda ilk bor xato,  
Jannatning chamanidan quvildi Odam Ato,  
Bu qanday dard erurki, bandasi topmas davo,  
Demagin, qodir Egam, sendan qahr tiladim,  
Ojizman ostonangda, qulman, sabr tiladim.

Shaytoni lain qonda jilmayadi aldamchi,  
Muhammad Mustafodek kim solur unga qamchi,  
Joynamoz jamolida ko'z yoshim tomchi-tomchi,  
Mahmud oshiqi dilga savti sadr tiladim,  
Umri jonga baraka, Haqdan sabr tiladim.



**O'ZBEKISTON G'ALLASI**

G'allang bo'lsa qo'shig'in avval onang aytarkan,  
Issiq nonning isidan sarxush bolang aytarkan.  
Quvonch quchsa ko'zingni oqqan jolang aytarkan,  
Dehqon uchun bu damlar umrining xush pallasi,  
Kaftidagi duridir O'zbekiston g'allasi.

Xudo bersa xirmonga doning sig'may qolarkan,  
Dasturxonga qut to'ksa, noning sig'may qolarkan,  
Haq qo'llasa dunyoga shoning sig'may qolarkan,  
Bug'doydayin boshog'lar dilda dehqon yallasi,  
Qo'shiqlarga qo'r berar O'zbekiston g'allasi.

Cherta bilsang ko'ngilning toriga nima yetsin,  
Ahdiga vafolining origa nima yetsin,  
Mayli oq non, qora non, boriga nima yetsin,  
Qurir hatto qushning ham saratonda sillasi,  
Dehqoniga darmondir O'zbekiston g'allasi.

Un elaydi onalar oq tilakdek ulg'ayib,  
Kelinchaklar non uzar, non isiga yuz chayib,  
Boshdagi boqiy baxtdek quyosh turar jilmayib,  
Har boshog' hur elimning yerda kulgan tillasi,  
Tillodan xush tovlanar O'zbekiston g'allasi.



## CHECHA

*(Xalq ohangida)*

Checha, checha, checha-yov,  
Ne bo'lar bu kecha-yov?

Chimildiqqa chorlaysiz,  
Tabassumdan porlaysiz.

Kelin nega suzilar,  
Mening ichim uzilar.

Yuragimda ot chopar,  
Qochib ketsa kim topar?

Checha, checha, checha-yov,  
Ne bo'lar bu kecha-yov?

Buncha xandon otasiz,  
Dilga toshdek botasiz.

Yo'limdan nari qoching,  
Kelin yuzin sal oching.

Yuzi oydekkinami,  
So'zi moydekkinami?

Checha, checha, checha-yov,  
Ne bo'lar bu kecha-yov?

Quvonchim quvib kelar,  
Jismimda chaqmoq yelar.

Yostig'im yonsa kerak,  
Vah, kimga olov kerak.

So'zimga sig'may qoldim,  
O'zimga sig'may qoldim.

Checha, checha, checha-yov,  
Ne bo'lar bu kecha-yov?

Xudoyimga shukrim bor,  
Bo'ldi menga o'zi yor.

Qo'ynimdagi dildorim,  
Qaytib ketmas bahorim.

Qulog'iga shivirlay,  
Jonida bir jimirlay.

Checha, checha, checha-yov,  
Ne bo'lar bu kecha-yov?

### MENING ORZULARIM

Oyning o'rog'iga osilgan ilinj,  
Tonggacha talpindim, qo'lim yetmadi.  
Quyosh qo'rg'onida yuz ochgan sevinch,  
Kun bo'yi yo'l yurdim, yo'lim yetmadi.

Mening orzularim — mening armonim,  
Yetdim deganimda yetmish yil nari.  
Mening orzularim — shirin yolg'onim,  
Siz qayga borursiz mendan ilgari.

Mening orzularim — oppoq qushlarim,  
Baxtning osmonida begonangizman.  
Bir kun o'ngdan kelur yorug' tushlarim,  
Bugun-chi, shoiri devonangizman.



## ISM

*„Mening ismim she'rga yarashmaydi“,  
dedi o'ksinib Jumagul otli ayol.*

Mayli, alam qilsin, mayli kulsinlar,  
Ular avval sizdek go'zal bo'lsinlar.  
Quyoshdek quvonib, oydek to'lsinlar.  
Men dil bog'ingizga kirmagan bulbul,  
Ay, jonim Jumagul, jonim Jumagul.

Sochingiz sabosi sarxush qilibdur,  
Nozli nigohingiz bexush qilibdur.  
Sizni ko'rgan kunlar bir tush bo'libdur.  
Izingizni izlab yurguvchi men qul,  
Ay, jonim Jumagul, jonim Jumagul.

Sizni suq ko'zlardan berkitib bo'lmas,  
Rashk degan baloni rad etib bo'lmas.  
Sizga ko'z bilan ham gul tutib bo'lmas,  
Siz guldandan go'zalroq ko'nglimdagi gul,  
Ay, jonim Jumagul, jonim Jumagul.

Sog'insak qaqshaydi ikki ko'zimiz,  
Yo'llarin yo'qotgan oshiq o'zimiz.  
Sizga yetarmikan bizning bo'zimiz,  
Mahmuddek Majnunni unutmang butkul,  
Ay, jonim Jumagul, jonim Jumagul.



**QAYNONA***(Hazil)*

Bu qo'shiqda hazil bor,  
Qizlar yetar manzil bor.  
Jindek zil ham yo'q emas,  
Har kimda ham ko'ngil bor.

Yot uyda yetimdayin,  
Hayotin boshlar kelin.  
Qaynona yomon bo'lsa,  
Ko'zlarin yoshlar kelin.

Oylar o'tar, yil o'tar,  
Kelin birdan o't olmas.  
Qaynonasin qahriga,  
Kun keladi chidolmas.

Boshlanar gap otishlar,  
Boshlanar gap sotishlar.  
O'rtada sarson kuyov,  
Tonggacha ters yotishlar.

Qaynonajon, qaynona,  
Kelin sizga parvona.  
Gar siz qovoq uysangiz,  
Yetti olam vayrona.

Kelin ham bir onaning,  
Jondan chiqqan chashmasi.  
O'ng ko'z bilan qarang siz,  
Yomon emas hammasi.

Hoy kelinchak, kelinchak,  
Jilmayib ko'ring jindak.  
Qaynona ham tosh emas,  
Ikkingizga jon kerak.

Qaynonajon, qaynona,  
Kelin sizga parvona.  
Gar siz qovoq uysangiz,  
Yetti olam vayrona.

### BEFARQLARDAN QO'RQ

Agar qo'rsang dushmandan qo'rqma,  
Dushmanligi o'zingga ayon.  
Har kovakka qo'lingni suqma,  
Paytin topsa chaqadi chayon.

Do'stlardan ham qo'rqmoq bekordir,  
Tubanlikka bormaydi axir.  
Do'stlarning ham turfasi bordir,  
Nari borsa bo'ladi baxil.

Agar qo'rsang befarqlardan qo'rq,  
Loqayd, beg'am, tomoshatalab.  
Dunyoni suv bossa sukutda,  
O't ketsa ham turgaydir qarab.



## ONA

Bu dunyoning bozorida baxt bormi,  
Xudoyimdan tilaganing naqd bormi,  
Oyog'ingga boshim qo'ysam dil osmon,  
Ona, sening tovoningda taxt bormi?

Tulporlarga tushov uyat, tushov or,  
Bedorlarning bolishida hikmat bor,  
Ming dodimda bir ohingning gardi yo'q,  
Ona, sening olqishingda oyat bor.

Osmon uzoq, yer qattiq deb ko'p aytding,  
Yo'llar kutib darvozaga dard aytding,  
Ona, yuzing tabassumlar talahsin,  
Ajinlaring chehrangdagi shoh bayting.

Onasini bevaqt bergan baxtsiz ko'p,  
Oh, onasiz taxtda turgan taxtsiz ko'p,  
Otang ketsa darding to'ksang onang bor,  
Onang ketsa chiqmas ekan ko'zdan cho'p.

Orom so'zin osmoni ham onadir,  
Qadr so'zin qo'rg'oni ham onadir,  
She'ringni qo'y, Mahmud, onang ko'nglin top,  
Jannatlarning posboni ham onadir.





**BILMASANG**

Hammasi o'tkinchi, xo'sh, nima o'tmas,  
Bu dunyoda ayt, qo'ldan nima ketmas,  
Nimani ko'z ko'rib va yo qo'l tutmas,  
Gar bilsang tortinma, aytaver, shoir.

Tog'larning bo'yiga bo'y qo'shguvchi kim,  
Oqilning o'yiga o'y qo'shguvchi kim,  
Savollar ko'p vale, javoblari jim,  
Gar bilsang tortinma, aytaver, shoir.

Kichik tosh ulg'ayib katta bo'lurmi,  
Oyning yetoviga quyosh ko'nurmi,  
Bilmay yashasang ham ko'ngil to'lurmi,  
Gar bilsang tortinma, aytaver, shoir.

Ko'rganim qursin der ko'rmagan odam,  
Qandoq qaytar ekan kelmagan odam,  
Osmondan tusharmi, o'lmagan odam,  
Gar bilsang tortinma, aytaver, shoir.

Tilsimlar qoshidan qaytaver, shoir,  
Tushlaring suvlarga aytaver, shoir.  
Dunyo sirlarining tubin axtarma,  
Bilmasang bilganing aytaver, shoir.



**KO'P EKAN**

Quvonch qanot yozsa, osmon chorlaydi,  
Qayg'u ho'y ko'rsatsa, zamin zorlaydi,  
Xiyonat o'zidan qachon orlaydi,  
Bilganimdan bilmaganim ko'p ekan.

Shunchalar uzoqmi uyqusiz tunlar,  
O'ziga yetkazmay chopadi kunlar,  
Menga ho'y ko'rsating, bag'ri butunlar,  
Ko'rganimdan ko'rmaganim ko'p ekan.

Yer osti uzoqmi yo osmon yo'li,  
Qay biriga yetar bandasin qo'li,  
Sen qaydan yog'asan, tuhmatning do'li,  
Bilganimdan bilmaganim ko'p ekan.

Chayonni chiroyli demadi hech kim,  
Sarqitni xush ko'rib yemadi hech kim,  
Gul ko'rsa ko'zini yummasdi hech kim,  
Ko'rganimdan ko'rmaganim ko'p ekan.

She'r ichra topishmoq qidirganim yo'q,  
Ko'nglimning tubini sidirganim yo'q,  
Balki bilganimni bildirganim yo'q,  
Bilganimdan bilmaganim ko'p ekan.



*AIHA MUHARRIRI,  
QANDASIZ!*

*2006 – 2007- yillar*





## OTA UY

*Abdusalom DILKASHga*

Ota uyning fayzi bo'lak,  
Har qarichda nuri bor.  
Onang kutib olmasa ham,  
Duolarning duri bor.

Ota uyning fayzi bo'lak,  
Qadam bosib to'yaysan.  
Onang kutib olmas, ammo  
O'lganiga ko'naysan.

Ota uyning fayzi bo'lak,  
Otang kabi ulug' uy.  
Onang kutib olmasa ham,  
Vafolarga to'liq uy.

Ota uyning fayzi bo'lak,  
Guvalakdan qilma or.  
Onang kutib olmasa ham,  
O'g'il-qizing boshlab bor.

Ota uyning fayzi bo'lak,  
Bo'lmasa ham koshona.  
Onang kutib olmas, vale  
Ruhi bo'lar parvona.

Ota uyning fayzi bo'lak,  
Bolalikning tanchasi.  
Ota uyni qo'msar yurak,  
U qalbingning parchasi.



## SODDA HAQIQAT

### *Turkum*

Odamning yaxshisi sodda bo'ladi,  
Yaxshilar el ichra yodda bo'ladi,  
Yolg'onini yuz yil yo'rgaklagan ham  
Oqibat bir kuni dodda bo'ladi.

Sodda haqiqat bu, sodda haqiqat,  
Biz ketsak ham qolar yodda haqiqat,  
Sodda satriarga ko'zi tushgan, do'st,  
Omin de, qolmasin dodda haqiqat.

\* \* \*

Ko'nglimdan go'zal gul ko'zlamadim men,  
Ko'nglimdan baland tog' izlamadim men.  
Xudoga bir to'yib yig'lagim kelsa,  
Ko'nglimdan o'zgaga tizlamadim men.

Ohim ortmoqlagan bechora ko'nglim,  
Sabr sahrosida sadpora ko'nglim.  
Beri kel, deganda, nari ketguvchi,  
Ikki dunyo aro ovvora ko'nglim.

\* \* \*

Bemehrlar toshga o'xshaydi,  
Kurmagi bor oshga o'xshaydi.  
Men onamga qiyos axtarsam,  
Ko'zimdagi yoshga o'xshaydi.

Ko'zgu onam ko'zida ekan,  
Yog'du onam yuzida ekan.  
Men termulib, termulib bildim,  
Alloh onam o'zida ekan.

\* \* \*

Yetmishga chiqmoq ham oliy bir havas,  
Yetmish yil tekinga olursan nafas.  
Yetmishga har kimsa yetgaydir har xil,  
Shoirlar mehridan yasurlar qafas.

Izzati, ikromi joyida bo'lur,  
Olqishlar shodasi poyida bo'lur,  
Bitta to'g'ri so'zi yoqmay qolgan kun,  
Bechora qahrning yoyida bo'lur.

\* \* \*

Baxillar baxt izlab qayga borurlar,  
Zaminga sig'magach oyga borurlar.  
Oyning dog'i bilan chiqisholmagach,  
Oxiri tosh izlab soyga borurlar.

Toshning ko'zi toshga tushgani yomon,  
Toshlarning qanotsiz uchgani yomon.  
Baxillar bag'riga kirib qolgan zot,  
Iloho, iloho, chiqib ol, omon.

\* \* \*

Bir burda non so'rab kelganni ko'rdim,  
Bir qopda don so'rab kelganni ko'rdim.  
Tilansam Tangrimning qahri kelar deb,  
Ochlikni orom deb so'lganni ko'rdim.

Yo rabbim, oqilni ozorga qo'yding,  
Yuzsizni yayratib bozorga qo'yding.  
Tirigida joyi boshqa-boshqa-yu,  
O'lgach, ikkisin bir mozorga qo'yding.



**VATAN DIYDORI**

Qizg'aldoqning armonini qo'shiq qildim,  
Qaldirg'ochning oshyonini qo'shiq qildim.  
Bitta bargning uzilgani ming dard ekan,  
Men shu dardning darmonini qo'shiq qildim.

Yer sog'indi, ko'kdan tushing, burgutlarim,  
Maysalarning miroblari bulutlarim.  
Ko'z yoshimda ko'loplatib sug'orayin,  
Xazon bo'lmang, xayollardan unutlarim.

Olib keling oshiqning bemorini,  
Terib olsin rayhonlarning iforini.  
Sog'inganlar ko'rmanasin berib ko'rsin,  
Onamdek xush bu Vatanning diydorini.

Buloqlarim, yuzi tiniq ko'zgularim,  
Oppoq-oppoq gullayvering, orzularim.  
Men hurlikning mehrobiga tizlar cho'ksam,  
Oyatdayin oqar toza tuyg'ularim.

Men qadrning qalqonini qo'shiq qildim,  
El orini, el shonini qo'shiq qildim.  
Tinçlik tilab oy-quyoshi kulib tursin,  
Momo yerning osmonini qo'shiq qildim.





**NAVOIY NURI**

Qishning qabog'ida ko'klam ko'rindi,  
Kelmagan ko'klam ham ko'rkam ko'rindi.  
Hazrat Navoiyni bir yo'qlab erdim,  
Ko'z yumsam ko'nglimda olam ko'rindi.

Ko'rindi hikmatda yuz ochgan ko'ngil,  
Turkiyda benazir so'z ochgan ko'ngil.  
She'riyat samosin oftobi bo'lib,  
Jumlayi jahonga nur sochgan ko'ngil.

Ko'ngilki, daryosin toshqini tinmas,  
Besh asr naridan yolqini tinmas.  
Shoirki, elini yak qalam qilmish,  
Ming asr o'tsa ham qalami sinmas.

Insonlar ichinda inson bo'lmoq xush,  
Shoirilar ichinda sulton bo'lmoq xush.  
Umrida o'zbekni ko'rmaganlar ham  
Vale Navoiyni ko'rib yotar tush.

Satrlar sadosi samodan kelgan,  
Goh diydor, gohida vafodan kelgan.  
Shoirni jununvash deganlar bilmas,  
Haq so'z Navoiyga Xudodan kelgan.



## USTOZLAR

Aytsam, bahor yashar ekan kuz uchun,  
Yashayapsiz boldek shirin soʻz uchun,  
Navoiy ham otdan tushgan siz uchun,  
Millatimiz qarogʻisiz, ustozlar,  
Maʼrifatning chirogʻisiz, ustozlar.

Har bolaning kulgusidan yayragan,  
Hur bulbulsiz, oʻzbek boʻlib sayragan,  
Mehr — buloq qalbingizda qaynagan,  
Sadoqatning soʻrogʻisiz, ustozlar,  
Yaxshilikning yonogʻisiz, ustozlar.

Boʻz kiyib ham boʻzlamagan insonsiz,  
Naqshbandiy bogʻlariga bogʻbonsiz,  
Amir Temur taʼzim qilgan sarbonsiz,  
Ziyo mulkin bayrogʻisiz, ustozlar,  
Koʻngillarning ardogʻisiz, ustozlar.

Bir koʻzqusiz yuzlarida dogʻi yoʻq,  
Shogirdlarning sizdan yuksak togʻi yoʻq,  
Olov oʻchsa kelib sizdan soʻrar choʻgʻ,  
Tafakkurning oʻchogʻisiz, ustozlar,  
Qadr-u qimmat barmogʻisiz, ustozlar.

Onam bergan tilni burro qilgan zot,  
Vatan soʻzin dilga imlo qilgan zot,  
Avlodlarga jonin fido qilgan zot,  
Siz rost soʻzning salmogʻisiz, ustozlar.  
Siz oftobning quchogʻisiz, ustozlar.



## ELLIKQAL'A

*Ne'matilla XUDOYBERGANOVga*

Har qarich yerida bobolar xoki,  
Tiz cho'ksang so'kilar ko'ngilning choki,  
Ko'zimning qorasi, ko'zimning oqi,  
Tuproq'in tuz dema, tillodan sara,  
Bu Ellikqal'adir, bu Ellikqal'a.

Har bitta qal'asi hikmat mehrobi,  
Unda porlab yotar ruhlar oftobi,  
Vatanga muhabbat bitgan kitobi,  
Sen faqat ko'ngilning ko'ziman qara,  
Bu Ellikqal'adir, bu Ellikqal'a.

Bu ne xaroba deb qilmagin ta'na,  
Bu Tuproqqal'adir, bu Ayoqqal'a,  
Qirqqiz qal'asiga joning qil pana,  
Ham yana zulfini sen nurda tara,  
Bu Ellikqal'adir, bu Ellikqal'a.

Ta'rifi ming doston satriga sig'mas,  
Nasimi bahorning atriga sig'mas,  
Amuni ko'rmagan meni hech uqmas,  
Shunchaki maqtovdan baland ming karra,  
Bu Ellikqal'adir, bu Ellikqal'a.

Shimol shamolida „Bo'ston“ yaratgan,  
Demangiz jannatni oson yaratgan,  
Aslida bu xalqni armon yaratgan,  
Qo'lingdan kelsa gar kuniga yara,  
Bu Ellikqal'adir, bu Ellikqal'a.

Otajon hofizi shonini tikkan,  
Muhammad Yusuf ham jonini tikkan,  
Mehmoniga tuz-u nonini tutgan,  
Ulug' Qoraqalpoq ko'ziman qara,  
Bu Ellikqal'adir, bu Ellikqal'a.

**AYOL OMON BO'LSA DUNYO GO'ZALDIR**

Ayolsiz baxt so'zi tilda turmagay,  
Ayol oshiq ohi, bitmas g'azaldir.  
Ayolsiz gul rangi gulda turmagay,  
Ayol omon bo'lsa dunyo go'zaldir.

Chashmai hayot u jonlar jomida,  
Mehrini oyati bor xush kalomida,  
Novvot bor, navo bor uning komida,  
Ayol omon bo'lsa dunyo go'zaldir.

Ayol tig', toshlarni mumdek tilguvchi,  
Ayol nur, qalblarni yoqib kirguvchi,  
Quyoshga bas kelar bitta kulgichi,  
Ayol omon bo'lsa dunyo go'zaldir.

Ona u, bag'rida millat beshigi,  
Qalbida yopilmas qadr eshigi,  
Allasi oromdir — hayot qo'shig'i,  
Ayol omon bo'lsa dunyo go'zaldir.

Singilsiz akani sitamlar ezar,  
Opasiz ukani sog'inchi to'zar,  
Qizi yo'q otalar qidirmaslar zar,  
Ayol omon bo'lsa bu dunyo zardir.

Sevib, sevilguncha kim adashmaydi,  
Vafo bo'stonida ko'ngil yashnaydi,  
Yorsiz qo'llaringga gul yarashmaydi,  
Ayol omon bo'lsa dunyo go'zaldir.

Hayo sohilida majnuntollarsiz,  
Ko'nglimiz ko'kida xush xayollarsiz,  
Baxtimiz bekasi, siz — ayollarsiz,  
Ayol omon bo'lsa dunyo go'zaldir!



**HOFIZ***Otajon XUDOYSHUKUROV xotirasiga*

Amudaryo oqinini sog'inur,  
Qoraqalpoq chaqinini sog'inur,  
Yodi olov yolqinini sog'inur,  
Qaytmas bo'lib ketganmiding, Otajon,  
Aytmas bo'lib ketganmiding, Otajon.

„Segoh“ini sizlab aytgan hofizim,  
„Suvvora“sin bo'zlab aytgan hofizim,  
Tuprog'ida tizlab aytgan hofizim,  
Otashnafas, otashmiding, Otajon,  
Qo'sh sohilda yakkashmiding, Otajon.

Hojixonning duolari yor bo'lgan,  
Komiljonning dil to'rida bor bo'lgan,  
Tashrifiga turkiy ellar zor bo'lgan,  
Bir ko'rganga armon bo'lgan, Otajon,  
O'lgan demang, yolg'on o'lgan Otajon.

Maqomlarni maromiga yetkazgan,  
Tinglaganni oromiga yetkazgan,  
Sellar qilib baxt jomini tutqazgan,  
Ishq bog'ida bulbulzabon, Otajon,  
Kul qilguncha kuydirma jon, Otajon.

Bo'stoningda bosh qo'yganing noladir,  
Ellikqal'a elin ko'zi joladir,  
Bu ne qo'shiq, necha dillar voladir,  
Sog'inganlar ko'z yoshi sel, Otajon,  
Sen yo'qsan-ku, sen bilan el, Otajon.

Qo'shiq asli qo'ri bor bir navodir,  
El ichida jo'ri bor bir navodir,  
Noyob ovoz bu atoyi Xudodir,  
Xudo xushlab hofiz bo'lgan, Otajon,  
Kim aytadi, qandoq o'lgan Otajon!

**YONINGDA YURGANLAR**

Ko'ksingni ko'tarsang ko'rolmaganlar,  
Cho'ksang holingni bir so'rolmaganlar,  
Bir nafas tosh otmay turolmaganlar  
Yoningda yursalar yomon bo'larkan,  
Siyrat sil, suvrating somon bo'larkan.

Gul tutib xazonlig' istab turganlar,  
Yuzi yonib, dili tutab turganlar,  
G'arazin yashirib xandon urganlar  
Yoningda yursalar g'alat bo'larkan,  
Vijdoning oldida uyat bo'larkan.

Qadring qo'rg'onida davron surganlar,  
Mehring bulog'iga qonib yurganlar,  
Bir qadam o'tmayin tonib yurganlar,  
Yoningda yursalar qandoq bo'larkan,  
Bil, Mahmud, o'lguncha saboq bo'larkan.



## QUVONCH QO'NG'IROG'I

Quvonch qo'ng'irog'i tutdi samoni,  
Zarbi-la zabt etdi Ruslan dunyoni.  
Shodlik ko'z yoshlari shalola bo'lib,  
Shukriga sharaflar elim Xudoni.

Har kim asrolmagay ko'ngil gulini,  
Olam olqishlaydi o'zbek elini.  
Alpomish ruhi yor bo'ldi Ruslanga,  
„Dev“lar ham ko'tardi ikki qo'lini.

To'rt satr she'r bitmoq bu burchim, haqqim,  
Bir-biring qutlagin, e'zozla, xalqim.  
El ichra Ruslanlar omon bo'lsalar,  
Yotlarga bermaydi o'zbek o'z haqin.



**MA'RIFAT YOQQAN CHIROQ**

Dil tubiga nur sochur  
Ma'rifat yoqqan chiroq.  
Ko'ngil ko'zini ochur,  
Ma'rifat yoqqan chiroq.

Toshni titratdi oqin,  
Vah, keldi osmon yaqin.  
Jonimda chaqdi chaqin,  
Ma'rifat yoqqan chiroq.

Dillar diydor talabdir,  
Diydor dilga sharafdir,  
So'nish bilmas sadafdir,  
Ma'rifat yoqqan chiroq.

O'qigan, uqqan qani,  
Eling tanirmi sani,  
Har nurida ming ma'ni,  
Ma'rifat yoqqan chiroq.

Quyoshdek qatrasini dur,  
Tafakkur tig'ida gul,  
Shu gulni uzgan bulbul,  
Ma'rifat yoqqan chiroq.

Dil tubiga qo'l yetmas,  
Ming yil yursang yo'l yetmas,  
Agar qo'lingdan tutmas,  
Ma'rifat yoqqan chiroq.

Kim bilgan, kim bilmagan,  
Olamni olam qilgan,  
Odamni odam qilgan,  
Ma'rifat yoqqan chiroq.





## OLMA GULI

### *Xalq ohangida*

Olma guli gul ekan,  
Ko'ngil kimga qul ekan.  
Gul tanlamay sayragan,  
Bu qanday bulbul ekan.

Chaq-chaq urdik, chaq urdik,  
Sarpongizni taxt urdik.  
Xilvatda Xudoyimdan,  
Singil, sizga baxt so'rdik.

Oydin-oydin tunlar ko'p,  
Voy, yomg'irli kunlar ko'p.  
Ot minmagan yigitni  
Xushlamaydi qizlar ko'p.

Yigit bo'lsa dov bo'lsa,  
Ostida bedov bo'lsa.  
Baxt kulsa belbog'ida  
Ohida olov bo'lsa.

Chimildiqning chiroyi,  
Yanga qilar xirgoyi.  
Chimildiqqa yetolmay,  
Kuyov bola savdoyi.

Yovni yoqlab bo'lmaydi,  
Dilni dog'lab bo'lmaydi.  
Har qoqilgan qoziqqa  
Tulpor bog'lab bo'lmaydi.



**O'KINCH**

Ko'zga sig'may qolsa dildagi yoshlar,  
Boshga tegaversa tildagi toshlar,  
Muhabbat mozorida egilsa boshlar,  
Aytinglar, men qandoq sevib yashayin?

Mehrimni toshlarga to'shay boshlasam,  
O'zim ham bir toshga o'xshay boshlasam,  
Dunyoda yolg'ondan yashay boshlasam,  
Aytinglar, men qandoq sevib yashayin?

Osmon bir qadam deb o'ylagan paytim,  
Oftob bag'rimda deb kuylagan paytim,  
Bitilsa bo'Imasmi, mening bu baytim,  
Aytinglar, men qandoq sevib yashayin?

Qahraton qaqshatib berganda ozor,  
Kimni sog'intirmas kelmagan bahor,  
Xazongul isida xazon ohi bor,  
Aytinglar, men qandoq sevib yashayin?

Sevgini muqaddas bilganlar aytsin,  
Ishq jomida lim-lim to'lganlar aytsin,  
Yo'q-yo'q, mendek o'Imay, o'lganlar aytsin,  
Aytinglar, men qandoq sevib yashayin?

Chimdim oqibatda tog'dek tayanch bor,  
Yorga sadoqatda sirli suyanch bor,  
Har g'arib ko'ngilda, Mahmud, ayanch bor,  
Aytinglar, men qandoq sevib yashayin?



## DIYDOR

Yuragimdan sitamlarni sitib oldim,  
Men ko'nglimni osmonlardan tutib oldim,  
Qayg'ularning qafaslarin parchaladik,  
Men baxtimni ostonada kutib oldim.

Sochqi sochdim muhabbatning diydoriga,  
Yuzim bosdim sadoqatning ruxsoriga,  
Yorning oppoq kaftlaridan quvonch ichib,  
Birga kirdik oqibatning gulzoriga.

Baxtiyorlar bekatini balqitdik biz,  
Alam-alam, ag'yorlarni chalg'itdik biz,  
Ishq jomiga diydor otlig' gulob quyib,  
Jon jomini lazzatlarda qalqitdik biz.

Bu dunyoning shirin so'zi diydor ekan,  
Diydor ahli bu dunyoda bedor ekan,  
Ayo do'stlar, oshiqlarga tosh otmangiz,  
Sog'inganda Mahmud kabi bemor ekan.



**MUNAVVAR RANG**

Ranglar ichra munavvardir,  
Qutlug' bu rang, qutlug' bu rang.  
Ayo do'stim, muborakdir,  
Ochiq chehrang, ochiq chehrang!

Saloming sabosi xushdir,  
Sog'inchim sayroqi qushdir,  
Gul kabi ko'zimga tushdi,  
Ochiq chehrang, ochiq chehrang!

Ostonamni balqitgan oy,  
Quvonchimni qalqitgan soy,  
Bilsang, jism-u jonga chiroy,  
Ochiq chehrang, ochiq chehrang!

Menga baxtlar boqmish qiyo,  
Dil tubiga tushmish ziyo.  
Tabassumdan toshgan daryo,  
Ochiq chehrang, ochiq chehrang!

Men talabi diydor edim,  
Sog'inchlardan bemor edim,  
Bir xush so'zdan men bol yedim,  
Ochiq chehrang, ochiq chehrang!

Faqat Alloh chizolgan gul,  
Faqat Alloh uzolgan gul,  
Mahmudni ham aylar bulbul,  
Ochiq chehrang, ochiq chehrang!



## AY DUNYO...

Ay dunyo, tomoshang tugamas sira,  
Qozondek qorasan, guldek bokira.  
Ko'changdan o'tguvchi bir yo'lovchiman,  
Umringni tiladim, umrimni tila.

Ay daryo, qoshingda o'yg'a tolaman,  
Chanqadim, bir hovuch suving olaman.  
Demagin men abad mangu qolaman,  
Umringni tiladim, umrimni tila.

Ay tog'lar, toshlar ham mangu emasmish,  
Ajabki, hech jonzot toshni yemasmish.  
Lek qiyomat qahri bu tog' demasmish,  
Umringni tiladim, umrimni tila.

Ay osmon, yuzingda son mingta yulduz,  
Vale quyosh bilan bu olam kunduz,  
Kel, qaytar dunyoda sen ham qarzing uz,  
Umringni tiladim, umrimni tila.

Ay ko'nglim, ko'changga ko'p bora kirdim,  
Men sening yuzingdan hasad sidirdim.  
Men sening izingdan hikmat qidirdim,  
Umringni tiladim, umrimni tila.



**JAVOB**

Osmoningdan tush avval,  
Yolg'oningdan tush avval.  
Agar bug'doy bo'lsang sen,  
Somoningdan tush avval.

Ko'ngil degan keng bo'lsin,  
Gulga bulbul teng bo'lsin.  
Ikki jilg'a jilmayib,  
Qo'shilsa ko'ngil to'lsin.

May icharga jomi yo'q,  
Na Alif, na Lomi yo'q.  
Izhoril dil etarga  
Bir shirin kalomi yo'q.

Ifor rayhonda bo'lur,  
Oshiqlik qonda bo'lur.  
Qadringni qalqon qilsang  
Jonon ham jonda bo'lur.

Ko'rmaganning ko'rgani —  
Zog'ning bog'da turgani.  
Har yolg'onchi oshiqni  
Kaltak kerak urgani.

Yantoqni yoqmoq savob,  
To'nkani yormoq savob.  
Yuzta yolg'on savolga  
Bitta rost bo'lsin javob!



**AZIZIM**

Bu dunyoga, azizim, yig'lagani kelmadik,  
To'mtoq tig'da jonlarni tig'lagani kelmadik.  
Qultum suv, burda nonni beminnat topganlar ko'p,  
Bizga qayrilmas baxtni quvlagani kelmadik.

Borga boqqan bu dunyo, yo'qni yo'qlab qo'ymaydi,  
Yo'q sabrga to'yadi, bor to'qlikka to'ymaydi.  
Bir boshingga tekkani ming bitta tosh topilur,  
Ammo mehr bolishin har kimsa ham qo'ymaydi.

Qoqilmagan yigitga xari xasdek ko'rinur,  
Qo'li uzun odamga osmon pastdek ko'rinur.  
Vale bilmas poyida o'lgan qovog'arini  
Chumolijon iniga tashish uchun surinur.

Demang mening so'zimda shikoyat shamoli bor,  
Haqiqat xitobida tafakkur kamoli bor.  
Kim agar Haqni tanib ibodat qilar bo'lsa,  
Dilining tub-tubida Allohning jamoli bor.

Oqayotgan chashmaning oldida odam bo'lur,  
Chashma ko'zin yopsalar maysaga motam bo'lur.  
Har g'azalxon ko'ngliga bitta gul eksang, Mahmud,  
Qish qamchilab tursa ham dilingda ko'klam bo'lur.



**GULIM**

Ay gul, xush ko'rdim sani,  
Gulgun gulobing qani.  
Ishq xati isyon qilgan,  
Bulbul, kitobing qani?

G'unchasan xumor qilding,  
Shabnamni tumor qilding.  
Bir bevafo qo'lida  
O'zni buncha xor qilding.

To'kilgan barg to'zonmi,  
Borar yo'ling xazonmi.  
Bu dunyo bozorida,  
Gulim, narxing arzonmi?

Ranging buncha qon, gulim,  
Beray senga jon, gulim.  
Har kimda ham yo'q axir  
Insof-u iymon, gulim.

Har tong yig'lab ko'z ochgan,  
Iforin shamol sochgan.  
Gulim, qanday gul bo'lding,  
Jilmaysa quvonch qochgan.

Oftobga tosh otmaydi,  
Oftob yerga botmaydi,  
Gulni guldek asragan  
Armonda tosh qotmaydi.





**ELNING AYTGANI**

Gul uzdim, gulimni gʻanimlar oldi,  
Kutmagan mehmondek kelarkan alam.  
Quvonchim tosh qotib poygakda qoldi,  
Oʻlguncha oʻrganib yasharkan odam.

Dunyo tomoshaga qurilgan bozor,  
Kim shodlik sotadi, kimlardir ozor,  
Molin arzon sotgan dilda oʻkinch bor,  
Oʻlguncha oʻrganib yasharkan odam.

Muhtoj — burda nonga shukr qilgan qul,  
Bor odam xobda ham sanayverar pul.  
Ochkoʻz olganini boy berar butkul,  
Oʻlguncha oʻrganib yasharkan odam.

Omad oq ot minib qoshingga kelar,  
Saxiysan, duch kelgan oshingga kelar,  
Nomard qarzin qistab boshingga kelar,  
Oʻlguncha oʻrganib yasharkan odam.

Bilmay qolarkansan kuning bitganin,  
Tashbehi yoʻq demang Mahmud aytganin,  
Men takror ayturman elning aytganin,  
Oʻlguncha oʻrganib yasharkan odam.



**YIG'INI QO'Y**

Nechun qalam qoshlar yig'lar,  
Aying, qachon toshlar yig'lar.  
Yaxshi yig'lar yomon uchun,  
Oqil, oltin boshlar yig'lar.

Kutilmagan kulfat uchun,  
Hushyor yig'lar g'aflat uchun.  
Oshalmagan oshlar yig'lar  
Bitta nodon ulfat uchun.

Yulduz yonsa chiroq bo'lar,  
Oy egilsa o'roq bo'lar.  
Bevaqt o'lim bo'zlab kelsa,  
Bir umrlik firoq bo'lar.

Vatan yig'lar sotqin uchun,  
Qafas yig'lar tutqin uchun.  
O'rmon yig'lar uvvos solib,  
Nogoh tushgan uchqun uchun.

Dil yig'lasa to'lganimiz,  
Haqqa yaqin bo'lganimiz.  
Yig'ini qo'y, yetar, Mahmud,  
El yig'lasa o'lganimiz.



**OLTIN YOSH***Yodgor SA'DIYEVga*

Har kim xush so'z aytar do'st-u yor uchun,  
Kimdir tilak qilar nomus-or uchun.  
Mening ham to'rt misra she'r aytgim keldi,  
San'at sahnasida Yodgor bor uchun.

Baxt tilab bozorga bormaydi oqil,  
San'at samosida uchmaydi johil.  
Sahnani mehrobdek aziz tutganning  
Qalbin daryosiga saodat sohil.

Unsiz bo'g'sa hamki hasad sirtmog'i,  
Tunni tilib tashlar havas chaqmog'i.  
Yodgor Sa'diyevni oyga bo'ylatdi,  
Bobur siymosida tafakkur tog'i.

Yuzlab Asadbekni ko'rgay bu zamon,  
Lek o'nlab Yodgorni ko'rmog'i gumon.  
Yaxshisin yonida yayratolgan xalq  
Qabrlar qoshida qilmaydi armon.

Oltmish yosh Allohning oltin yoshidir,  
Shu yoshga yetganning oltin boshidir.  
Har bir Yodgoringni duo qil, elim,  
Ko'z yoshning shirini sevinch yoshidir.



**KO'NGIL OFTOBI**

Osmonda o't o'rmas oyning o'rog'i,  
Hech kimsa kurmakni tishda ushlamas.  
G'alat titrog ekan vijdon titrog'i,  
Xalqdan uzilganni Xudo xushlamas.

Qozon qaynaguncha ko'pikning umri  
She'r shakliga sig'mas ilhom sururi,  
Er yigit jonida elning g'ururi,  
Xalqdan uzilganni Xudo xushlamas.

To'nkani turtganning qaqshaydi qo'li,  
Toshni ham titratar tuhmatning do'li,  
Ko'nglimga to'kilar ohimning kuli,  
Xalqdan uzilganni Xudo xushlamas.

Oyga osilganning yuzlari dog'dir,  
Kunni ko'rolmagan nurdan yiroqdir,  
Savob axtarganga iymon chiroqdir,  
Xalqdan uzilganni Xudo xushlamas.

Bugun bozorlarga sig'maydi yolg'on,  
Qandoq safda yurar nazardan qolg'on,  
Yaxshilar olqishni Allohdan olg'on,  
Xalqdan uzilganni Xudo xushlamas.

Adolat ko'ngilning oftobi erur,  
Haqiqat bu xalqning xitobi erur,  
Shirin so'z Mahmudning sharobi erur,  
Xalqdan uzilganni Xudo xushlamas.



## MEN RANGLARDA HAYOT KO'RDIM

*Alisher MIRZAYEVga*

Men ranglarda hayot ko'rdim,  
Men ranglarda bayot ko'rdim.  
Turfa rangda, turfa xil dard,  
Men ranglarda sabot ko'rdim.


Oq ranglarda oppoq niyat,  
Men ranglarda najot ko'rdim.  
Yam-yashil rang samimiyat,  
Qora rangni men yot ko'rdim.

Ko'k ranglarda ko'm-ko'k osmon,  
Men ranglarda qanot ko'rdim.  
Qizil rangdan sizardi qon,  
Men ranglarda faryod ko'rdim.

Ko'z yosh emas, ko'ngil yoshi,  
Bu ranglarga dard bermishdir.  
Qaro tunda dil quyoshi  
Bu ranglardan nur termishdir.

Bu rang asli ko'ngil rangi,  
Har tomchisi jondan tomar.  
Tinglay bilsang xush jarangi,  
Bu ranglarda otash yonar.

Mo'yqalam-ku musavvirida,  
Berar har rang jilosini.  
Zikrin qilar tasavvurda,  
Rang berguvchi Xudosini.



**EZGULIKKA EHTIROM**

Baxtning boshidagi oftobi bo'lib,  
Elda haqiqatning xitobi bo'lib,  
Ozodlik maydoni mehrobi bo'lib,  
Yurtning yuragiga o'yildi haykal,  
Millat onasiga qo'yildi haykal!

Bag'riga bosgani Vatan bolasi,  
Zamin farzandi u, shodlik shonasi,  
O'zbek onasidir uning onasi,  
Poyiga boshingni egib kelgin sal,  
Millat onasiga qo'yildi haykal!

Bulbullar mudragan gulni uyg'otar,  
Xotira uyg'onsa dilni uyg'otar,  
Daryodil sarbonlar elni uyg'otar,  
Millatning mehridan berilib sayqal,  
Millat onasiga qo'yildi haykal!

Har kim bir kelmoqni ixtiyor etsin,  
Kelsin-u, o'zini baxtiyor etsin.  
Ham yana Vatandan iftixor etsin,  
Quvonch ko'z yoshiga chayildi haykal,  
Millat onasiga qo'yildi haykal!

Ezgulik poyiga tiz cho'ksang arzir,  
Har farzand onadan toabad qarzdir.  
Vatanga jon tikmoq sen, menga farzdir,  
Ko'p kelgin, o'zingni poklab kel har gal,  
Millat onasiga qo'yildi haykal!



**ERTAKLAR**

Ertaklar ermak emas,  
Ezgulikka tilmochdir.  
Xush nafas tilaklardan  
Gullab ketgan yog'ochdir.

Ertaklar ermak emas,  
Tongsiz yuz ochgan quyosh.  
Haqiqatning ko'zidan  
Tomchi-tomchi tomgan yosh.

Ertaklar ermak emas,  
Onayizor allasi.  
Baxtli kelin-kuyovlar,  
Yangasining yallasi.

Ertaklar ermak emas,  
Ishqning jimir-jimiri.  
Lablarning quloqlarga  
Qilgan shivir-shiviri.

Ertaklar ermak emas,  
Otamdan qolgan sog'inch.  
Yaratganga shukronam,  
Nabiram tutgan ovunch.

Ertaklar ermak emas,  
Qayrilmagan bilakdir.  
Alpomishlar orida,  
G'unchalagan tilakdir.

Ertaklar ermak emas,  
Oy yuzida qolgan dog'.  
Yaxshilarning yodida  
Xudoyim yoqqan chiroq.

Ertaklar ermak emas,  
Bolang yotgan beshikdir.  
Ezgulik axtarganga  
Ochiq qolgan eshikdir.

**DIL OLAMI**

Qaro tunda men yog'duni oydan olay,  
Dil og'risa oromni, ayt, qaydan olay,  
Qay bir g'anim ko'ngliga, vah, ko'zgu solay,  
Yonib turgan ko'zlarda kul ko'rib bo'lmas,  
Kulib turgan yuzlarga ham urib bo'lmas.

Tilga chiqqan shikoyatmi bu, nolami,  
Tubsiz ekan, yetib bo'lmas dil olami,  
Kimlar uzdi, qon qaqshagan bu lolani,  
Bu bog'larda bosh ko'tarib yurib bo'lmas,  
Nahot uni quzg'unlardan qo'rib bo'lmas.

Quyosh botmay oy yuzini izlabdi kim,  
Bulbulman deb burgut baxtin ko'zlabdi kim,  
Chiqmas chohda o'z-o'ziga bo'zlabdi kim,  
Orzu-orsiz dildan sira surib bo'lmas,  
Armon o'rtar, qoshida hech turib bo'lmas.

Kim qadrining qalqonini qonda yuvgan,  
Farzandlarin jamolini jonda yuvgan,  
Ajdodlarin ruhin duo, shonda yuvgan,  
Oriyatni zanjir bilan sirib bo'lmas,  
Muhabbatsiz ko'ngil ko'zin ko'rib bo'lmas.

Kuz bargidek kuysa netay jonim mani,  
Kundan uzun, tundan uzun umr qani,  
Onam deydi, hatto ruhim qo'rir sani,  
Mahmud, o'lmay vaqtzni elga berib bo'lmas,  
O'lmayman deb lek qoshni ham kerib bo'lmas.





## ORZU

Quyosh qo'rg'onida qo'nim topgim bor,  
Shamol shiyponida tinim topgim bor,  
Oyning o'rog'idan bitta o'pgim bor,  
Ko'ngil-da, ko'chasi keng ekan, netay,  
Ayo do'st, xushlikda ko'nglingdan o'tay.

Tortilgan dorlarga xiyonat ustun,  
Olov bo'lolmagach burqsiydi tutun,  
Kechagi daraxtdir bugungi o'tin,  
Qahrimni qaqshatib bahridan o'tay,  
Mehrimni muhabbat nurida tutay.

Joningni chimchilab jaf o' topgaysan,  
Xazondan hazin bir sado topgaysan,  
Axtarib o'zingdan xudo topgaysan,  
Sog'inchim jilmaygan oftobda tutay,  
O'ziga tiz cho'kib, mehrobda kutay.

Kim seni xush ko'rar onangdan ko'proq,  
Kim seni tush ko'rar otangdan ko'proq,  
Vatandan buyursin, bir siqim tuproq,  
Salomim men tonggi saboda tutay,  
Sen unga alik ol, sadag'ang ketay.

Qaldirg'ochni qutla ayvoningdagi,  
Gardni to'tiyo qil choponingdagi,  
Mahmud, nurni asra vijdoningdagi,  
Bu she'rni so'z izlab yozmadim atay,  
Goh-gohi men so'zga sig'masam netay?!



**KURTAK KULGUSI**

Har kurtak kulgusi bahordan darak,  
Har kurtak kulgusi ilohiy tilak.  
Hayrat havosiga ko'ksim to'ldirib,  
Men bahor bog'bonin qutlashim kerak.

O'riklar oq, oppoq tabassum sochar,  
Qaldirg'och lo'li qiz baxtdan fol ochar.  
Zog'larning qaqshagan qanotlarida  
Ortiga boqmayin qayg'ular qochar.

Osmon entikadi, zamin ko'z yorar,  
Yurakni yorolsa bitta so'z yorar.  
Uzun umidlarga poyandoz to'shab,  
Maysalar kun sayin bo'ylashib borar.

Majnuntol tashlagan kokilga boqib,  
Quvonch daryosida ketaman oqib.  
Shodlik shalolasi yetib bormasa,  
Qizg'aldoq qirlarni yuborar yoqib.

Shabnam sharobidan kaftimga solib,  
Men yorga tutmasam qoladi nolib.  
Yurtimga oq niyat turnalar qaytdi,  
Bahor bilan ketgan ko'nglimni olib.



**SOG'INCH SAHROSI**

Sog'inch sahosining sadosi nola,  
Bosgan qadamingda bozillaydi cho'g'.  
So'lmagay yurakdan uzilgan lola,  
Ko'ngillar ko'rishsa ko'zlarga gap yo'q.

Bedor bolishlarda Haqning nigohi,  
Tomganda tovlanar kipriklar ohi.  
Diydor tilatgani gulning gunohi,  
Ko'ngillar ko'rishsa ko'zlarga gap yo'q.

Chiroy chamanida xushtorlar loldir,  
Ming yulduz ichinda bitta hiloldir.  
Bunda shakardayin so'zlar uvoldir,  
Ko'ngillar ko'rishsa ko'zlarga gap yo'q.

Umring katta yo'lga to'kilgan xazon,  
Qayta gullamoqqa berilmas imkon.  
Vah, yerdan qanchalar uzoqda osmon,  
Ko'ngillar ko'rishsa ko'zlarga gap yo'q.

Miroblar suv ichgay buloq boshidan,  
Kim g'ubor topibdi gavhar toshidan.  
Chehralar yorishgay quvonch yoshidan,  
Ko'ngillar ko'rishsa ko'zlarga gap yo'q.

Sog'insang, shodlikning sharbati diydor,  
Mahmud, sadoqatning siyrati diydor,  
Angladim dunyoning hayrati diydor,  
Ko'ngillar ko'rishsa ko'zlarga gap yo'q.



**AHLI MUHABBAT, QAYDASIZ?**

Kulmang siz so'rsam agar,  
Poygakdami yo oydasiz.  
Bir sog'inch bor sarg'aytirar,  
Ahli muhabbat, qaydasiz?

Tosh ko'ngil ham tosh istamas,  
Yig'lab to'ygan yosh istamas,  
Qaysi dil dildosh istamas,  
Ahli muhabbat, qaydasiz?

Bir ohida ming bir alam,  
Bir rozida yuz ming malham,  
Tili ko'rkam, dili ko'rkam,  
Ahli muhabbat, qaydasiz?

Qanotsiz uchgan qushlar,  
Maysiz ham ko'ngli xushlar,  
Bulbullar qayda qishlar,  
Ahli muhabbat, qaydasiz?

Ko'z bilan ko'kka yetgan,  
Dil bilan cho'qqa yetgan,  
Haq debon Haqqa yetgan,  
Ahli muhabbat, qaydasiz?

Jonim-a, yeldek yelur,  
Ko'zima rahmim kelur,  
Ko'rmasam vahmim kelur,  
Ahli muhabbat, qaydasiz?



**ROST SO‘Z SADOSI***Abdulla QAHHORga*

Oftobga yetmagan oydek araznok,  
Yurakning bag‘ridan so‘kiladi chok,  
Sizning oldingizda men bir siqim hok,  
Sabrimdan sachraydi tashnavor sado,  
Sizni sog‘ingan ko‘p, Abdulla bobo.

Tafakkur bog‘ining guli so‘lماغay,  
Yuz yil o‘tsa hamki rost so‘z o‘lماغay,  
Yuz yil tilanganlar Qahhor bo‘lماغay,  
Haqiqat hukmiga, ey joni fido,  
Sizni sog‘ingan ko‘p, Abdulla bobo.

„Achchiq so‘z“ alloma, daryodil oqil,  
Sizni ne ko‘ylarga soldi ko‘p johil,  
Vale, sizga bugun boqiylik doxil,  
Ruhi pokingizga el qilur duo,  
Sizni sog‘ingan ko‘p, Abdulla bobo.

Senlab jom tutsangiz G‘afur G‘ulomga,  
Oybek dilin to‘kkan bu xush kalomga,  
Yuz yil keyin chiqdik bizlar salomga,  
Hikmatli bandasin xushlagay Xudo,  
Sizni sog‘ingan ko‘p, Abdulla bobo.

Qadr qo‘rg‘onida Kibriyo xonim,  
Jonida asradi Qahhorning nomin,  
Faqat tutgan bilur bu baxtning jomin,  
Bugun ham nur sochur bu inja vafo,  
Sizni sog‘ingan ko‘p, Abdulla bobo.

Gar oqil lutf qilsa so‘zning sehri bor,  
Elning izzatida elning mehri bor,  
Yuz yilda bir kelar Abdulla Qahhor,  
Ming yildan keyin ham yangrar bu sado,  
Sizni sog‘ingan ko‘p, Abdulla bobo.

**MARG'ILON**

Vodiy yuzidagi inja xolmisan,  
O'zbek tilidagi bitta bolmisan,  
O'zing aytgin, jonimga jamolmisan,  
Ko'rib sog'inganim ko'zim Marg'ilon.  
So'rab siylaganim so'zim Marg'ilon.

Farg'ona bag'rida yuz ochgan malak,  
Seni sehridanmi yaratgan falak,  
Tilimdan tushmagan, ey, shirin tilak,  
Sen quyosh, aslida sen oy Marg'ilon,  
Onam qo'lidagi shirmoy Marg'ilon.

Kumushning ko'zida jilmaygan hayo,  
Senga oshiqlikni qilmadim da'vo,  
Seni Otabekka yaratgan Xudo,  
Oshiqlar axtargan chaman Marg'ilon,  
Malaklar diyori hamon Marg'ilon.

Jo'raxon kuyiga jilo bergan nur,  
Ma'murjon dilida yuz ochgan surur.  
Marg'inoniy bobom dunyoga g'urur,  
Ilm izlaganga hikmat Marg'ilon,  
Men sendan topganim hayrat Marg'ilon.



## VAFO

*Rafiqamga*

Taqdir tutgan bolish boshimizdadir,  
Umr ellik oshib yoshimizdadir,  
Biz baxtning ortidan quvib yurmadik,  
Baxt o'zi jilmayib qoshimizdadir.

Eng avval tangriga bo'lsin shukrimiz,  
Uzilmay turibdi non-u tuzimiz.  
Nabira novvotdek shirin bo'larkan,  
Ko'zdagi gulimiz, o'g'il-qizimiz.

Men-ku bu dunyoda ko'cha odami,  
Goh parvona qilar bitta she'r shami.  
Qo'llaring kosovdir, soching supurgi,  
Joningni chimchilar ro'zg'orning g'ami.

Onam tegrasida jon tikkan o'zing,  
Bitta xush she'rimga shon tikkan o'zing,  
Shoirlarga rayhonlar ilhombaxsh desa,  
Hovliga cho'k tushib gul ekkani o'zing.

Umrin chirog'isan, o'zing bilmagan,  
Ko'zim qarog'isan, ko'zing bilmagan,  
Bunchalar tiyiqsan, buncha tortinchoq,  
Sevdim degan so'zni so'zing bilmagan.

Hayotim gulzori, gul chehram o'zing,  
Ko'nglimning nurzori, nur chehram o'zing,  
Men dardim dastalab bitta she'r bitdim,  
Gul o'rnida olgin, Gulchehram o'zing!



**BIZLAR KIMMIZ?**

Quvonch qalqqan daryoday xush qirg'oqlari,  
Ravshan yonur obod uyning chiroqlari,  
Vale dilda hurriyatning saboqlari,  
Yuz yil osha ko'kni tutdi faryodimiz,  
Bizlar kimmiz, biz kimlarning avlodimiz?

Qorlar yog'ar g'animlarning qabog'idan,  
Temur tug'i tushmas dunyo peshtog'idan,  
Kim ajratur axir etni tirnog'idan,  
Adolatdan tog' tiklagan ajdodimiz,  
Bizlar kimmiz, biz kimlarning avlodimiz?

Dunyo rozi tib ilmining Sinosidan,  
Naqshband-u Buxoriyning ziyosidan,  
Kim sarxushmas Navoiyning navosidan,  
Bobolarning ruhiga esh hayotimiz,  
Bizlar kimmiz, biz kimlarning avlodimiz?

Qafaslarni qarsillatib buzdi qushim,  
Osmonlarga hurlik rasmin chizdi qushim,  
Oq kaptarim, zog'lar bilan yo'qdir ishim,  
Alif qaddi egilmagan shamshodimiz,  
Bizlar kimmiz, biz kimlarning avlodimiz?

O'zbekiston, oq ro'molli onam o'zing,  
Ozodlikning oromidan yorug' yuzing,  
Oqlagaymiz, jonim ona, bergan tuzing,  
Bobolardan meros bizning sabotimiz,  
Bizlar kimmiz, biz kimlarning avlodimiz?

Inshoolloh, ertang yana nurli bo'lgay,  
Kelar avlod qadamlari qutli bo'lgay,  
O'zbekiston baxtga to'lgay, gulga to'lgay,  
Tilga olur bizlarning ham xush yodimiz,  
Degay biz kim, biz kimlarning avlodimiz?



**SAMODAN OLGANMIKIN**

Bu sanam sarposini samodan olganmikin,  
Oy nurin ro'mol qilib boshiga solganmikin,  
Husnining hikoyatin aytganlar tolganmikin,  
Oshiqlar ichra biz ham bo'ylashib ko'rsak qani,  
Bir bulbul dilin ochsa, kuylashib ko'rsak qani.

Sochlarin sharsharasin sadolari xush buncha,  
Jilmaygan jamolining jilolari xush buncha,  
Jonimni chaqmoqlagan jafolari xush buncha,  
Shu jafo, shu jilodan ayrilmay tursak qani,  
Qatlimiz qilichiga qayrilmay tursak qani.

Ishqining uvog'ini hech uvol qilmagaymiz,  
Zar desa zargarimiz, xom xayol qilmagaymiz,  
Men bitta, o'zi bitta, boshqasin bilmagaymiz,  
Yo'llarda yo'ldosh bo'lib yondirib yursak qani,  
Ag'yor ahlin o'zlaridan tondirib yursak qani.

Do'st desa do'sti bo'lib, yor desa yoroni biz,  
Jon desa jon olsin-u, lek bo'lsin jononimiz,  
Malakmi va yo hurdir, biz hamon hayronimiz,  
So'z bila siylab bo'lsa tillashib ko'rsak qani,  
Dil dilning tilmochidir dillashib ko'rsak qani.

Biz umid ummonida qulochni katta otdik,  
Biz orzu osmonida kun bilan birga botdik,  
Shabnamlar sharobini tong bilan birga totdik,  
Diydor durini, Mahmud, qo'sh qo'lda tersak qani,  
Ham qadr qo'rg'onida qandimiz ursak qani.



**BESHIKDAGI BOYIM***Nabiram ZIYODBEKka*

Ko'z tegmasin deya ko'zmunchoq taqqan,  
Tumorlar ichinda so'z munchoq taqqan,  
Inja tabassuming jonimni yoqqan,  
Baxtim bog'idagi gulim, bolajon,  
Taxtim tog'idagi nurim, bolajon.

Ostonam egasi, beshikda boyim,  
Ko'ksimning ko'kidan tushmagan oyim,  
Quvonchim qo'shig'i sig'magan soyim,  
Toychog'im, tilmochim, tilim, bolajon,  
Dil ichra sen o'zing dilim, bolajon.

Otang shodliklari shalola bu kun,  
Onang ol yuzlari gul lola bu kun,  
Momong allalari xush nola bu kun,  
Tilloga topilmas durim, bolajon,  
Hur yurtning xush nori, hurim bolajon.

Baxt bizning bo'yga ham bo'ylashib keldi,  
Do'st-u yoronlarim kuylashib keldi,  
Beshiklar bezashib to'ylashib keldi,  
Meni elga qo'shgan, elim, bolajon,  
Xush duoga ochdim qo'lim, bolajon.

Yuz bilan yuzlashib, shodon yurgaysan,  
Dardi bor odamga darmon yurgaysan,  
Oqillar oldida komron yurgaysan,  
Yorug' bo'lsin desang yo'lim, bolajon,  
Umringning chirog'i ilm, bolajon.



## ARAZ

*Xalq ohangida*

Achinsa alam qilsin,  
Jahlin jindek kam qilsin,  
Qalampirni qoshiga  
Bilmasdan qalam qilsin.

Qabog'iga hushim yo'q,  
Bahor keldi, qishim yo'q,  
Ko'ngil otlig' qafasdan  
Qo'yvorguvchi qushim yo'q.

Ginalari o'ziga,  
Parvoyim yo'q so'ziga,  
Xudoyimga arz qilsam,  
Sepkil toshar yuziga.

Yursam yo'lga sig'mayman,  
Axir qandoq yurgayman.  
Peshonamdan to'ydim men,  
Peshonamdan ko'rgayman.

Qaytsin o'zim bilarman,  
Boshidan qum elarman.  
Sochlarini supurgi,  
Qo'lin kosov qilarman.

Ko'zlarimga boq meni,  
Toqatlarim toq meni,  
Yantoq nima, o'rikning  
O'tinida yoq meni.

**MENGA**

To'lqinlar tug'yoni jabrimda mani,  
Sukunat sadosi sabrimda mani,  
Ko'zimni tindirar nurlar chamani,  
Olam she'r shaklida ko'rinar menga,  
Odam she'r shaklida ko'rinar menga.

Qatra so'z qog'ozda balqisa xushman,  
Dard dildan ko'zimga qalqisa xushman,  
Bilmaysiz, men ko'kka sig'magan qushman,  
Oy nechun qoshimda kuladi menga,  
Nazdimda yaxshi she'r tiladi menga.

Maysaga yalinsam bo'yi cho'zilar,  
Bulbulga „do'st“ desam, kuyi cho'zilar,  
Qizg'aldoqning tomida to'yi cho'zilar,  
Tikonlar tig'ida bol tutar menga,  
Lolalar labida xol tutar menga.

Zarra go'zallikda hadsiz kenglik bor,  
Baxtli odamlarda bitta tenglik bor,  
Nechun o'zimdamas inon-ixtiyor,  
Ko'nglim ostonada gul sotar menga,  
Aqlim ostonada pul otar menga.

Bu ko'ngil mehrining malhami nechuk,  
Bu ko'ngil qahrining alhami nechuk,  
Mahmud, bu ko'zlarning zam-zami nechuk,  
Aqlim ko'kdan turib boqadi menga,  
Ko'nglim yerda yotib yoqadi menga.



## NASIBA

Armonni xush ko'rmas orzular,  
Quvonchni qamchilar qayg'ular,  
Qozonda qaynamas tuyg'ular,  
Rizq izlab yugurma ziyoda,  
Nasibang but bo'lsin dunyoda.

Kim uchun xush taom burda non,  
Kim uchun yetmaydi botmon don,  
Shukringdan topolsang agar shon,  
Shodliging shonalar samoda,  
Nasibang but bo'lsin dunyoda.

Xush niyat xush ishning boshidir,  
Tekin osh ta'naning toshidir,  
Minnatlar ko'zingning yoshidir,  
Jonlaring qovrilgay jafoda,  
Nasibang but bo'lsin dunyoda.

Yoshlikning yodi ham yondirar,  
Husningni ko'zgular oldilar,  
Majnunlar firoqdan toldilar,  
Keksalik qadri xush duoda,  
Nasibang but bo'lsin dunyoda.

Bahorni sog'insang yoz yo'qlar,  
Kuzning ko'rki ko'zlari to'qlar,  
Qishda qadrin oshirar cho'g'lar,  
Tilaging topilar Xudoda,  
Nasibang but bo'lsin dunyoda.



## SAMARQAND

So'zlar bor, hikmati ko'zlaring ochar,  
So'zlar bor, sehridan qayg'ular qochar,  
Samarqand so'zining sadosi bo'lak,  
Jumlayi jahonga yog'dular sochar.

Imom Buxoriydek zoti shariflar,  
Sayqali olam deb bergan ta'riflar,  
Bunda toshlarni ham turtib bo'lmagay,  
Qadr qayg'usidan so'zlar tarixlar.

Har qarich yerida avliyo yotar,  
„Rusti rosti“ degan bir nido yotar,  
Nomi ham millatning madori bo'lib,  
Amir Temurdayin bir fido yotar.

Kimlar kelmas Samarqandni axtarib,  
Mehrdan yaralgan bu shahri sharif.  
Makon tutmish Hoja Ahror Valiylar,  
Siyрати sulton-u, suvrati g'arib.

Sohibqironining qaytishin kutib,  
Zafar alyorlarin aytishin kutib,  
Bibixonim hamon uyg'oq yoturlar,  
Oppoq tilaklardan dasta gul tutib.

Zamin bag'ridagi osmon Samarqand,  
Jahonda yuz ochgan jahon Samarqand.  
Uch ming yillik hayrat baridan tutgan,  
Ulug' karvonlarga sarbon Samarqand.



## VATAN

Tovonimni o'psa tuprog'i,  
Yuragimda maysa titrog'i.  
Ko'zlarimni kuydirar hamon,  
Onam yopgan nonning uvog'i.

Men Vatanni onamda ko'rdim,  
Diydamdagi xush namda ko'rdim.  
Jaloliddin Manguberdiga  
Chekilgan mung, motamda ko'rdim.

## BITTA SO'Z

Dunyoda bitta so'z najot timsoli,  
Dunyoda bitta so'z dilning iqboli.  
Yuz bilan yuzlashib yotsa ham odam,  
Yodidan ketmaydi ona xayoli.

Dunyoda bitta so'z baxtning boshidir,  
Dunyoda xush taom onang oshidir,  
Yuz yil yot ellarda davron sursang ham,  
Vatan yodga tushsa ko'zning yoshidir.



**ONA**

Bir kun mehmon kelmagan kun yo'q,  
Ostonangiz tillodan, ona.  
Sizni asli tilab olganlar,  
Muhabbatdan, vafodan, ona.

Siz umrimning munavvar nuri,  
Uy to'rida bir oftobimsiz.  
Duolarning duri jamlangan,  
Muqaddassiz, xush kitobimsiz.

Jonim onam, daryodil onam,  
Haqning hukmi yoziqlari bor.  
Men baxtliman, onasizlarning,  
Tabib bilmas og'riqlari bor.

Bir kun mehmon kelmagan kun yo'q,  
Bu fe'lingiz Xudodan, ona.  
Sizni sira ketkizgim kelmas,  
Hamma ketgan dunyodan, ona.





**SO'Z HIKMATI**

Toshdan malham topgan bormikin,  
Tosh ham mehrimizga zormikin,  
Boshimizga yog'gan qormikin,  
Tosh bo'lsang ham bosh ko'tar, aytgin,  
Umr buncha tez o'tar, aytgin.

Tundan yog'du so'rab bo'lurmi,  
Guldan og'u so'rab bo'lurmi,  
Boshdan qorni kurab bo'lurmi,  
Javobi yo'q savollar yelar,  
Nechun mening yig'lagim ketar.

Savob oldda chorlab turganda,  
Gunoh qonda porlab turganda,  
Iymon hazin zorlab turganda,  
Vijdonimdan uyaldim kecha,  
Xudo, menga insof ber picha.

Chumolini chimchilab bo'lmas,  
Kapalakni qamchilab bo'lmas,  
Chayonlarni erkalab bo'lmas,  
Bilganini bilgandan so'ra,  
O'lmay turib o'lgandan so'ra.

Quvonch kunda yo'qlamas ekan,  
Qayg'u sira uxlamas ekan,  
Mahmud edi sizga dil to'kkan,  
She'r aslida dil siyratidir,  
So'z hikmati, ko'z hayratidir.



**NE QILAY**

Jindek yaxshidurman, jindek yomonman,  
Balki yaxshiligim uchun omonman.

Jindek jununligim, shoirligim bor,  
Kimdir or qiladi, kimlar iftixor.

Goh qorin qayg'usi qozonga boshlar,  
Goh qadr qayg'usi ko'zlarim yoshlar.

Goh ko'nglim ko'klasa savti samoman,  
Jindek dilim cho'ksa bir benavoman.

Gohida maftunman bitta so'zimga,  
Goh yoqmay qolaman o'zim o'zimga.

Jindek yaxshiligim oshirguvchi sen,  
Jindek yomonligim yashirguvchi sen.

Gohida qayg'ungman, gohi xandangman,  
Yo rabbim, ne qilay, bitta bandangman.



# *OGOH BO'L, DUNVO!*

*(Doston)*

*2005- yil*





## OGOHO BO'L, DUNYO!

(Doston)

*„Ogoh bo'ling, odamlar!“ degan da'vat hamisha  
hong urgandek yangrab turishi kerak. Faxrlanish  
mumkin va lozim bo'lgan hebaho qadriyatlar —  
o'z mustaqilligimizni, tinchligimizni, jamiyatda  
millatlar, fuqarolar o'rtasidagi totuvlikni asrang.*

*Islom KARIMOV*

### Muqaddima

Bugun tongda xush turdim juda,  
Dunyo go'zal, olam osuda.

Osmon tiniq, osmon beg'ubor,  
Tiniqlikda ajib hikmat bor.

Jilmayib nur sochadi quyosh,  
Baxtga eshik ochadi quyosh.

Salom olib kelgan sabolar,  
Boshim uzra to'kar duolar.

Orzudayin ko'z ochgan kurtak,  
U tongdagi totli bir tilak.

Qush tilini qushlar bilsa ham,  
„Qushlar tili“ ko'ngilga malham.

Alloh tutgan gultoj go'zallik,  
Musavvirga muhtoj go'zallik.

Ko'zlarimga sig'masa netay,  
O, ona yurt, sadag'ang ketay.

Sen haqingda o'ylamoq sharaf,  
Madhing yonib kuylamoq sharaf.

Hurlikda sen ko'tarilgan taxt,  
Abadiyat osmonida baxt.

Dardi dunyo zahmatkash elim,  
Mehri daryo mehnatkash elim.

Birda quvnab, birda o'kindim,  
Bugun dildan keldi to'kilgim.

O'tmishdagi uvoling haqqi,  
Qonli kechmish, zavoling haqqi.

Tildan, dildan to'kilgan armon,  
Balki bo'lar mo'jaz bir doston.

Avlodlarga va yo bir maktub,  
Neki bo'lsa, bo'lolsin matlub.

### Yashash baxt

*Farzandlarimiz, kelajak avlodlar bizdan shu o'lkani, shu muqaddas zaminni yana ham boy, kuchli va qudratli holatda qabul qilishlari uchun, biz buyuk ajdodlarimizga nisbatan qanday minnatdorchilik tuyg'ularini his etayotgan bo'lsak, o'g'il-qizlarimiz, kelajak avlodlar ham bizga nisbatan shunday minnatdorchilik tuyg'ularini his etishlari uchun lozim bo'lgan hamma ishni qilish — bizning fuqarolik burchimizdir.*

*Islom KARIMOV*

Har dilda hikmatning xazinasini bor,  
Har tilda hurmatning ganjinasi bor.

Vale har so'zdan ham hikmat yaralmas,  
Har husni sohibdan xush nur taralmas.

Har botir maydonda g'olib bo'lolmas,  
Hurmatni talab-la olib bo'lolmas.

Yashashning sharti bor, odamlilik sharti,  
O'zdan kechib yashar millatning mardi.

Ayo do'st, kun keldi, keldi xo'p zamon,  
Ona yurt bo'lmoqda ko'p dorilamon.

Har dilda jaranglar hurlik xitobi,  
Vafodan boshlanar taqdir kitobi.

Momolar tilida shukrona oyat,  
Bobolar tilida hikmat, hikoyat.

Yigitlar ochmoqda ishqning eshigin,  
Kelinlar quchmoqda baxtning beshigin.

Farzandlar bahordek balqib yasharlar,  
Dilida quvonchi qalqib yasharlar.

Navoiy nazmidek totli bir kalom,  
Dunyoni zabt etar o'zbek degan nom.

Mustaqil davlatning javohirlari,  
Alpomish kelbatli bahodirlari,

O'zbek dovrug'ini doston qilguvsi,  
Minglarning mushkulin oson qilguvsi.

Jannatiy diyorning jamolidek xush,  
Hazrat Amir Temur kamolidek xush.

Dillarda yuz ochar inja bir savol:  
„Bu yurtni kim qurgan?“ Bolam, yodga ol!

Hurlikning ilk g'ishtin kimlar qo'yishgan,  
Vatanni har nedan ortiq suyishgan.

Kimlar u, jonini o'qqa tik tutgan,  
Ozodlik yo'lida o'zni unutgan?

Ne o'ylar, bilmadim, dildan o'tadi,  
Ne nomlar necha bir tildan o'tadi.

Shu bois ushbu kun qo'limda qalam,  
Oq qog'oz ustida quvonchim, nolam.

Umidim bizni ham kelgusi avlod,  
Ehtirom, e'zozda etishgaylar yod.

Va bilgay ozodlik tushmas osmondan,  
Uni deb kechishgan ne mardlar jondan...

\* \* \*

Kecha yaralmagan bu ko'hna dunyo,  
Erta tugamaydi olamda hayot.  
Insonga qalb ato etganda Xudo,  
Ne oldin yuz ochgan, quvonch yo faryod?

Haq qachon yaratgan Odam Atoni,  
Bu savol yillarga sig'maydi hamon.  
Odam Ato qilgan bitta xatoni  
Ming bir xil usulda takrorlar inson.

Baxt bermas aslida Alloh odamga,  
Baxtli yashash uchun bergaydir imkon.  
Kelibsan, xush kelding yorug' olamga,  
Baxtli yasholdingmi, aytgin, ey inson?

Umr-ku, bandaga o'lachab berilgan,  
Hoy-u havasini bo'lurmi o'lachab.  
Qani u jismiga sig'may kerilgan,  
Qayga yetib bordi tulporin qistab?

Kimga ozor berdi, kimni asradi,  
Ortida qoldimi bir parcha bog'i?  
Yoki talvasada ruhi, jasadi  
Qabrida qorayib yotarmi dog'i?

Oilang osmonida so'nmasmi nuring,  
Otangga, onangga bo'ldingmi fido?  
Farzanding qalbidagi o'chmasmi qo'ring,  
Ayt, eling ortingdan qilgaymi duo?

Orzu arimaydi tirik odamda,  
Vale har savolga topilmas javob.  
Yashash o'zi baxt-ku yorug' olamda,  
Izingda qolsa gar tashakkur, savob.



\* \* \*

Har ko'ngilning tiniq ko'zgusi,  
Bobolarning asriy orzusi.

Ozodlikning oromi shirin,  
Ozod inson kalomi shirin.

Hurlikni Haq xush ko'rar azal,  
Hurriyatning bekati go'zal.

Go'zallikni asrash sharti bor —  
Yashash kerak hamisha bedor.

\* \* \*

Aytilgan so'z — otilgan o'qdir,  
Shu o'qlardan ozorda dunyo.  
Kimlar uchun mozorda mahzun,  
Kimlar uchun bozorda dunyo.

Aytilgan so'z — otilgan o'qdir,  
Gap otgani qalam tutmadim.  
Yuragimda lovullar bir cho'g',  
So'z sotgani qalam tutmadim.

Bu dunyoning tosh ekan boshi,  
Lek qartaygan qayg'u dastidan.  
O'lmay turib gohi bandasi,  
Joy olarkan do'zax ostidan.

Bu dostonning so'zlari g'amli,  
Anduhida elning ori bor.  
Uvol ketgan ne-ne jonlarning,  
Yaratganga qilgan zori bor.

Har insonning boshida osmon,  
Har insonning poyida yer bor.  
O'zgalarning rizqini olib,  
Kim yashabdi olamda takror.

Kimdir bugun beshik egasi,  
 Erta bir kun yelkada tobut.  
 Quvonch qirq yil yashamas axir,  
 Boshing egar lahzalik sukut.

Hur va baxtli yashashga asli,  
 Haq oldida haqli har banda.  
 Yaxshi kunga yarashmas lekin,  
 Qizitmayin chalgan chirmanda.

Uyg'oq odam uvol ketmagay,  
 G'aflat uning barin tutmagay,  
 Yovuzlikni u yengib yashar,  
 Mudragan murodga yetmagay.

Ogohlarda orom yo'q, chindan,  
 Ogohlarga yordir Allohim.  
 Ogohlikka chorlab dunyoni,  
 Oq qog'ozga to'kildi ohim.

### Hurlik yo'li

*Tarixiy xotirasi bor bo'lgan inson irodali inson.  
 Takror aytaman, irodali insondir. Kim bo'lishidan  
 qat'i nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini  
 yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har  
 xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix  
 saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini  
 mustahkamlaydi.*

*Islom KARIMOV*

Ayo do'st, bu dunyo azal demishlar,  
 Xotira uyg'onsa go'zal demishlar.

Xotira uyg'onsa dardlar ham daryo,  
 Sabrlar, to'zimlar berarkan sado.

Xotira uyg'onsa o'zni taniysan,  
 Ham oppoq, ham qaro yuzni taniysan.

Ko'zingga ko'rinar sonsiz qabrlar,  
Jonningni og'ritar zulm, jabrlar.

Yolg'onning, riyoning boshlari xamdir,  
Haqiqat hayqirmas, hamon ko'rkamdir.

Xotira uyg'onsa hayrat uyg'onar,  
Suvratlar jim turar, siyrat uyg'onar.

Uyg'onar jism-u jon, uyg'onar iymon,  
Nechun uyg'onmaysan, axir sen, inson?!

Boshingga qandayin to'fonlar kelmish,  
Qayg'udan, qahrdan ummonlar kelmish.

Tarix to'kar dema ko'hna dardlarin,  
Tarix sog'inarkan asil mardlarin.

\* \* \*

Yashayotgan odam uchun,  
Jon bir taraf, shon bir taraf.  
Adolatning tug'in har kun,  
Temur kabi tutmoq sharaf!

Gohi dunyo, goh dard berib,  
Alloh o'zi ko'rgay sinab.  
El-yurt uchun ko'ksin kerib,  
Kubro kabi ketmoq sharaf!

Bu dunyoda ikki eshik,  
Hech kim qolmas abad yashab.  
Manguberdi kabi mangu,  
Vatan uchun o'lmoq sharaf!

Bu Vatanning ayoli ham,  
Orlik talab, hurlik talab.  
Jon chirog'in yurt yo'lida,  
To'marisdek yoqmoq sharaf.

\* \* \*

Hurlik yo'li uzun yo'ldir,  
So'qmog'i ko'p, toshi ko'p.  
Yuzlardagi kulgusidan,  
Ko'zlardagi yoshi ko'p.

Bu yo'llarning oromi yo'q,  
Zildek-zildek yuki bor.  
Bu yo'llarning gadosi ko'p,  
Bu yo'llarning beki bor.

Bu yo'llarda baxtin emas,  
Armon quchgan ko'p bo'lgan.  
Ozodlikni so'rab chiqib,  
O'qqa uchgan ko'p bo'lgan.

Iztirobning isitmasi,  
Chirmashgan ne jonlarga.  
Bu yo'lning har qadami,  
Qabrdir qurbonlarga.

Uzoq tarix, uzoq o'tmish,  
Qatlarida qayg'usi.  
Yangi tarix — eng go'zal his,  
Bu hurriyat tuyg'usi.

\* \* \*

Biz yaxshilik yarashgan xalqmiz,  
Maydonda or talashgan xalqmiz.

G'anim quvnar qilsang xatolar,  
O'ylab topsa ichki nizolar.

O'shda uvol ketganlar bilmas,  
O'zganda qon yutganlar bilmas.

Namanganda nizo chiqargan,  
Farg'onada qazo chiqargan.

G'addor dushman o'yinlari ko'p,  
Parkentda ham ko'zga soldi cho'p.

Ammo Xudo yaxshiga yordir,  
Mardlariga o'zi hamkordir.

\* \* \*

Yaxshi odam nomin aytib,  
Ne-ne avlod yayraydi.  
Xudo bersa minglab jonni,  
Bitta odam asraydi.

Yangi tarix, o'tmishingda,  
Faryod bordir, dod bordir.  
Lek dardingga malham bo'lgan,  
Joni fido zot bordir.

Seni talagan tuzum,  
Qip-qizil bayroq edi.  
Aybing faqat, jon elim,  
Qo'llaring qadoq edi.

Otang paxtakor edi,  
Onang paxtakor edi,  
Egatlarda ezilgan,  
Bolang paxtakor edi.

Paxtasin terib berding,  
Chanog'ida tildilar.  
Peshonangning sho'ridan,  
Sharbat talab qildilar.

Qalbing o'rtab yotsa ham,  
Tishlaganding tilingni.  
„Paxta ishi“ zanjiridan,  
Kim bo'shatdi qo'lingni?

Bo'kadagi bo'ronlar,  
Nola qo'shgan nolangga.  
Shunda ko'zing tushganmi,  
Oq ot mingan bolangga?

Olomoni oralab,  
Tinchlikka tumor bo'lgan.  
Ot ustida quyoshdek,  
Millat uchun or bo'lgan.

Chiqqan kam, tushgan ko'pdir,  
Riyoning tushoviga.  
Namanganda kim kirgan  
Yolg'iz yov qurshoviga?

Ne azoblar ko'rmading,  
Ming oh-u faryod bo'lding.  
Alloh madadkor bo'lib,  
Kun keldi, ozod bo'lding.

Vale aytgin, jon elim,  
Davlating kim tikladi?  
Bugun dunyo tan olgan,  
Shavkating kim tikladi?

Diling hamon qon bo'lar,  
Boqsang bosgan izingga.  
Tiling, dining, Navro'zing,  
Kim qaytardi o'zingga?

Ulug'larning ruhini,  
Kim uvoldan asradi?  
Bu millat, bu Vatanni,  
Kim zavoldan asradi?..

\* \* \*

Aytilgan so'z — otilgan o'qdir,  
Mehring mehrob, jonimda cho'g'dir,  
Sendek suyuk suyanchim yo'qdir,  
Otingdan aylanay, elim-ov!

Sen qo'llasang qoqilmas hech kim,  
Asli sendek oqilmas hech kim,  
Topgan gapim, aytarim shulkim,  
Zotingdan aylanay, elim-ov.

Ko'zgu sinsa ko'zlar kulmagan,  
Yot tuproqda izlar kulmagan,  
Ginada ham tilingdan tomgan,  
Totingdan aylanay, elim-ov!

Sen tuproqqa tilmoch bo'lgan el,  
Ona Yerga oqsoch bo'lgan el,  
Kuyinchagim, quyosh bo'lgan el,  
Yodingdan aylanay, elim-ov!

\* \* \*

Haqiqat oddiydir, hikmati buyuk,  
Shoshmagan shod yashar, hurmati buyuk.

O'zbekka o'rgatma, ko'p qilma gina,  
Tomga ham chiqarlar zinama-zina

O'n to'rt yil bo'yladik dunyo bo'yiga,  
Qut-baraka kirdi o'zbek uyiga.

G'allasi beminnat, nefti beminnat,  
Yuzin yorug' qilgan bu halol mehnat.

Hech kimdan hech narsa tilab olmadik,  
Yo birov nonini tunab olmadik.

Mashaqqat chekyapmiz, yashirmoq nechun,  
Yo'qni yo'ndirdik deb oshirmoq nechun.

Biz hurlik yo'lida metin safdamiz,  
Kim tinchlik istasa u tarafdemiz.

\* \* \*

So'zlar ichra nurli so'zlar bor,  
Tilga olsang yayrar jon-u tan.  
Dilda, tilda aytaman takror,  
Sensiz yashab bo'lmaydi, Vatan!

G'oz ucholmas ovchi bor ko'lda,  
O'zni ehtiyot qilar yaxshilar.  
Alpomishi o'lmagan elda,  
Yuzi yorug' kuylar baxshilar.

Momo yerning yuragi tinchlik,  
Momo yerga keragi tinchlik.  
Xudoyim ham to'ygan urushdan,  
Xudoyimning tilagi tinchlik.

Boldek shirin tinchlikning toti,  
Elim, hurlik baxtning bayoti.  
Boshing uzra soyabon bo'lsin,  
Oq kaptarning oppoq qanoti.

\* \* \*

Xush niyatlar dillarga malham,  
Yurt tinchligi — eng oliy tilak.  
Ko'kdan tushmas ammo tinchlik ham,  
Tinchlik uchun kurashmoq kerak!

Maydon doim mardniki bo'lgan,  
Qo'rqoq qaqshab panada o'lgan.  
Tinchi borning toleyi kulgan,  
Tinchlik uchun kurashmoq kerak!

To'ylar to'yga ulansin desang,  
Beshikka bek belansin desang,  
Izingdan baxt elansin desang,  
Tinchlik uchun kurashmoq kerak!

Dema bugun oshim yovg'onidir,  
Shukr qilgin joning omondir,  
Bir kun g'alva — qirq kun yomondir,  
Tinchlik uchun kurashmoq kerak!

Momolarning duosi tillo,  
Bobolardan duo ol, illo,  
G'aflatni xush ko'rmaydi Xudo,  
Tinchlik uchun kurashmoq kerak!



\* \* \*

O'zbekiston — ko'zimdagi nur,  
Kafting ochsang jonimni tutgum.  
Bu dunyoga senda keldim men,  
Bu dunyodan seni deb o'tgum.

Hurlik quchgan ozoda diyor,  
Yo'q emasdir ozorlaring ham.  
Shahid ketgan o'g'lonlar yotgan,  
Bordir ma'yus mozorlaring ham.

Qo'lda qalam, o'yga tolaman,  
Qanday kuylay quvonch, dardlaring?  
Ming dostonga mazmun berguvsini,  
Sen deb jonni tikkan mardlaring.

Ming qo'shchiga bir boshchi bo'lgan,  
To'rt tarafga tentak tortadi.  
Bir jon bo'lib birlashsa gar el,  
Yurtda go'zal tonglar otadi.

Kimki neni o'rganmoq bo'lsa,  
Ulug'larning merosi bisyor.  
Ona zamin toptalmasa, bas,  
Ruhlar bunda chekmasin ozor.

Aytilgan gap — otilgan o'qdir,  
Ko'zgu tutar ko'nglim o'zimga.  
Jonim Vatan, nur berar Alloh,  
Sen deb aytgan har bir so'zimga.

\* \* \*

Dil ko'zin ochmoqqa hidoyat kerak,  
Vatan uchun har vaqt himoyat kerak.

Vatan u jisingdir, Vatan joningdir,  
Qoningda qalqigan asl shoningdir.

G'am-anduh so'ramay tushar boshingga,  
Og'ular qo'shilar zumda oshingga.

Balki u otangdir, balki bolangdir,  
Vatan deb jon bergan mangu nolangdir.

Qadim Toshkent, dardlaring ham ko'p qadim,  
Seni tinchlik beshigi deb atadim.

Ko'zin tikkan senga juda ko'p erur,  
O'zin tikkan senga juda ko'p erur.

Razil to'da tinchligingga qo'ydi choh,  
Tuproq'ingda yotar necha begunoh.

Burchimulla, Yangiobod tog'lari,  
Ko'ngillarni o'rtar armon dog'lari.

Sizda oqdi ne mardlarning qonlari,  
El-yurt uchun fido bo'lib jonlari.

Yurtim degan erlar elda bor bo'lsin,  
Ruhlariga mangu orom yor bo'lsin.

### Asray bilgin

*Matbuot orqali ham, xorij safarlarida ham doimo takrorlayman — terrorga qarshi kurashish kerak. Birinchi galda, terrorchilarni tayyorlaydigan zaminga, g'oyaga, mafkuraga e'tibor berish, shularga qarshi kurashish kerak.*

*Islom KARIMOV*

Orzusi yo'q ko'kda ucholmas,  
Kurashmagan quvonch qucholmas,

Tong otmasa, kun ham botmagay,  
Yaxshilik ham yerda yotmagay.

Hurlik uchun kurashdingmi, ayt,  
Oring uchun talashdingmi, ayt?..

Bahor har yil qaytib keladi,  
Ko'hna qo'shiq aytib keladi.

Kelmas ekan har o'tgan kuning,  
Qaytmas hatto chekkan har uning.

Bizdan qolsin shu ozod Vatan,  
Avlodlarga eng obod Vatan.

Gul yuzida shabnamlar qolsin,  
Qolsin, yaxshi odamlar qolsin.

Yaxshi mingta bo'lsa ham kamdir,  
Bitta yomon — mingta motamdir.

\* \* \*

Ogohmisan, ayt, dunyo,  
Ogohmisan, ey odam?  
Nechun unda ko'zing yosh,  
Nechun unda boshing xam?

Sodda dunyo, g'o'r dunyo,  
Peshonasi sho'r dunyo.  
Tirik turib o'zingga,  
Qaziydiansan go'r, dunyo!

Ogohmisan sen o'zi,  
Gumrohmisani sen o'zi?  
Tong sen uchun otmoqda,  
Sen deb kular kun ko'zi.

Nechun axir bir-biring,  
Tig'lashni xush ko'rasan?  
Gul bo'lganda so'ldirib,  
Yig'lashni xush ko'rasan?

Sodda odam, g'o'r odam,  
Ko'zi ochiq, ko'r odam.

G'aflat beshigi harom,  
Uyg'on endi, tur, odam!

\* \* \*

Tog'ni talqon qilar bo'lsang ham,  
Qilni arqon qilar bo'lsang ham,  
Ilondan bol tilar bo'lsang ham,  
Kuch — aslida adolatdadir!

Boltam bor deb jallod bo'lmagin,  
Quvonch boqsa faryod bo'lmagin,  
Ming yil yasha, mayli o'lmagin,  
Kuch — tafakkur, ma'rifatdadir!

Hech kim yo'qdan bor qilgan emas,  
Keng dunyoni tor qilgan emas,  
Oftob oydan or qilgan emas,  
Kuch — insof-u diyonatdadir!

Navniholda chinorni ko'rgin,  
Qaro tunda bedorni ko'rgin,  
Ko'rsang — Parvardigorni ko'rgin,  
Kuch — mehrda, muhabbatdadir!

Umring yo'li ko'p uzun emas,  
Shukri borlar hech mahzun emas,  
Yashash asli bu afsun emas,  
Kuch — sevgida, sadoqatdadir!

\* \* \*

Bugun qayg'u boshimda botmon,  
Erta shamol senga ko'chirar.  
Terror — asli shafqatsiz to'fon,  
Tinch uyingda chiroq o'chirar.

Mag'ribdami va yo Mashriqda,  
Ozor topsa odam bolasi.

Qulog'ingni solar qomatga,  
Yetib kelgan oh-u nolasi.

Derlar, bo'lsin umring ziyoda,  
Kimga yoqmas xush orzu, niyat.  
Tomoshaga o'ch bu dunyoda,  
Tomoshabin bo'lmoq jinoyat.

\* \* \*

Xavotir har kuni, har jonda yashar,  
Yuzlardan, ko'zlardan qayg'ular toshar.

Nogahon portlagan bomba ovozi,  
Samoda yana bir motam parvozi.

Ko'ngilga hattoki sig'mas ekan qil,  
16- fevral... 1999- yil...

Dunyoga tarqatdi ne shum xabarlar,  
Qo'llari, dillari, tili zaharlar.

Amalga oshmadi shum niyatlari,  
Omondir, omondir, yurtning sarvari!..

\* \* \*

Elim degan yurt sarkorin,  
El duosi asragaydir.  
Haq yo'linda jon nisorin,  
Haq nidosi asragaydir.

Baxt etagin tutqazguncha,  
Oylar o'tar, yillar o'tar.  
G'am quvlagan ojiz odam,  
Qochib qancha qonlar yutar.

Otam derdi: — Ochgil ko'zni,  
Yerni ko'rgin, pastga tushgil.  
To'rt odamga to'g'ri so'zni  
Topib aytmoq o'zi mushkul.

Ilon kirar, chayon kirar,  
Bilib-bilmay ochsang bag'ir.  
Qo'llamasa Xudo agar,  
El oldida yurmoq og'ir.

El koriga yelka tutgan,  
Yurt yoviga ko'ksi qalqon.  
Bu hikmatni kim unutgan,  
Ko'kdan tushmas yaxshi inson.

Sen deb kuysa, yongin sen ham,  
Qarsak axir qo'sh qo'lniki.  
Panohingda asra, egam,  
O'zbekiston hur elniki!

\* \* \*

Azal hikmat, go'zal hikmat,  
Bizlardan ko'p yashar hikmat.  
Odam bo'lsang olgin ibrat,  
O'z uyingni o'zing asra!

Qozon to'kmas kuyasini,  
Qush asraydi uyasini,  
Tulpor qo'rir biyasini,  
O'z uyingni o'zing asra!

Yerni asrar osmoni bor,  
Har jonzotning makoni bor,  
Asramoqqa imkoni bor,  
O'z uyingni o'zing asra!

Tuproq sira tog' bo'lmagay,  
Bog'bonsiz hech bog' bo'lmagay,  
Yolg'on maqtov yog' bo'lmagay,  
O'z uyingni o'zing asra!

O'rgimchakning to'ri bo'lma,  
Ochiq ko'zning ko'ri bo'lma,

Odamzodning g'o'ri bo'lma,  
O'z uyingni o'zing asra!

Ostonangga oring posbon,  
Bo'lsin tanda boring posbon,  
Bu Yaratgan hukmi, inson,  
O'z uyingni o'zing asra!

\* \* \*

Har kimning havasi, orzusi bisyor,  
Ne bo'lsa mo'l bo'lsin, bari sizniki.  
Bir so'z bor barchamiz aytaylik takror,  
Ushbu aziz Vatan barchamizniki!

Jannatiy bog'lari bog'boni bilan,  
Cho'l-u sahrolari karvoni bilan,  
Quvonch, qayg'ulari, armoni bilan,  
Ushbu aziz Vatan barchamizniki!

Turfa til, turfa din, turfa millati,  
Birlikda, hurlikda ular ziynati,  
Bor bo'lsin sharqona qadri, qimmatini,  
Ushbu aziz Vatan barchamizniki!

Yo'l ravon, dil yorug' yaxshi hamrohdan,  
Biz uni asraylik, yovdan, gumrohdan,  
Tinchligin tilaylik qodir Allohdan,  
Ushbu aziz Vatan barchamizniki!

\* \* \*

2001- yil, 11- sentabr...  
Dunyo shum xabardan titradi zir-zir.

Nyu-York va Vashington,  
Jahannam o'tida qoldi nogahon.

4613 kishi...  
80 mamlakatning fuqarolari.

Oh, boshdan uchdi-ku, odamzod hushi,  
80 mamlakatning g'am, nidolari.

\* \* \*

Umring yashab o'tsang, o'lim mehmondir,  
Dunyoga keldingmi, ketmoq ayondir.

Taqdirga tan berar dilbandlaring ham,  
Motamga ko'nikar farzandlaring ham.

Yosh ketsang, nogahon ketsang qiyindir,  
Terror — bu qabohat, yovuz o'yindir.

Bir kun yashamaydi bu dunyo ohsiz,  
Uning aziyati sonsiz, sanoqsiz.

Gohi yerda izg'ir, gohi osmonda,  
Terror xavfi bugun butun jahonda.

Erta kimni nima kutmoqda, nima?..  
Hech nima deyolmas, hech kim, hech nima?..

### Armon

*2004- yilning 29—30- mart va 1- aprel kunlari  
O'zbekistonimizda 9 nafar ichki ishlar xodimi va 5  
nafar fuqaro terror atalmish jaholatning qurboni  
bo'lgani ham shu haqda iztirob bilan o'ylashga  
da'vat etadi.*

*Islom KARIMOV*

Quyosh siz uchun ham kulib chiqardi,  
Oy ham tuningizga chiroq tutardi,  
Uyda jondek shirin jonlar kutardi,  
Haqqingiz bor edi baxtli yashashga.

Biringiz Kasbida tug'ilgan Erkin,  
Muhiddinsiz qolgan Surxon ne derkin?



Ko'hna Shosh sog'inar Qodirdek o'g'lin,  
Haqqingiz bor edi baxtli yashashga.

Samarqand ko'kidan uch yulduz uchdi,  
Faxriddin, Otabek, Mansur yer quchdi,  
Uch baxtning ko'ziga nogoh cho'p tushdi,  
Haqqingiz bor edi baxtli yashashga.

Vahobiddin Parkent o'g'loni edi,  
Zaitbek Qibrayning qalqoni edi,  
Azizjon Yangiyo'l dostoni edi,  
Haqqingiz bor edi baxtli yashashga.

Siz yo'q ostonalar ohi o'rtaydi,  
Qayg'ular qon qusib, quvonch qoraydi,  
Qabringiz qoshida osmon toraydi,  
Haqqingiz bor edi baxtli yashashga.

Siz Vatan ko'kida so'nmas quyoshsiz,  
Elning yodidasiz, ruhan dildoshsiz,  
Sog'inchsiz, armonsiz, bitmas ko'z yoshsiz,  
Haqqingiz bor edi baxtli yashashga.

\* \* \*

To'qqiz uyda to'qqiz ona,  
To'qqiz o'g'lin yo'qlaydi.  
Bag'ri butun odamlar,  
Bu yo'qlovni uqmaydi.

\* \* \*

O'qqa uchgan bolam-ov,  
Yo'qqa ko'chgan bolam-ov,  
Yuragimning yoniga  
Chiqdi chipqon, bolam-ov!

Sening o'lganing yolg'on,  
 Mening qolganim yolg'on,  
 Senga tekkan o'q, bolam,  
 Mening jonimni olg'on!

O'g'ling o'rmalab kelar,  
 Qizing yumalab kelar,  
 Ko'zlarimning qonlari  
 Yuzdan dumalab kelar.

Yo'qlab borsam qabringga,  
 Qayrilmaysan, bolam-ov!  
 Tuproq onang bo'ldimi,  
 Ayrilmaysan, bolam-ov!

Jon bolam, jonim bolam,  
 Mangu armonim bolam!  
 Qonimda qirq yil yozsam  
 Bitmas dostonim, bolam!

\* \* \*

Sening darding botmon, ohlaring botmon,  
 Yuzingdagi ajin g'amning shonasi.  
 Joningni qamchilar ming bitta armon,  
 Mushtipar, munisam, O'zbek onasi!

Mehring-la iylangan aytgan har so'zing,  
 Sen emasmi ezgulik parvonasi?  
 Tabiatning mo'jizasi sen o'zing,  
 Sen nurning chashmasi — O'zbek onasi!

Har ishda Haq degan, haqgo'y, xudojo'y,  
 Soflik sadafida durning donasi.  
 Ulug' yo'l boshida turgan duogo'y,  
 Mehribon, daryodil O'zbek onasi!

Ko'z yoshlaring artgin, bir bora jilmay,  
 Ey, mehri ummonim, dil durdonasi.

Hurlikda endi men baxtingni kuylay,  
Millatim onasi — O'zbek onasi!

\* \* \*

Aytilgan gap — otilgan o'qdir,  
Mayda gaplar sig'mas dilimga.  
Aybsiz ketgan ruhlar chorladi,  
Qalam oldim nogoh qo'limga.

Demang tildan doston to'kildi,  
Dildan og'riq, xazon to'kildi.  
Qirqta emas, bir edi jonim,  
Vale qirq ming joydan so'kildi.

Yer yuzida loaqal bir kun,  
Odam nohaq o'lmagan kun yo'q.  
Ko'hna dunyo ko'hna yarangni,  
Nahot bir kun tilmagan kun yo'q.

Qodir Alloh, bandalar o'jiz,  
O'zing qo'lla, yaxshiga naf qil!  
Yer yuzidan, ko'kning ko'zidan,  
Terror degan baloni daf qil.

Tinch tonglarning toza yuzidan,  
Sen uyg'onib, nur tergin, inson.  
Quyoshga boq, o'tli ko'zidan,  
Qalbing uchun qo'r tergin, inson!

O'tgan kuning — o'tgan umringdir,  
Omonliging shukrin qilsang-chi!  
Hatto qush ham uyasini asrar,  
Odamliging fikrin qilsang-chi!

\* \* \*

Qordan qadr so'rama — erib ketar,  
Xazon bolish bo'lmaydi, chirib ketar.

G'anim uydan quvonching terib ketar,  
Xudo bergan baxtingni asray bilgin.

Haqdan so'ra, mushkuling oson bo'lsin,  
Darvozang och, uyingda mehmon bo'lsin.  
Ostonangda oriyat posbon bo'lsin,  
Xudo bergan taxtingni asray bilgin.

Toshdan mehr tilanma, dil to'kilar,  
Bevafoning bag'rida baxt o'kinar,  
Oqilga ham, odilga ham el yukinar,  
El o'g'lisan, ahdingni asray bilgin.

Asray bilgin, osmoningni asray bilgin,  
Bog'ing go'zal, bog'boningni asray bilgin.  
Xush niyatli har millat sig'gan bu yurt,  
Karvon bo'lsang sarboningni asray bilgin.

Bo'lar-bo'lmas odamga bo'zlayverma,  
Haqiqatni har dildan izlayverma,  
Qo'ling yetmas manzilni ko'zlayverma,  
Xudo bergan naqdingni asray bilgin.

Bu dunyoning beliga belbog' yetmas,  
Biz ketamiz dunyodan, dunyo ketmas.  
Mudrab qolsang otar tong, seni kutmas,  
Elim, safda shahdingni asray bilgin,  
Xudo bergan baxtingni asray bilgin.

\* \* \*

Ne qirg'in-barotni ko'rmadi dunyo,  
Turfa razolatlar tig'in qayradi.  
Tarix ko'ksin tilar o'tli bir nido,  
Qonni daryo qilib Chingiz yayradi.

Salib yurishlarning hadsiz janglari,  
Begunoh ellarni qildilar qurbon.

Bugun cherkov inkvizitsiyasin,  
Bashar xotirasi la'natlar hamon.

Fashizm balosin qurboni bo'ldi,  
Million-million odam, bu yer, bu osmon.  
Bog'lar xazon bo'ldi, orzular so'ldi,  
Qalblarning yarasi bitmagan hamon.

Ilashib xayolning aravasiga,  
So'ngra Kommunizm o'ynatdi qamchi.  
Olam quloq soldi tarallasiga,  
Bari sarob ekan, bari aldamchi...

Dinni niqob qilgan g'arazgo'ylar ham,  
Shubha yo'q, qulaydi o'zin chohiga.  
Kelajak oldida, tarix oldida,  
Hali javob berar o'z gunohiga.

Xush tilak xush yoqar, hamisha matlub,  
Mardlar maydon ichra to'kmaydi ko'z yosh.  
Kun kelar, terror ham bo'ladi mag'lub,  
Ezgulik boqiydir, boqiydir quyosh.

### Xotima

*Mening hayotim — ish, uy. Shu xalq, shu mil-  
lat tashvishi. Menda yana nima bor? O'ylayman.  
Ko'p o'ylayman. Kechalari uxtolmasdan chiqaman.  
Mening ham bolalarim, nabiralarim bor. Men ham  
bolalarimning baxtini ko'rmoqchiman. Nabirala-  
rimni uylantirmoqchiman.*

*Islom KARIMOV*

Bu dunyoga biz hammamiz mehmonmiz,  
Har bir odam yaxshi fikr, o'y qilsin.  
Shohmi, gado orzusi bor insonmiz,  
Duo qiling, har bir banda to'y qilsin.

Farzand bersa, bo'y qo'shilsin bo'yiga,  
To'y yarashar har o'zbekning uyiga.  
Yaxshi niyat, yarim davlat, omin deng,  
To'ylar qilsin, el-yurt borsin to'yiga.

Derlar umr — bu Allohning in'omi,  
Nabiralar inson umrin davomi.  
Xush kunlarning sadosidir aslida,  
Yaxshilarga yaxshilarning salomi.

Nabirasin qo'llaridan yetaklab,  
O'zi yurgan yo'llaridan yetaklab,  
Gijinglagan tulporlarga mindirsin,  
Haq yo'lida dillaridan yetaklab.

El dardidan ortarmikan o'zi hech,  
Ortishiga yetarmikan ko'zi hech?  
El dardiga joni fido insonning,  
Qodir Xudo, mushkulini oson yech.

Nabirasi umrining xush navosi,  
Armon otliq shirin dardning davosi,  
Duo qiling, podsholar ham to'y qilsin,  
Niyatiga yetsin Islom bobosi!

\* \* \*

Yo'l yursang har yo'lning poyoni bo'lgay,  
Har ishning yakuni, ayoni bo'lgay.

Dilning izhoriga so'z kerak doim,  
So'zning me'yoriga tuz kerak doim.

Aytayin faxrimni qo'ymasdan nuqta,  
Jonimiz, shonimiz, el tutgan tug'da.

Tafakkur tog'lari elning tayanchi,  
Hikmat bog'larida bordir suyanchi.

Hurligin asraydi jism-u jonida,  
G'urur bor, hurmat bor o'zbek shonida.

Mayli, bir bor aytay, aytayin ming bor,  
Avlodlar biz bilan qilgay iftixor.

Hurlik eshigini ochgan, deb aytar,  
Qullik zanjirini yanchgan, deb aytar.

Alloh ulug'lagan o'zbek nomini,  
Ogohlari qo'rir el oromini.

\* \* \*

Sen ortimdan ta'na toshin otma, g'anim,  
Nomard azal mardlarga tik yo'liqmaydi.  
Alloh shohid, bilgil, xalqim, jon Vatanim,  
Oromingni ogohlaring qo'riqlaydi.

Odam yashar, so'z yashaydi armon degan,  
Shu o'g'lingdek bo'lur asli sulton degan.  
Jon kerakmi, jonim senga qurbon degan,  
Oromingni ogohlaring qo'riqlaydi.

O'zbekiston ko'zimizda yongan shamdir,  
Fidolaring kipriklardan tushmas namdir,  
U otamdir, u onamdir, u bolamdir,  
Oromingni ogohlaring qo'riqlaydi.

Noni qattiq, mayli, oshi yovg'on bo'lgan,  
Mardlar doim yurti uchun qalqon bo'lgan,  
Kim aytibdi, sotqin kaslar inson bo'lgan,  
Oromingni ogohlaring qo'riqlaydi.

Jonim Vatan, jonimizning chashmasisan,  
Sen onamning oppoq sochi, ko'z-qoshisan.  
Millatimning eng keksasi, eng yoshisan,  
Oromingni ogohlaring qo'riqlaydi.

Biz bir emas, bizlar yuz ming, biz millionmiz,  
Biz o'zbekmiz, biz Temuriy Turkistonmiz,  
Bizlar ham hur tug'ilg'onmiz, biz insonmiz,  
Oromingni ogohlaring qo'riqlaydi.

\* \* \*

Doston umri inson umriga o'xshar,  
Bir satri jilmaysa, bir satri qaqshar.

Doston ham tushmaydi asli osmondan,  
Darddan to'kiladi, to'kilar jondan.

O'ylab topilgan deb o'qimang albat,  
O'ylatgan dardlarim bitdim men faqat.

Bori shu, qog'ozda, bandaman ojiz,  
Endi bu daftarni yopmog'im joiz.

O'qib uqqanlarga rahmatim bisyor,  
Ham omon bo'lsinlar, bo'lsin Xudo yor!





*OSHIO OHI*

(Flaxton)

2006- yil





**OSHIQ OHI***(Doston)*

Qo'limga bir daftar tushdi. Ko'nglimga bir oh tushdi.  
Bu daftar bitiklarining har satrida sim-sim dard bor edi.  
Nolalari jonbaxsh edi. Daftar egasi sevgan dil, sevilgan dil  
edi. Ammo baxtsiz edi. U baxtsizligidan shikoyat qilmas edi.  
U Allohni tanirdi...

Ushbu daftarni varaqlab men bu oshiqning ohiga  
ergashdim. O'tligim, olovligim yodimga tushdi. Kuyganlar,  
kuydirganlar haqida kuylagim keldi. Zero, uxlagan bul-  
bul — o'lgan bulbul, dedi ichimdagi ohim...

Tongda shabnam sharbatin ichib,  
Bulbul sarxush g'unchani quchib,  
Mening ham bir kuylagim keldi,  
Sog'inchimning ko'kida uchib.

Osmon yaqin keladi tongda,  
Ko'zda chaqin kuladi tongda,  
Oshiq oqin, bechora oqin,  
Kuylamasa o'ladi tongda.

Sevib qolsang guldaysan, ukam,  
To'kilasan, to'lmaysan, ukam,  
Alpomishdek Barchining bo'lsa,  
Nomardga el bo'lmaysan, ukam.

Kel, qalamning qonin to'kamiz,  
Tosh dillarning jonin to'kamiz,  
Kuygan ko'ngil daftari to'la,  
Bittasining chokin so'kamiz.

Bo'zlayversin keyin o'zlari,  
So'zlayversin keyin o'zlari.

Bizni nogoh sog'inib qolsa,  
Izlayversin keyin o'zlari.

Sevgim... Sog'inch qo'rg'onida samovot sultoniga salovat aytib, dunyoning bevafoigidan o'kingan sevgim. Seni sog'indim. Seni axtargim keldi. Ayt, kimdan, qaylardan so'roqlayin seni?!

Bevafo yorga deb uzgan gullarimning uvollaridanmi?..

Yolg'on orzularga yolvorgan ko'nglimning javobsiz savollaridanmi?

Bulbullar bayotidan iymangan g'unchalar yuzidan to'kilguvchi shabnamlar, ayting...

Rayhonlar bisotidan har tong sochilguvchi atri nasimlar, ayting, ayting, qaylardan so'roqlay?

Umidim ummonida suzib borayotgan oq kemam, xayolim ko'kida bulutlar ko'ksini tilib qanot qoqayotgan oqqushlarim, oqar suvlarga orzularini kokil qilib tashlab qo'ygan ma'suma majnuntollar, ayting, munojotlarim sizga yetib borgaymi?

Dunyoda javobsiz qolgan so'roqdan og'irroq tosh yo'q. Men ko'ksimdagi shu toshni gullatgim keladi. Gullagan toshlar... Naqadar go'zal...

Ey, bevafo dunyoning ko'rguliklaridan zerikkan yulduzlar... Chimdim nuringizni adashgan oshiqdan darig' tutmang. Agar bilsangiz, tun ko'ksini kuydirguvchi bir oh bor. Bu oshiqlar ohi...

Bir oh bor totli biram,  
Chekkuvchidan jon olgan.  
Bu oh asli dunyoga,  
Majnundan meros qolgan.

Mening sevgim, sen qanday oh uradirsan? Har ohingdan bir gul ochilgaymi? Ko'nglim vafo gulining rasmini chizishni istaydi. Agar qo'rqsang sevishni

bilmagan odamlardan qo'rq, ko'nglim. Sen esa sevishni bilasan!

Gul nima, gulzor nima,  
Ko'ziga ilmaganga.  
Sevgi sovuq so'z erur,  
Sevishni bilmaganga.

Majnun kim, kimdir Layli,  
Ular nur ishq tufayli.  
Achinsang achin, mayli,  
Sevishni bilmaganga.

Shabnamlarda shakl yo'q,  
Kapalakda jahl yo'q,  
Chumolida aql yo'q,  
Sevishni bilmaganga.

Gulning ishi pardozdir,  
Bulbullar ishratbozdir,  
To'rt fasl birday yozdir,  
Sevishni bilmaganga.

Yomg'irlarda yig'i yo'q,  
Maysalarning tig'i yo'q,  
Ko'ngilning hech cho'g'i yo'q,  
Sevishni bilmaganga.

Oy nima, bir parcha dog',  
Quyoshmi, bitta chiroq,  
Yulduzlar bizdan yiroq,  
Sevishni bilmaganga.

Diydor nima, to'qnashuv,  
Ishq nima, ishratlashuv,  
Ko'z yoshmi, yuzdagi suv,  
Sevishni bilmaganga.

Men yig'layapman, sevgim. Yig'lashni bilmaganlar uchun yig'layapman. Agar bilsang, menga yig'lashni shabnamlar o'rgatgan. Shabnamlar... Ular yerdagi poklik tumorlari. Shabnamlar qanday hosil bo'ladi, kuzatganlar bormikan? Bo'lsa, ular baxtli odamlar. Odamzod qilgan gunohlarini yuvishni tongda shabnamlar boshlab beradi. Ular muhabbatdan yiroq, oqibatdan yiroq kaslar uchun tonggacha yig'lab chiqadilar. Keyin... keyin quyosh chiqadi. Agar quyoshning tilini biladigan odam bo'lsa, uning ilk xitobi „Shabnamlarimga tegmang“, degan so'zdan boshlansa kerak. Chunki quyoshning yer yuzida qilgan birinchi ishi ham shabnamlarni bitta-bitta terib olishdan boshlanadi.

Men yig'layapman, sevgim, menga yig'lashni shabnamlar o'rgatgan. Dunyoni sevgi asraydi deyдилar. Sevgini kim asraydi? Sevgini nima asraydi? „Poklik, poklik“, degan hayqiriq otilib chiqadi, dilimdan. Shabnamlardek poklik...

Aslida ham pok odam gunoh qilishdan qo'rqadi. Har bitta maysaning, har bitta gulning, har bitta yaproqning yuzini yuvish... Naqadar go'zal, naqadar ilohiy hikmat bor shabnamlarning qisqa umrida. Qaniydi, kirlangan dillarni ham maysalarning yuzlarini yuvgan kabi yuvib bo'lsa. Har tong odamlar ko'chaga tozarib, yosharib chiqardilar. Toza xayol insonlar muhabbatga xiyonat qilmaydilar. Sevgiga sadoqat ko'ngildagi toza tilakdan boshlanadi.

Men olamni, odamlarni ana shunday toza, beg'ubor tasavvur qilishim bilanoq, ko'ksimda gullar chapak chaladi. Ko'zlarimdan shabnamlar tomchilay boshlaydi. Ammo Xudoyimga yig'lash alamdanmi u, quvonchdanmi u, ko'ngilni tozartiradi. Menga Xudoyimga yig'lashni shabnamlar o'rgatgan, sevgim! Bilsang, shabnamlarda shifo bor.

Inson ko'ksin tog' qilgan,  
Dilning dilga vafosi.  
Ko'ngillarni chog' qilgan,  
Shabnamlarning shifosi.

Tongning toza marjoni,  
Ishq ahlining darmoni,  
Ishqsizlarning armoni,  
Shabnamlarning shifosi.

To'kilsa bulbul bo'zi,  
G'unchaning xummor ko'zi,  
Diydamdagi dur o'zi,  
Shabnamlarning shifosi.

Gul yuzida ziynati,  
Tongning toza sharbati,  
Xudoyimning himmati,  
Shabnamlarning shifosi.

Samoviy salom berar,  
Mast dillarga jom berar,  
Oshiqqa orom berar,  
Shabnamlarning shifosi.

Hammaning qo'li ham osmonga yetmaydi. Juda g'alatiku, kimning qo'li yetadi o'zi osmonga? Hech kimning desam yuragim qinidan chiqib ketadigandek. Yo'q, yo'q! Oshiqlar osmonga ko'ngil bilan yetadilar. Ko'ngil ko'zi yetgan manzil esa go'zal bo'ladi. Chunki oshiqqa xarobada joy yo'q. Xaroba — zog'larniki. Dunyoda zog'lar borligini eslash ham tovonida tikan bilan yurgan odamdek kishini bezovta qiladi.

Odamlar timsolidagi zog'lar ag'yorlardir. O'ylab qolasan, qaysi zamonda oshiqqa oson bo'lgan. Nazdimda bunday zamon endi kelmasa, shunday zamonda yashadim, deb ko'kragiga urgan oshiqni topib bo'lmas. Zero, to'rtta

qarg'a bir joyga jam bo'lsa, bulbulning hazin nolasini yutib yuborishi tayin.

Bulbul bo'lib tug'ilish va bulbul bo'lib o'lish Alloh xush ko'rgan oshiqlikning oliy maqomidir.

Sevmoq go'zal, sevilmoqlik xush,  
Sevmagan dil osmon bo'lmagan.  
Ey sen ko'ngil, osmoningdan tush,  
Oshiqlarga oson bo'lmagan.

Tarix guvoh, taqdirlar guvoh,  
Har oshiqqa tutmaslar chiroq,  
Alloh o'zi bo'lguncha panoh,  
Oshiqlarga oson bo'lmagan.

Qays qayg'usi qarimaydi hech,  
Layli dardi arimaydi hech,  
Ag'yor deydi: bir-biringdan kech,  
Oshiqlarga oson bo'lmagan.

Ko'ngil ko'zi qo'l yetmas chiroq,  
Faqat uni so'ndirur firoq,  
Oshiq ohi ko'kdagi chaqmoq,  
Oshiqlarga oson bo'lmagan.

Lovullagan lolalar aytar,  
Ko'zlardagi jolalar aytar,  
Yulduz bo'lgan nolalar aytar,  
Oshiqlarga oson bo'lmagan.

Bolish baxtdin balqib yotguncha,  
Ikki ko'ngil qalqib yotguncha,  
Diydori dur tonglar otguncha,  
Oshiqlarga oson bo'lmagan.

Ayt, shoir, kimga oson bo'lgan o'zi bu dunyoda yashash? Buncha lovullaysan, ohimda olov bor deysan...



Sevgining go'zal suvrati sukunatda emasmi? Qancha ko'p shang'illagan odam shuncha samimiyatdan yiroq emas-mikan... Hech kimdan sukut sabog'ini olganing yo'qmi?..

Darvoqe, rahmatli padari buzrukvoringni biror marta bo'lsa ham sevgi, sadoqat, muhabbat haqida jo'sh urib gapirganini eshitganmisan?.. Nazdingda volidangni, siz o'g'il-qizlarini sukuti ichra sen junbushga kelganingdan ko'ra ortiqroq sevmasmidi.

Zotan, ko'zdagi muhabbat, dildagi muhabbat shovqinli so'zlarga sig'adimi o'zi? Sevishni, sevilishni o'rgatadigan muallim bormikan, bu dunyoda aslida? Aytishlaricha, Parvardigor inoyati ila yog'ayotgan yomg'irning har bir tomchisi shakli nuqtayi nazardan bir-birini takrorlamas ekan. Xo'sh, bir qalbnning sevgisi o'zining quvonch-u tashvishlari, alam-u armonlari bilan o'zga inson qalbida takrorlanishi mumkinmi?..

Savol berib, javobini o'zi topgan odamga Tangrining nazari tushgan bo'lsa, ajabmas. Sevaman deb ayuhannos solmasdan turib ham sevishga jur'ating yetadimi o'zi?.. Aytchi, maysalar birovdan so'rab nish uradilarmi, g'unchalar kimning ruxsati ila lab ochadilar?.. Suv so'rab oqmaydi, shamol so'rab esmaydi. Axir qaldirg'ochlar sening izningsiz ayvoning peshtoqiga in qo'ymaydilar mi?

Sen sevishni odamlardan emas, qaldirg'ochlardan o'rgansang yaxshi bo'lar. Chimdim loydan beshik belayotgan qaldirg'ochlar balki bir-birlarini sendan kam sevmaslar. Ularni Momo yerga, Yaratganga bo'lgan muhabbati ham balki senikidan ziyodroqdir.

Biz sevishni o'rgansak arzir,  
Qaytib kelgan qaldirg'ochlardan.  
Muhabbatning ko'hna qo'shig'in,  
Aytib kelgan qaldirg'ochlardan.

Momo yer ham bir malak asli,  
Unga oshiq bu falak asli,  
Sabot o'rgan, odamzod nasli,  
Qoyadek cho'ng qayrag'ochlardan.

Ildizini uvol qilmagan,  
Minnatini savol qilmagan,  
Bir-biridan sira kulmagan,  
Hurmat o'rgan gul, og'ochlardan.

Vafo jomi to'kilar, to'lmas,  
Ishqli uyda chechaklar so'lmas,  
Lek sevishni o'rganib bo'lmas  
O'zi to'q-u ko'zi ochlardan.

Cho'qqiga chiqmagan odam ulug'likni xayolida kashf etadi. Cho'qqiga chiqqach esa undan-da yuksakroq parvoz qilish orzusi jo'sh uradi, qalbida. Chunki tirik odamning orzusi arimaydi. Shuningdek, muhabbat gulshaniga kirgan odamning hayrati cheksiz. Oshiq dilga olam benihoya go'zal ko'rinadi. Go'yoki xasda ham hayot bordek, xazonlar xirgoyisida baxtning bayotini tuyadi, oshiq. Uning ko'ziga toshlar ham tilovat qilayotgandek...

Oshiq xayolida yuz ochgan sanamning oq harir ro'moli hayodan to'qilgan bo'ladi. Oshiq dil suqlikdan yiroq yuradi. Majnun uchun Laylidan, Farhod uchun Shirindan, Tohir uchun Zuhrodan bo'lak dildor yo'q, dunyoda. Oshiqning kirgan bog'i Vafo, suyangan tog'i — Sadoqat. Chin oshiqni yordan ayirishdan ko'ra jonidan ayirish oson.

Oshiq Alloh xush ko'rgan banda. Sevgan odamning yashagisi keladi. Sevilgan ko'ngil baxtdan balqib ketadi. Yoriga gul ko'tarib ketayotgan yigitning ko'zlariga qarang. Ishq mayidan, kutilayotgan diydor mayidan sarxush bu ko'zlar. Uning shu tobda yo'lini to'sib, dunyoning boyligini

va'da qiling, boylikka qo'shib dunyosiga o't qo'yib yuboradi oshiq. Oshiq ko'ngil — ozoda ko'ngil. Oshiq ko'ngil — dunyodagi eng boy ko'ngil. Asil oshiq o'zini olam xoqonlari taxtidan balandroqda his qiladi. Uni faqat hijron tushirishi mumkin, bu taxtdan.

Ayo do'st, gar ko'ngling ozoda erur,  
O'zga dil uchun ham andoza erur.

Ey do'st, oshiq bo'l, oshiqqa havas qil. Yosharib yashaysan, yashnab yashaysan! Qalbingda totli dard yuz ochadi. Bu dardning darmoni — shirin diydor. Ikki dil diydoridan to'kilgan nur qadlarni qalqitadi, qablarni balqitadi. Diydor ostonasi bu baxtning ostonasidir. Baxtli oshiq bo'lish — sadoqat qo'rg'oniga bek bo'lishdir. Yorga sadoqat — bu Haqqa sadoqatdir.

Sevib yashaganlar sultondek yashar,  
Yulduzlarning guli Cho'lpondek yashar.

Tun ko'ksin yorurlar bo'lib nur talab,  
Oy dog'in terurlar bitta-bitalab.

Oromni osmonga otib yasharlar,  
Xayolida baxtga botib yasharlar.

O'z ko'ksini o'zi etar lolazor,  
Jonini chimchilar bir shirin ozor.

Yomg'irlar ularning yodiga yog'ar,  
Diydor tilaganda dodiga yog'ar.

Kelar ohlarini toshga o'ygisi,  
Zog'lar zaboniga shakar qo'ygisi.

Kurtaklar ko'zidan kulgu terarlar,  
Shabnamlar yuzidan yog'du terarlar.

Sevib yashaganlar shundek yasharlar,  
Osmonga sig'magan kundek yasharlar.

Yashar, kelar baxtning bog'boni bo'lib,  
O'n sakkiz ming olam sultoni bo'lib.

Oshiqlar qandayin yosh to'kar demang,  
Oshiqlar qandayin oh chekar demang.

Oshiqlar Allohni olqishlab yashar,  
Oshiqlar tilida gul tishlab yashar.

\* \* \*

O'lsang arzir dunyoda bir bor,  
O'z yeringga ko'milmoq uchun.  
Lekin avval yashaylik dildor,  
Sevmoq uchun, sevilmog uchun.

Majnuntollar o'sar muloyim,  
Suv qoshida egilmoq uchun.  
Umr bergan bizga Xudoyim,  
Sevmoq uchun, sevilmog uchun.

Qo'shiqdan ham qon oqar ekan,  
Dil tubiga quyilmog uchun.  
Oshiq qalbda o't yoqar ekan,  
Sevmoq uchun, sevilmog uchun.

Biz ag'yorni inkor etmaymiz,  
Yashar qo'rni kul qilmoq uchun.  
Biz ko'ngilni ko'kda tutgaymiz,  
Sevmoq uchun, sevilmog uchun.

Avval dilni tozalab oling,  
Shabnamlarda yuz yuvmoq uchun.  
Qalbingizni ko'zguga soling,  
Sevmoq uchun, sevilmog uchun.

Uzilgan gul egasin topsin,  
Xazonlar ko'p o'kinmoq uchun.  
Xiyonatning eshigin yopsin,  
Sevmoq uchun, sevilmoq uchun.

Yaxshilarning yodi ham chiroq,  
Shahdi yetar tosh tilmoq uchun.  
Ey do'st, bo'lsin jonimiz chaqmoq,  
Sevmoq uchun, sevilmoq uchun.

Sevgim... Mening qoraqosh, qorako'z, oq atirgullardan ham oppoq sevgim. Men seni sog'indim... Ayt, men sukutga, sukunatga sig'masam ne qilay? Nasihatlarga, nadomatlarga sig'masam ne qilay? Majnunlikdan or qilgan oshiq tulpor tuyog'idagi xasdan ham pastdir. Muhabbatin yashirgan oshiq gunohini yashirgan bandadan ham gunohkorroqdir.

Sevgim... Dilim yig'la desa, g'ururim yigit kishi ham yig'laydimi deya osmondan keladi. Xudoyimdan visol tilab, Xudoyimga yig'lay bilgan oshiqdan ham baxtli inson hormikan o'zi? Tutdek to'kilgan yuragimga kaftlarimni tutgandim, qon tomdi... Shu qon bilan oppoq daftarga ohlarimni bitmoq istadim, sevgim.

Atirgullarga tikilsam, tikonlarining ori keldi... Rayhonga barmoqlarimni tekkizsam, sabolar siltab tashladi. Bu dunyoda hamma narsaning, hatto xasning ham, xazonlarning ham o'z egasi bor, sevgim. Mening sendan boshqa kimim bor? Kuygan ko'nglim va kuydirgan sevgim. Seni sog'indim... Sening ismingni bu tun tonggacha ko'ksimga bosib yotdim. Kuydi ko'ksim, kul bo'ldi ko'ksim...

Agar bilsang oshiqlar tongdan uyaladi, Allohdan uyalgandek. Odamzod gunohkor ko'z bilan shabnamlarga, maysalarga, gullarning yuziga qandoq qararkin? Gunohkorligini bilsa tog'lar ham qalqib ketsa kerak, nechundir ayrim kimsalar tepsa ham tebranmaydilar.

Chunki ular sevgidan yiroq, muhabbatdan, vafodan yiroq...  
Sen dilbarsan, sen dildorsan, mening sevgim. Seni so-  
g'indim...

Yaqin kelma, mayli uzoq yur,  
O'islardan ko'rsat bo'yingni.  
Kecha menga maqtadi bir sur,  
Otang qilib bergan to'yingni.

Bo'yning to'la oppoq marjonlar,  
Jism-u joning oq harir ekan.  
Bilarmikan sendek jononlar,  
Odam rashkdin tez qarir ekan.

Yuzlaringga sig'magan kulgu,  
Bugun endi kimlarga tortiq.  
Qaqshar dilda tosh tekkan tuyg'u,  
Nega sevdim jonimdan ortiq?

Oh, bag'rimda bahordek balqib,  
Turganlaring oy ko'rgan edi.  
Shamshod qadding ketganda qalqib,  
Toshlar titrab soy ko'rgan edi.

Chehramdagi shodlik shodasin,  
Marjon qilib taqqan kunlaring.  
Labingdagi lazzat bodasin,  
Yodingdami tutgan tunlaring.

Bugun endi gunohing quchib,  
Qandoq kirding o'zga og'ushga.  
Jonim ketdi qoshingga uchib,  
Vijdonimdan qolib qarg'ishga.

Qandoq senga baxtli bo'l deyman,  
Baxt tilamay qaytib yashayman.  
Gunohini hech yuvmagan,  
Suvda yotgan toshga o'xshayman.

Sevgim... Mening g'aribgina sevgim... Agar bilsang shu toshlar ham bizlardan baxtliga o'xshaydi. Toshda baxt nima qiladi, deysanmi?.. Baxt nima o'zi? Birovni baxtli qilishmi? O'zganing baxtini tortib olish-chi? Toshlar nima uchun baxtli? Ularga o'zganing baxti kerakmas, hech kimga ozor yetkazmaydi. Faqat ularga qoqilib ketmasang, beozor toshni olib o'zgaga otmasang bo'ldi... ularning sen bilan ishi yo'q.

Bilasanmi, toshlar yana nima uchun baxtli. Odamlar haqiqiy oshiq-larni o'ldirib qo'yadilar-da, keyin qabrlariga toshlardan haykallar qo'yadilar. Ag'yorlar gunglarni, soqovlarni yaxshi ko'radilar. Shu bois ular toshlardan OSHIQ yasaydilar.

Oq toshlardan, qora toshlardan,  
Ko'k toshlardan oshiq yasarlar.  
Tosh haykallar poyiga cho'kib,  
Ko'z yoshlardan oshiq yasarlar.

Gapirmasa, bo'zlamasa bas,  
Quchoq-quchoq gullar to'sharlar.  
Oshiq toshni, oshiq haykalni,  
Muhabbatga ko'mib tasharlar.

Toshlarni qo'y, mening sevgim. Ular bilganicha yashashsin. Bizlar tili, dili bor oshiq-larmiz. Bizning ohimiz ularni kuydiradi, kul qiladi. Qachon zog'lar bulbulning nolasini xush ko'ribdi? Mayli, biz zog'larni toshlarga, toshlarni zog'larga berdik. Bizlar zabanimizdan olov sachratib oh chekamiz. Bu bir ohki, unda bizning murodimiz bor. Bu bir ohki, uning olovida gullar ochilgay. Bu oh toshlarni ham odam qilsa ajabmas.

Bir ohki, ozori o'zgaga tegmas,  
Bir ohki, qaddini nomardga egmas.

Bu ohning nurlari dil qatin ochar,  
Yuraklar yuziga boychechak sochar.

Bir ohki, bodomlar gulidayin xush,  
Tosh yurak kasni ham qiladi sarxush.

Bir ohki, til bilan qilmaydi janglar,  
Banda anglamas, Xudoyim anglar.

Bu ohning rozlari mehrobga yetgay,  
Tunda oy, kunduzi oftobga yetgay.

Bir ohki, xiyonat hukmidan yiroq,  
Ishq ahlin qo'liga tutadi chiroq.

Bir ohki, yuz karra totib to'ymaysan,  
Bir cheksang dilingdan sira qo'ymaysan.

Bu ohni gado ham, sulton ham suyar,  
Bu ohning oromi o'ldirib qo'yar.

\* \* \*

O'n to'rt kunlik oy eding sen,  
Men ming yillik oshiq edim.  
Mingta bulbul ming oh chekib,  
Kuylolmagan qo'shiq edim.

Asrlarning ori yashar,  
Haqiqatning hikmatida.  
Qalampirning guli bo'lding,  
Bevafolar bekatida.

Boshim olib ketay desam,  
Tiriklarga borar joy yo'q.  
Yer qa'rida otash bo'lsam,  
Mayitlardan chiqmaydi cho'g'.



Osmonlarda yashaymiz biz,  
Sevgimizning ohi bilan.  
Bunda toshlar yashayversin,  
Yerning sendek mohi bilan.

Yerga tushsak gul ekurmiz,  
Oshiqarning mozoriga.  
Ruhimiz ham qiyo boqmas,  
Muhabbatning bozoriga.

Mening sevgim... Sen ko'nglim qulog'iga shivirlading:  
„Jahl qilma, uning ismini aytma, biz uning o'zini  
asrolmadik, endi ismini yomon ko'zlardan asraylik“,  
deding. Eh sevgim, shunchalar pok xayollar og'ushi-  
dasanki, seni ranjitish gunoh. Ushbu bitiklarimni o'qib  
turib bizga xayolan „Uning ismi nima?“ deya so'roq-  
layotganlarga javobimiz shu:

Uning ismi tilni gul qilar,  
Biz ismidan ifor tergaymiz.  
Hatto ismi o'zga qul qilar,  
Biz ismini yelga bermaymiz.

Uning ismi kelmagan bahor,  
Yo'llarida qahraton qoya.  
Yot tillarda topmasin ozor,  
Hasad, ig'vo solmasin soya.

Uning ismi ko'ngil qatida,  
Sog'inganda bir jilmaysa bas.  
Ohlar olov bo'lgan paytida,  
Ismin aytib olamiz nafas.

Uning ismin Xudoyim qo'ygan,  
Oyatlarday oromi bordir.  
Bizga yotdir yomonga yo'ygan,  
Uning ismi dildagi ordir.

Uning ismi yurakka ko'chgan,  
U jonimiz jamolidek xush.  
U ko'ksimiz ko'kidan uchgan,  
Endi sira qaytib kelmas qush.

Mening daryo ko'nglim, bilsang, muhabbat osmoni-ning farishtalari, vafo malikalari Layli, Shirinlarning ismlaridan ham nur taralib turadi. Ular asrlar osha pokiza ismlari bilan yuraklarda yashaydilar. Ayol zotini sadoqatga, vafoga chorlaydilar. Bu ismlarni dilda, tilda takrorlagan oshiqning ko'nglida vafo yuz ochadi. Yigitki bor, o'z yorlaridan shunday diyonat, sadoqat ko'rishni istaydi. Vale baxtning oftobi hammaning boshiga birdek tushmaganidek, vafo ko'rsatib yashash, vafo ko'rib yashash har kimga ham nasib qilavermas ekan.

Biz ismi go'zal yordan vafo ko'rmadik. Ayb kimda?! Kim kimni asrolmadi? Biz rashkning quli bo'ldik, biz gumonning quli bo'ldik, sevgim... Bilmadikki, jahl aqldan, gumon iymondan ayirmish. Bizning qalblarga gumon solgan, qarolik istagan qora botirlar allaqachon Yaratgandan o'z jazolarini olib, yuzlari ham qaro bo'lgan. Biz-chi, kech ochilgan ko'zlar, ko'nglimiz ko'kidan qaytmas bo'lib uchib ketgan oqqushlarimizni sog'inib yashamoqdamiz, o'rtanib yashamoqdamiz. Ishq ahlining yo'llariga, dillariga hamisha tuzoq tashlaguvchi qora botirlarga ham umr tilaguvchilar bormikin, sevgim?! Birovga o'lim tilamoq gunoh. Ammo qora niyatli qora botirlarga umr ham tilab bo'lmaydi...

Ishq bog'ida ungan tikonlar,  
Tovoningni poylab yoturlar.  
Ular abad ozori jonlar,  
Qora yurak, qora botirlar.

Baxti borni ko'rolmaganlar,  
Tosh otmayin turolmaganlar,  
Yomonliksiz yurolmaganlar,  
Qora yurak, qora botirlar.

Qo'llaridan tushmaydi tuzoq,  
Ikki dilning arosinda tog',  
Gul shoxida qishlaydigan zog',  
Qora yurak, qora botirlar.

Yuzlarining qarosi ketmas,  
Ko'chasidan ilon ham o'tmas,  
Ko'nglida hech oppoq tong otmas,  
Qora yurak, qora botirlar.

Ko'zga tushgan cho'pdayin yomon,  
Boshga tekkan toshdir har gumon,  
Ayting, qandoq yurursiz omon,  
Qora yurak, qora botirlar.

Sevgim... meni sog'intirgan, meni sog'ingan sevgim. Biz kimdan gina qilayapmiz o'zi? Ayt-chi, biz kintlardan, ginalardan, hasadlardan ustun emasmizmi? Biz oshiqmiz, biz Alloh bandasi. Alloh oshiq'larni xush ko'rur. Demak, biz Allohnik, Alloh biznik. Bizga yarashgani oshiq qilib yaratgani uchun Xudoyimga shukrona aytish. Zero, oshqlik go'zal qalbgga sohib bo'lish. Bunday sohiblar vafoga sultondir. Bizning ohimizni hurlar eshitmasa, parilar tinglamasa, guloyimlar qaramasa... ularning barchasini yaratib qo'ygan eshitguvchi, tinglaguvchi, nazar qilguvchi Alloh bor. Biz baxtlimiz. Oshiq bo'lganimiz uchun baxtlimiz. Tosh emasmiz, tuproq emasmiz. Biz insonmiz! Biz non tilab, bol so'rab, qornimiz qayg'usida oh chekayotganimiz yo'q!

Biz ko'nglimiz bog'idagi gullar so'lishini istamaymiz.  
Biz ularni diydamiz shabnamlari bilan jonlantiramiz. Zero,  
oshiq tirik ekan, oh chekib orom oladi.

Doston bitdim, bilguncha yozdim,  
Ko'ngil chimdim to'lguncha yozdim.

Yo'qdan sira bor qilganim yo'q,  
Oshqlikdan or qilganim yo'q.

Oydan tushmas oshiqlar o'zi,  
Oshiq ohi — ko'ngilning bo'zi.

Shabnamlardan shifo tiladim,  
Men toshlardan vafo tiladim.

Tikonlarning tig'ida o'sdim,  
Qaldirg'ochlar — ming yillik do'stim.

Men ohimni bir mohga aytdim,  
U bilmadi, Allohga aytdim.

Har bandaga Haqning hukmi bor,  
Oshiqlarga o'zi bo'lsin yor!



KO'NGIL  
DARVOSIDAN  
FO'KILGAN  
HIKMAT

*(To'rtliklar)*

*(Ikkiliklar)*

*1999 ~ 2006- yillar*





## TO'RTLIKLAR

Tomga chiqmoq bo'lsang bir narvon yetar,  
Tushar chog'ingda ham u qo'ldan tutar.  
Umringning iziga boqib ko'r, Mahmud,  
Kimga kerak bo'lding, seni kim kutar.

\* \* \*

Bu dunyoning bozoridan mozori yaqinroqdir,  
Rohati sal narida, ozori yaqinroqdir.  
Hijroni har qadamda, kim agar diydor talab,  
Baland tog'lar qoridan soch qori yaqinroqdir.

\* \* \*

Chiroqning chiroyi yonsa ko'rinur,  
Parvona visolga qonsa ko'rinur.  
Vatanni toabad yoritib yashar,  
Millat boshidagi asil Ko'hinur.

\* \* \*

Qarmoq tutgan qalbida qo'shiqmas, baliq yodi,  
Qarmoqmas, suvni yoqar asira baliq dodi.  
O'tkinchi bu dunyoda o'tinchini xorlama,  
G'ururiga qoqilgay beklarning mingan oti.

\* \* \*

Bir qarasang umring ko'p uzun,  
Qara, yashab qo'yibsan bugun.  
Payg'ambar ham bilolmay ketdi,  
Kelarmikan, ayt, ertagi kun.

\* \* \*

Egilganga egilmakni istayman,  
Magar sevsam sevilmakni istayman,  
Vafo shevasida tutdek to'kilsang,  
Yuragimni pok kaftimda tutay man.

\* \* \*

Izzat bor, hurmat bor o'zbek to'nida,  
 Sharqona hikmat bor o'zbek to'nida.  
 Do'ppi-yu belbog'in qo'shib bersalar,  
 Qon qadar qimmat bor o'zbek to'nida.

\* \* \*

Yukungan bandani yukin olgaysan,  
 Qalbin qaritmaysan, ishonch solgaysan.  
 Makka mirobligini davo qilmasman,  
 Xudoyim, hurlikda jonim olgaysan.

\* \* \*

Archib qo'ygan olmaning orazida oftob yo'q,  
 Gul qog'ozning qatida qalqib turgan gulob yo'q,  
 Siyrat bilan suratning o'rtasida nima bor,  
 Jovdirashib turarlar, bu jumlagi javob yo'q.

\* \* \*

Kelayotir odamlar, ketayotir odamlar,  
 Otlar solib oyga ham yetayotir odamlar,  
 Har ko'ngilda turfa ming ko'cha bor deb kerilar,  
 Bir ko'ngilga yo'l topmay, o'tayotir odamlar.

\* \* \*

Shayton seni zinhor gunohkor demas,  
 Senga yediradi u, o'zi yemas,  
 Nafsing ko'chasida gar eshik qoqsang,  
 Taom ye, it ichgan taboqdan emas.

\* \* \*

Ay, mohim, siz asli baxtga bezaksiz,  
 Quyosh chiqolmagan taxtga bezaksiz.  
 Jannatniy hurlardan Mahmudga ne naf,  
 Ko'z ko'rib, qo'l tutgan naqdga bezaksiz.



\* \* \*

Ay, mohim, o'zingni unutgin bir dam,  
So'zlama, so'zingni unutgin bir dam.  
Qo'shilib qovrilsak ishq otashida,  
So'ng bizga kor qilmas do'zax o'ti ham.

\* \* \*

Ay, mohim, sen bo'lsang oftob kerakmas,  
Ishq rozi bitilgan kitob kerakmas.  
Ko'zingdan, so'zingdan, o'zingdan mastman,  
Gul ohi qalqigan gulob kerakmas.

\* \* \*

Bu jonim jamoling tashnasi erur,  
Jamoling jonimning chashmasi erur.  
Intilgan irmoqman, daryosan gulim,  
Uchrashsak ummonning havasi kelur.

\* \* \*

Oqayotgan daryoga oq yo'l tilar irmoqlar,  
Irmoqlar umrin tilar qaqrab qolgan qirg'oqlar,  
Yor, zulfingiz to'lqinin tomchisiga tashnaman,  
Silasa sayrab ketar bo'zlab yotgan barmoqlar.

\* \* \*

Siz oyga osilmang, narvoningiz yo'q,  
Quyoshga qo'l cho'zmang davroningiz yo'q.  
Yulduzlar uzoqda, yetmaysiz aniq,  
Chunki qalbingizda osmoningiz yo'q.

\* \* \*

Sen mening mehrimdan olislab ketma,  
Jindek himmatingni hech darig' tutma.  
Har yukni qo'sh qo'llab ko'tarsak agar,  
Tog'lar yelka tutar bizga, unutma.

\* \* \*

Ey ko'ngul, o'zgradamas, hayronlig' o'zingdadir,  
 Bu quvonch qasri ichra vayronlig' o'zingdadir.  
 Oshiqlik armonini har kim ko'tarmas, Mahmud,  
 Ishq ahli kutgan sharbat, shoirsan, so'zingdadir.

\* \* \*

Nokasga yukinib yashab netaman,  
 Dilimda borini aytib ketaman,  
 Deyman-u, tilimni chog'lagan paytim,  
 Diyonat nahriga cho'kib ketaman.

\* \* \*

Ayt, oyga osilib kim yashab o'tgan,  
 Yantoqni tagiga kim to'shab o'tgan,  
 Tosh ko'ngling toshni ham ko'rmaydi ravo,  
 Payg'ambar ham o'z rizqin oshab o'tgan.

\* \* \*

Yursang izlaringga yolg'on to'kilar,  
 Joningda chirqillab iymon o'kinar,  
 Fisq-fasod olamin sultoni shayton,  
 Yo rab, seni ko'rsa u ham chekinar.

\* \* \*

Qor yog'sa eriydi, qalb muzlamasin,  
 Eshikdan kirolmay baxt bo'zlamasin.  
 Baxt kirs a bag'ringga mahkamroq bosgin,  
 Chiqib ketishga hech yo'l izlamasin.

\* \* \*

Sen mendan tonishga yo'l axtarding ko'p,  
 Qatlimning qasdida qo'l axtarding ko'p.  
 Qismatkim qa'riga o'zingni tortdi,  
 Ko'zni ochar ekan ko'zga tushgan cho'p.

\* \* \*

Qalam tutish mumkin istagan odam,  
 Barchaga yetadi toza qog'oz ham.  
 She'r sharbat, shoirlilik shuhrat deb bilsang,  
 Hech qachon izimdan yurmagin, bolam.

\* \* \*

Oromni oqshomdan izlaydi odam,  
 Tunni kutib yotar ko'rshapalak ham,  
 Ko'rshapalaksifat odamlardan qo'rq,  
 Ular tun-kun odam tanimas, bolam.

\* \* \*

Sen ko'ngil gulini arzonga sotma,  
 G'aflat beshigida bek bo'lib yotma.  
 Ortingdan tosh o'tsa qoqilmagaysan,  
 O'zing yo'ldan chiqqan tosh bo'lib yotma.

\* \* \*

Chirsillagan cho'g'ning jamoli o'zga,  
 U bilmas bir zumda aylanar kulga.  
 Shoirlar o'ziga sig'maydi demang,  
 Bir bog' torlik qilar oshiq bulbulga.

\* \* \*

Har jonning chashmasi farzand bo'ladi,  
 Dil ichra nurli dil dilband bo'ladi.  
 O'g'lin el alqagan ota-onaning  
 Ko'ksi tog'lardan ham baland bo'ladi.

\* \* \*

Men shuncha chidadim gulning qahriga,  
 Bolin bolarilar totib ketdilar.  
 Yellar ham to'ydilar obdan mehriga,  
 Xazon bo'lgach esa otib ketdilar.

\* \* \*

Tama tobog'ini tutganda shayton,  
Farishta yig'larmish: „Ichma, ey nodon!“  
Rost-u yolg'on aro qalqib turgan zot,  
Unutma, do'st bitta, u Alloh, Rahmon.

\* \* \*

Jonimdan tomchilab tomar bir tuyg'u,  
Kiprigim qatidan sizadi qayg'u.  
Sen buni ko'rmasan, senga ko'rsatmas,  
G'aflat beshigida mastona uyqu.

\* \* \*

Yashash qiyin non bo'lmas tishida,  
Tiriklar tirikchilik tashvishida,  
Gunoh, savob orasinda rizq izlar,  
Adashmaydi Xudo tursa xushida.

\* \* \*

Tilingdan tushmasa shaytonning so'zi,  
Seni chorlab turar har chohning ko'zi,  
Qoqilsang zamondan nolima, nodon,  
Sohibi zamondir Allohning o'zi.

\* \* \*

Bu jaf o jon ichradir, jonga omonlik istadim,  
Qush qidirgan ul ziyo, donga omonlik istadim.  
Keturmiz deb bo'zlama bu dunyo diydasi toshdan,  
Kelguvchi ham Haq bandasi onga omonlik istadim.

\* \* \*

Qushning qanotini juft yaratmishdir,  
Yel o'psa rayhonlar bo'y taratmishdir.  
Soz nechun yurakni yondirar demang,  
Oshiqlar ohidan kuy yaratmishdir.

\* \* \*

Zulf zari u tillo taroqda emas,  
Qor yog'sin va lekin qaboqdan emas,  
Biz sizga suykalmay suyiblar yurdik,  
Bir bo'sa tilansak gunohkor demas.

\* \* \*

Guldan so'rsam, gulob bo'laman deydi,  
Dildan so'rsam rubob bo'laman deydi,  
Yorga dedim: kelgil, sen ham ko'ngling och,  
Seva bilsang, oftob bo'laman deydi.

\* \* \*

Er yigit ko'ksida jonmas, or yashar,  
Ayting, kim onadek intizor yashar.  
Qarg'a qishni asrab qolibdi qachon,  
Har nihol ko'rkida bir bahor yashar.

\* \* \*

Seni keriltirar tekin yog'li non,  
Oringni keltirar men ichgan yovg'on.  
Yuragim taftida qaynaydi, bilsang,  
Shu qora qozon-u shu qora qumg'on.

\* \* \*

Sabodan sachragan sadoni suydim,  
„Segoh“ sehridagi sahroni suydim.  
Savdoyi Sayxunman, so'rmading, sanam,  
Sitamlaring solgan savdoni suydim.

\* \* \*

Tavoze mezbonning yuzidagi nur,  
Tashakkur mehmonning ko'zidagi nur.  
Va lekin davrani munavvar etar,  
Bir oqil odamning so'zidagi nur.

\* \* \*

Har qushning qanotida osmonning qadri bordir,  
 Bir ko'ngil bayotida ming ko'ngil dardi bordir.  
 Bir jonning jamoliga yuz zer-u zabar kerak,  
 Sochingni har tolasin Allohdan qarzi bordir.

\* \* \*

Mehr osmonida bir to'lin mohim,  
 Qoshimda parvona yolg'iz panohim,  
 Qo'llarim ochilgan ko'kda nigohim,  
 Ona, umr bersin sizga Ilohim.

\* \* \*

Gadoning ko'zida iltijo yongay,  
 Inson gadolikda o'zidan tongay,  
 O'zingdan ortsa gar ehson joizdir,  
 Uning qalbi yig'lar, qo'li quvongay.

\* \* \*

Tashnasan, bir qultum suvda oroming,  
 Tiriksan, to'lgaydir qo'ldagi joming,  
 Ko'ngil daryosidan gar hikmat tutsang,  
 Dillarda gul bo'lib yuz ochar noming.

\* \* \*

Derlar nonning uvog'i ham non,  
 Dasturxonning chirog'i ham non.  
 Gar tiz cho'kib kaftingga olsang,  
 O'zbekiston tuprog'i ham non.

Bilgan odam bilan kengashsang yaxshi,  
 O'qib o'rganganga ergashsang yaxshi.  
 Lek ko'ngil tubidan kelar bir xitob,  
 Uqib o'rganganlar oqillar naqshi.

Tavakkal toshini tutmoq ahdimiz,  
Vale ko'tarmoqqa yetmas shahdimiz.  
Ruhlaridan madad so'rab tursak ham,  
Pahlavon Mahmudning bori baxtimiz.

\* \* \*

To'kilgan tabassum tilloga tengdir,  
Xush niyat gohida Humoga tengdir.  
Bir marta jilmaygin, bir yaxshi gapir,  
Bu olam torga tor, kenglarga kengdir.

\* \* \*

Bizdan baxtli odamlar ko'pdir,  
Bizdan baxtsiz odamlar ko'pdir,  
Kelgin endi, shukr qilaylik,  
Dunyo qo'lda bir langar cho'pdir.

\* \* \*

Izhori ishq uchun dil so'zi yaxshi,  
Rost so'z xitobiga til so'zi yaxshi,  
Ming yil yashaydigan so'z kerak bo'lsa,  
Elakdan o'tolgan el so'zi yaxshi.

\* \* \*

Tongni ibodatda kutadi onam,  
Tongni halovatda kutadi onam.  
Tiz cho'kib dunyoning tinchligin so'rab,  
Bizga xush duolar tutadi onam.

\* \* \*

To'rtlikda to'rt quvonch tizilib turdi,  
To'rtlikdan to'rt armon uzilib turdi.  
Xayyom-u Bedildan madadlar tilab,  
Mahmud ham dil-dildan bir suhbat qurdi.

## IKKILIKLAR

Havasning yuzlari yorug' hamisha,  
Hasadning yuzlari yorilgan shisha.

\* \* \*

Ko'nglim ko'chasiga kirmoqchi edim,  
Ko'nglimning o'zidan tarsaki yedim.

\* \* \*

Garchi boshing osmon, oyog'ing yerda,  
Sendan avvalgilar poyingda, go'rda.

\* \* \*

Tavakkal nahrída mardlar suzadi,  
Noshud o'lgunicha reja tuzadi.

\* \* \*

Armonsiz yashadim, dedi tilida,  
Armonini olib ketdi dilida.

\* \* \*

U baxtga boqmadi, men bekman dedi,  
Bekligi oxiri boshini yedi.

\* \* \*

Quvonch qariganda qayg'u bo'larmish,  
Qayg'u qariganda odam o'larmish.

\* \* \*

Oyni ko'rmay kuyar kun bo'yi oftob,  
Tun bo'yi kerilar dog' yuzli mohtob.

\* \* \*

Shabboda shiviri shaklga sig'mas,  
Ko'ngilning tasviri aqlga sig'mas.



\* \* \*

Quvonch o'z ko'shkiga har kun kiritmas,  
Qayg'u qo'rg'oniga mudom o'q o'tmas.

\* \* \*

Soddalikning sabog'i mushkul,  
Haddan oshsa u qadrsiz qul.

\* \* \*

To'shakning paxtasi or qilar ekan,  
Qadridan yostiqqa zor qilar ekan.

\* \* \*

Samoga sultonlik talab qilmagin,  
Shabnamni sharaflil sadaf bilmagin.

\* \* \*

Xushomad xazonga o'xshaydi,  
Tagingga bir zumga to'shaydi.

\* \* \*

Shirin so'zi shakar emas,  
Achchiq so'zi zahar emas.

\* \* \*

Yomg'ir yog'ar edi qorning ustiga,  
Minnat qilganidek do'sti-do'stiga.

\* \* \*

Sen hasad eshigin ochganing mahal  
Havas yoqasiga chang soldi ajal.

\* \* \*

Haqiqat Xudoning yerdagi yuzi,  
Uni sindirganning singaydir o'zi.

\* \* \*

O'ylamay aytgan har bitta so'zing,  
Do'zaxning tubida ochilgan ko'zing.

\* \* \*

Hayot sahnasida o'yin qilarsan,  
Kuning bitganining to'yin qilarsan.

\* \* \*

Bahor kelsa maysalarni sanab bo'lmas,  
Nodon bilmas, Xudoyimni tunab bo'lmas.

\* \* \*

Otang o'tar qadrin bilarsan,  
Onang o'tar gardin tilarsan.

\* \* \*

Oftobning ovozi sochgan nurida,  
Shu sabab o'ltirar osmon to'rida.

\* \* \*

Umidadan uzilgan odam  
Munkib qolar yigit bo'lsa ham.

\* \* \*

Demang qaydan Mahmudning bayti,  
She'r ko'nglimning gullagan payti.

## MUNDARIJA

Yaxshilikka kelganman .....	3
-----------------------------	---

### HAQNI TANIB

Oqqan daryo oqaveradi .....	7
Elning vafosi .....	8
Ko'kargan ko'ngil .....	9
Savol .....	10
Aytsin .....	11
Bilmasang .....	12
E'tiroz .....	13
Tushunish .....	14
Yig'lasang .....	14
Yurak .....	15
Yashaging kelarkan .....	16
Yolg'izlik .....	17
Sizlar borsiz .....	18
Kurtagida kulgu bor .....	19
Biz ko'rmagan bulutlar .....	20
Jonga chertasizmi .....	21
Iqror .....	22
Yodingizning yulduzi .....	23
Bir o'rim soch .....	24
Bu ne ohkim .....	25
Men ko'rmagan gul .....	26
Ey qora ko'z .....	27
Ko'z tegmasin .....	28
Da'vat .....	29
Gulim .....	30
So'z bergan ham o'zing, Alloh .....	31
Taqdir .....	32

### SAYLANMA

Elim deb aytgin .....	35
Nurning kalomi .....	36
Osmonning egasi bor .....	37
Yaxshi .....	38
O'zimga nasihat .....	40
Paxta .....	41
Aqli xush .....	42

O'zing tur .....	43
lymon nazri .....	44
Ayrimasin .....	45
Sog'inch sarg'aymasin .....	46
Bu yo'llar .....	47
Xabar kelmas .....	48
To'g'ri so'z to'lqinlari .....	49
Dil .....	50
Rizo qilib ket .....	51
Ajab... ..	52
O'xshamas .....	53
Lola .....	54
Kulib yashasin .....	55
Hayot .....	56
Bu dunyoga .....	57
Bo'lmaydi .....	58
Yolg'izlik yomon .....	59
Lolalar rang so'rabdi .....	60
Umr tiladim .....	61
Ona yurt .....	62
Vatan deb... ..	63
O'zbekiston qahramonlari .....	64
Alpomishning avlodlari .....	65
Avval Vatan .....	67
Vatan ne deb so'rmagin .....	68
Bizning bolalar .....	69
Vatanni aslida Vatan qilganlar .....	70
Bizga ishongin, Vatan .....	71
Millat ulug'ligi .....	72
Vatan uchun yashaylik .....	73
Termulib tursangiz .....	74
Bevafo bahorim .....	75
Yarmi bo'sh yostiqlar .....	76
Gulim .....	77
Bu tun .....	78
Muhabbat .....	78
Malham .....	79
Ko'rmay qolsam .....	80
Bo'lgaymikin .....	81
Orom ohangi .....	82
Sizni... ..	83

Qo'shchinor soyasida .....	84
Gina .....	85
Aytgim keldi .....	86
Buncha go'zal bu hayot .....	87
Bedorlarga bering dunyoni .....	88
Yaxshi niyat .....	89
Oybek .....	90
Bahorga yetganlar omon bo'lsinlar .....	91
Xush ko'rdik .....	92
Kechagi kun .....	93
Savol .....	94
Bir kunda .....	95
Bosh uringiz .....	96
Qo'shiq qaritmaydi .....	97
Ko'nglimni asrang .....	98
Otashga otsangiz .....	99
Polvoni bo'lsin .....	100
Salomatlik xush davlating .....	101
Nazar .....	102
Bag'ishlov .....	103
Ayol bor .....	104
Havas chirog'i .....	105
Navro'zni sog'ingan Navro'zga yetsin .....	106
Qashqadaryo .....	107
Qilmish .....	108
Seni qutlab qo'yay .....	108
Bahorim .....	109
Iztirob .....	110
„Yolg'on aytma...“ .....	111
Izlama .....	112
Baxt bo'lib borigin .....	113
Begona qilma .....	114

### MENDAN MENI SO'RAMA

O'tinch .....	117
Do'stinga savol .....	118
Ko'rgan bormi? .....	119
Onam bilan ketmon chopgan ayollar .....	121
Qaytayin .....	123
Oriyat ustuni edi .....	124

G'anim .....	127
Nabira .....	128
Bir kamligi yolg'on dunyoning .....	129
Vafo .....	130
Hikmat .....	131
„Bir misra she'r bitsam...“ .....	131
Omonlik tilaylik .....	132
O'zga uchun .....	133
Yashash baxt .....	134
Xush onlar.....	135
Biz kutgan bahor .....	136
Dunyo bevafo .....	137
Jumboq .....	138
Yo'lga chiqqanman .....	139
Yaxshi ko'raman .....	140
Nima bor bizga? .....	141
Elda bo'lsin.....	142
Bolalar tabassumi.....	143
Siz tug'ilgan kun .....	144
Yarashmas endi .....	145
Yig'lagim keldi.....	146
Shukrona .....	147
Fikri ojiz.....	148
Iftixor .....	149
Yashash shirin.....	150
Ochilgan ko'zlar.....	151
Ketganlardan salom yo'q .....	152
Aziz bo'larmidi.....	153
Mendan meni so'rama .....	154
Yashadingmi o'zing uchun?! .....	155
Tolmasin.....	156
Qanday yashaysan? .....	157
Mukarram bo'ling.....	158
Yorishgan yo'l so'rayman .....	159
Jonim ichra yashar yaxshilar .....	160
Sendan yiroqda.....	161
Olsang... ..	162
Omadin olma .....	163
Zorim bor .....	164
Bulbul.....	165

Biz.....	165
Ko'rgan yaxshi .....	166
Bolalik .....	167
Yayrasang qani .....	168
Bulbul bo'lsang .....	169
Riyokorga .....	170
Sizga baribirmi? .....	171
Quyosh duosi .....	172
Hayronlig' .....	173
Zomin yoshlari .....	174
Sabr .....	175
O'zbekiston g'allasi .....	176
Checha .....	177
Mening orzularim .....	178
Ism .....	179
Qaynona .....	180
Befarqlardan qo'rq .....	181
Ona .....	182
Bilmasang .....	183
Ko'p ekan .....	184

### AHLI MUHABBAT, QAYDASIZ?

Ota uy .....	187
Sodda haqiqat .....	188
Vatan diydori .....	190
Navoiy nuri .....	191
Ustozlar.....	192
Ellikqal'a.....	193
Ayol omon bo'lsa dunyo go'zaldir .....	194
Hofiz .....	195
Yoningda yurganlar .....	196
Quvonch qo'ng'irog'i .....	197
Ma'rifat yoqqan chiroq .....	198
Olma guli.....	199
O'kinch .....	200
Diydor .....	201
Munavvar rang .....	202
Ay dunyo.....	203
Javob .....	204

Azizim .....	205
Gulim .....	206
Elning aytgani .....	207
Yig'ini qo'y .....	208
Oltin yosh .....	209
Ko'ngil oftobi .....	210
Men ranglarda hayot ko'rdim .....	211
Ezgulikka ehtirom .....	212
Ertaklar .....	213
Dil olami .....	214
Orzu .....	215
Kurtak kulgusi .....	216
Sog'inch sahrosi .....	217
Ahli muhabbat, qaydasiz? .....	218
Rost so'z sadosi .....	219
Marg'ilon .....	220
Vafo .....	221
Bizlar kimmiz? .....	222
Samodan olganmikin .....	223
Beshikdagi boyim .....	224
Araz .....	225
Menga .....	226
Nasiba .....	227
Samarqand .....	228
Vatan .....	229
Bitta so'z .....	229
Ona .....	230
So'z hikmati .....	231
Ne qilay .....	232

## DOSTONLAR

Ogoh bo'l, dunyo! .....	235
Oshiq ohi .....	265

## KO'NGIL DARYOSIDAN TO'KILGAN HIKMAT

To'rtliklar .....	285
Ikkiliklar .....	294



*MAHMUD TOIR*

**SAYLANMA**

**II jild**

*(Ikki jildlik)*

*G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent — 2008*

Muharrirlar: *Muhammad Ismoil,  
S. Xo'jaahmedov*

Badiiy muharrir *Sh. Xo'jayev*

Texnik muharrir *S. Tursunova*

Kompyuterda sahifalovchi *K. Hamidullayeva*

Musahhih *D. Ismoilova*

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 30.08.2008. Bichimi 84x108<sup>1/32</sup>.  
Ofset bosma usulida bosildi. Tip.Tayms TAD garniturası. Kegli 11  
shponli. Shartli b. t. 15.96.+0,42 rangli vkl. Nashr t. 9.34+0.42  
rangli vkl. 5000 nusxada bosildi. Buyurtma №334

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi“  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 129, Navoiy ko'chasi,  
30- uy. // Toshkent, Yunusobod dahasi, Murodov ko'chasi, 1- uy.  
Shartnoma № 12-85-08/1.

**84(50')**

**T60**

**Toir, Mahmud**

**Saylanma:** 2 jildlik, 2- jild (Mahmud Toir; So'zboshi muallifniki). — T., „O'qituvchi“ NMIU, 2008.

J.2 — 304 b.

**BBK 84(50')6**